



**PEDAGOGLARNING EHTYOJLARGA ASOSLANGAN UZLUKSIZ
KASBIY RIVOJLANISH TIZIMI: ILG'OR TAJRIBALAR VA
RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

**THE SYSTEM OF CONTINUOUS PROFESSIONAL DEVELOPMENT
OF EDUCATORS BASED ON THEIR NEEDS: BEST PRACTICES AND
PROSPECTS OF DEVELOPMENT**

**MATERIALS OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE**

**СИСТЕМА НЕПРЕРЫВНОГО ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО
РАЗВИТИЯ, ОСНОВАННАЯ НА ПОТРЕБНОСТЯХ ПЕДАГОГОВ:
ПЕРЕДОВОЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ**

**МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ
КОНФЕРЕНЦИИ**

GULISTON-2024

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI
VAZIRLIGI**

SIRDARYO VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI

**PEDAGOGLARNING EHTIYOJLARGA ASOSLANGAN UZLUKSIZ
KASBIY RIVOJLANISH TIZIMI: ILG‘OR TAJRIBALAR VA
RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI 2024-
*yil 16-oktabr***

**“THE SYSTEM OF CONTINUOUS PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF
EDUCATORS BASED ON THEIR NEEDS: BEST PRACTICES AND
PROSPECTS OF DEVELOPMENT”**

**MATERIALS OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE**

October 16, 2024

**«СИСТЕМА НЕПРЕРЫВНОГО ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ,
ОСНОВАННАЯ НА ПОТРЕБНОСТЯХ ПЕДАГОГОВ: ПЕРЕДОВОЙ
ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ »**

**МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ
КОНФЕРЕНЦИИ**

16-октябрь 2024 г.

GULISTON-2024

Pedagoglarning ehtiyojlarga asoslangan uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimi: ilg'or tajribalar va rivojlanish istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi.

Ushbu konferensiya to'plamida pedagogik mahorat markazi tomonidan tashkil etilgan – "Pedagoglarning ehtiyojlarga asoslangan uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimi: ilg'or tajribalar va rivojlanish istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumaniga kelib tushgan tezis va maqolalar o'rin olgan. Mazkur xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda pedagoglarga yangi metodikalar o'rgatish, ularning malakasini oshirish, raqamli texnologiyalarni qo'llagan holda ta'lim samaradorligini oshirishga doir xalqaro va mahalliy ilmiy tadqiqotlarni to'plash, tajribalarni o'rganish, aniqlash, ta'lim samaradorligini ta'minlashda life-long learning – hayot davomida o'qish tamoyilining o'rni, o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, ta'lim bosqichlari uzviyligini ta'minlashda masofaviy ta'lim sifatini tubdan oshirish va takomillashtirishga oid xorijiy tajribalar bo'yicha to'plangan materiallar joy olgan.

Ilmiy-amaliy konferensiya materiallaridan oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchilari, barcha tadqiqotchilar foydalanishlari mumkin.

Mas'ul muharrir: - G.Berdaliyeva – markaz direktori

Tahrir hay'ati:

- T.Mirzaqulov – filologiya fanlari doktori, professor;
- D.A.Abdurahimova – p.f.d.(DSc), professor
- G.Berdaliyeva – pedagogika fanlari bo'yicha PhD, dotsent;
- A.Uralov – filologiya fanlari doktori (DsC), dotsent;
- katta o'qituvchilar: I.Biybalayev, A.Nizamov, B.Atayeva, O.Shirinov, M.Nazarova, I.Abduraimov

Taqrizchilar:

- A.Uralov – SVPMM Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri, f. f. d. (DsC), dotsent.
- U.Qlichev – O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Sirdaryo Akademik litseyi "Ijtimoiy-gumanitar" fanlar kafedrasini rahbari, tarix fanlari nomzodi. (PhD)

Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2024-yil 15-oktabrda o'tkazilgan 7-sonli yig'ilishining qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

To'plamdan o'rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas'uldir.

© SVPMM, 2024

SO‘Z BOSHI

XXI asr fan-texnika, axborotlashtirish asri bo‘lishligi bilan bugungi jadallashib borayotgan ilm-fan yutuqlari kechagi oldimizga qo‘yilgan rejalarning natijasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda butun dunyoda ro‘y berayotgan globallashuv sharoitida mamlakatimiz barqaror taraqqiy etib borish uchun har tomonlama modernizatsiyalashgan tizimli yondashuvni taqozo qilayotganligi munosabati bilan olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida ko‘plab vazifalar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2023-yil 11-sentabr kuni “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash haqidagi PF – 158-sonli farmon imzolandi. Bu esa ta‘lim sohasida ham ko‘plab vazifalarni amalga oshirish shartini qo‘ydi.

Uchinchi Renessans davriga kelib yurtimizda ko‘plab ta‘lim muassasalari yangidan qurildi, ta‘mirlandi, eng zamonaviy o‘quv anjomlari bilan ta‘minlandi. Bu boradagi ishlar bugungi kunda ham jadal davom etmoqda, mustaqil fikr, intellektual jihatdan rivojlangan, o‘z dunyoqarashiga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash har doimgidek dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, dunyo taraqqiyoti shiddati, unda kechayotgan voqealar rivoji barcha sohalar kabi ta‘lim-tarbiya jarayoniga ham yangicha yondashuv, innovatsiyalarni tatbiq etishni taqozo etmoqda. Avvalo bu, ta‘lim sifatini ta‘minlash eng muhim o‘rin tutadigan o‘qituvchi-pedagoglar saviyasini muntazam oshirib borish, jarayonga eng zamonaviy va ilg‘or axborot hamda ta‘lim texnologiyalarini joriy etish bilan bog‘liq muammolarda ko‘rinmoqda.

Muvaffaqiyatli ta‘lim tizimlarida o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratiladi. Misol tariqasida Norvegiyada o‘qituvchining yillik ish vaqtining 6 kuni malaka oshirish uchun ajratilsa, Yaponiyada bu ko‘rsatgich 10 kunni, Singapurda 12, Shanxayda 33 kunni tashkil etadi.

E‘tiborlisi, o‘quvchilarining ta‘limdagi yutuqlarini baholashga qaratilgan xalqaro PISA tadqiqotlarida Shanxay, Singapur, Yaponiya yuqori o‘ntalikka kirishini hisobga olsak, o‘qituvchining malaka oshirishi va o‘quvchilarining ta‘limdagi yutuqlari o‘rtasida uzviy bog‘liqlik bor.

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi 16-sonli buyrug‘i 1-ilovasiga, shuningdek, Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi tasarrufidagi Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi yillik ish rejasiga asosan tashkil etilayotgan xalqaro anjuman – *Pedagoglarning ehtiyojlarga asoslangan uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimi: ilg‘or tajribalar va rivojlanish istiqbollari* masalasini hal etishni rejalashtirib, o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘ydi: *raqamli ta‘lim muhitida fanlararo integratsiyani qo‘llash imkoniyatlari; fanlararo integratsiyani qo‘llashning ta‘lim*

samaradorligiga ta'siri; ta'lim samaradorligini oshirishda kreativ va zamonaviy metodlarning ahamiyati; yangi avlod darsliklari: ilg'or tajribalar va rivojlanish.

Ta'lim tizimi tajribalari shuni ko'rsatmoqdaki, o'quv jarayonida internet tizimi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yangi bilimlarni egallash, saqlash, uzatish hamda amaliy qarorlar qabul qilish vositasiga aylantirish hisobiga kadrlarning sifat darajasini tubdan yaxshilashning imkoniyatlari tobora kengayib bormoqda. Endi xalq ta'limi tizimi xodimlari masofadan turib ham malaka oshirishlari mumkin. Buning uchun ularda telefon yoki kompyuter va internet bo'lishining o'zi kifoya qiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan masofaviy ta'limda foydalanish avvalo ta'lim sifati, ijtimoiyligi, ommabopligi hamda iqtisodiy jihatdan hammaga maqbul bo'lishligini ta'minlaydi. Bulardan tashqari masofaviy ta'limni bir qator afzalliklari hamda ijobiy jihatlari ham mavjud.

O'ylaymanki bugungi konferensiya a'zolari tomonidan ishlab chiqiladigan ilmiy maqolalar, ishlab chiqiladigan tavsiyalar maktabgacha va maktab ta'limi tizimini va rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Markaz direktori G.Berdaliyeva

1-SHO‘BA. UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHNI TA‘MINLASHDA LIFE-LONG LEARNING – HAYOT DAVOMIDA O‘QISH TAMOYILINING O‘RNI

RAQAMLI TA‘LIM MUHITIDA UMUMTA‘LIM MAKTABLARI O‘QITUVCHILARINI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH

Berdaliyeva Gulasal Abduqunduzovna

Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi direktori, (PhD), dotsent

Annotasiya: Uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimi – bu zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatga erishishning muhim shartlaridan biri. Bu tizim kasbiy bilimlar, ko‘nikmalar va tajribani muntazam ravishda yangilab borish, shuningdek, o‘z sohasidagi yangiliklarni kuzatib, ularni amaliyotga tatbiq etishni o‘z ichiga oladi. Bugungi tezkor o‘zgaruvchan mehnat bozorida muvaffaqiyatli raqobatlashish uchun inson doimiy ravishda bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirib borishi kerak. Ushbu maqolada uzluksiz malaka oshirish tizimlari kontsepsiyasi, ularning zamonaviy tashkilotlardagi ahamiyati va xodimlar, ish beruvchilar va keng jamiyat uchun ta’siri o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: kasbiy rivojlanish, ahamiyati, raqamli texnologiyalar, tashkilotlar, malakali xodimlar

Kirish: Texnologiyalar, ish jarayonlari va talablar tez o‘zgarayotgan davrda malaka va bilimlar eskirishi tabiiy holat. Uzluksiz rivojlanish tizimi bu muammoga qarshi samarali yechimdir. Har bir sohada yangilanish va rivojlanish bo‘layotgani sababli, ishchi kuchi doimo zamon talabiga mos bo‘lishi kerak. Misol uchun, raqamli texnologiyalar, sun‘iy intellekt, ma‘lumotlar tahlili kabi yo‘nalishlarda yangi ko‘nikmalar tez orada talabga aylanishi mumkin. Shuningdek, uzluksiz kasbiy rivojlanish xodimlarga o‘z ishlarida yuqori samaradorlikni ta‘minlash imkoniyatini beradi. Malakali xodimlar o‘z sohalarida samarali yechimlarni topib, yangi g‘oyalar yaratish va amalga oshirishda faol ishtirok etadilar. Bu, o‘z navbatida, kompaniyalar va tashkilotlarning raqobatbardoshligini oshiradi.

Uzluksiz kasbiy rivojlanishning asosiy jihatlari:

1. Ta‘lim olish imkoniyatlari – Rivojlanish tizimining birinchi bosqichi doimiy ravishda yangi bilimlar olishdir. Bu maqsadda turli xil o‘quv kurslari, seminarlar, konferensiyalar va o‘quv dasturlari mavjud bo‘lishi kerak. An‘anaviy o‘quv usullari bilan birga, onlayn platformalarda ta‘lim olish ham juda keng tarqalgan bo‘lib, bu jarayonni osonlashtiradi va qulay qiladi.

2. Ko‘nikmalarni rivojlantirish – Bilimni nazariy jihatdan o‘rganishdan tashqari, amaliyotda ham qo‘llash muhimdir. Praktiki ko‘nikmalarni o‘zlashtirish xodimlarning o‘z ish jarayonini yanada samarali tashkil qilishlariga yordam beradi. Bu borada treninglar va amaliy seminarlar alohida o‘rin tutadi.

3. Tajriba almashish – Tajribali mutaxassislar va yangi xodimlar o‘rtasida tajriba almashish rivojlanishning samaradorligini oshiradi. Mentorlik tizimi yoki professional guruhlar doirasida o‘zaro bilim va ko‘nikmalarni almashish, ishchi xodimlarning professional o‘sishiga yordam beradi.

4. O‘z-o‘zini baholash va yangilanish – Inson o‘z faoliyatini doimo tahlil qilib, qaysi yo‘nalishlarda o‘zini takomillashtirish kerakligini aniqlashi kerak. Bu jarayon kasbiy rivojlanishda asosiy ahamiyatga ega. Shu bois, har bir kasbiy o‘stirish jarayoni o‘z-o‘zini baholash, qayta o‘rganish va yangi strategiyalar ishlab chiqishni talab etadi.

Rivojlanish uchun imkoniyatlar

Kompaniyalar o‘z xodimlarining doimiy kasbiy rivojlanishini ta‘minlash uchun zarur sharoitlar yaratishlari kerak. Buning uchun quyidagi yo‘nalishlar ko‘rib chiqilishi mumkin:

- O‘quv kurslarini tashkil qilish
- Xodimlar uchun kasbiy bilimlarni oshirish bo‘yicha muntazam treninglar va o‘quv kurslari tashkil etish orqali ularning malakalarini oshirish mumkin.
- Onlayn ta‘lim imkoniyatlarini kengaytirish
- Ko‘plab zamonaviy o‘quv platformalari onlayn kurslar orqali xodimlarga bilim olish imkonini beradi.

Bunday kurslar masofaviy ta‘limni qulay qiladi va xodimlarga vaqtni tejash imkonini yaratadi.

- Mentorlik dasturlarini joriy etish
- Tajribali mutaxassislar yangi kelgan xodimlarga yordam berishi, ularni kasbiy jihatdan o‘stirishi mumkin.

Bu tajriba almashish jarayonini tezlashtiradi va jamoaviy ruhni mustahkamlaydi.

Tahlil va natijalar.

Uzluksiz kasbiy rivojlanishning individual va tashkilotlarga ta‘siri.

Uzluksiz kasbiy rivojlanish nafaqat shaxsiy taraqqiyot uchun, balki tashkilotlar uchun ham katta ahamiyatga ega. Bu jarayonning individual va tashkilotlarga bo‘lgan ta‘sirini quyidagi nuqtalarda ko‘rish mumkin:

Shaxsiy rivojlanishga ta‘siri

O‘z kasbiy o‘rningni mustahkamlash: Uzluksiz o‘rganish va rivojlanish insonning o‘z kasbida mutaxassis darajasiga erishishiga yordam beradi. O‘z kasbiy o‘rnini mustahkamlagan kishi yangi ish imkoniyatlariga ochiq bo‘ladi va turli lavozimlarga nomzod sifatida ko‘riladi.

Ishga bo‘lgan ishonchning oshishi: Yangi bilimlar va ko‘nikmalar orttirgan xodim o‘z vazifalarini samarali bajarish uchun zarur ishonchga ega bo‘ladi. Bu ishonch ish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni hal qilishda va innovatsiyalarni joriy etishda muhim ahamiyatga ega.

Shaxsiy rivojlanish va motivatsiya: O‘qish va yangi bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni insonning shaxsiy motivatsiyasini oshiradi. Yangi yutuqlarga erishish istagi xodimni yanada faol va samarali bo‘lishga undaydi. Bu motivatsiya xodimni o‘z ustida ishlashga, yuqori maqsadlarga intilishga rag‘batlantiradi.

2. Tashkilotlarga ta‘siri

Kadrlar malakasini oshirish: Uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimi tashkilot xodimlarining bilim va ko‘nikmalarini muntazam yangilashga xizmat qiladi. Bu esa, kompaniyaning bozor raqobatbardoshligini oshiradi. Yaxshi tayyorgarlikka

ega xodimlar tezroq va samaraliroq ishlashadi, bu esa umumiy biznes samaradorligini oshiradi.

Innovatsion g'oyalarni rivojlantirish: Xodimlar doimiy ravishda yangi bilimlarga ega bo'lib, o'z sohalaridagi yangiliklarni bilib borishadi. Bu tashkilot ichida yangi innovatsion g'oyalarni shakllantirishga, yangi mahsulot va xizmatlar yaratishga hissa qo'shadi. Innovatsiyalarni joriy etish esa tashkilotning rivojlanishi va o'sishi uchun muhimdir.

Kompaniya madaniyatini rivojlantirish: Uzluksiz ta'lim va rivojlanishga qaratilgan e'tibor tashkilotda o'zgarishlarga moslashuvchanlikni oshiradi va jamoaviy rivojlanish muhitini shakllantiradi. Bu, o'z navbatida, kompaniyada ijobiy madaniyatni yaratishga va xodimlarning tashkilotga bo'lgan sadoqatini kuchaytirishga yordam beradi.

Uzluksiz kasbiy rivojlanishni tashkil etishning usullari

Har bir tashkilot o'z xodimlari uchun uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini yo'lga qo'yishi lozim. Buning uchun bir qator usullarni qo'llash mumkin:

1. Ichki trening va seminarlardan foydalanish

Kompaniyalar o'z xodimlari uchun maxsus treninglar tashkil qilishi mumkin. Bu treninglar nafaqat xodimlarning yangi bilim va ko'nikmalarini oshiradi, balki ularning kompaniya faoliyatiga chuqurroq jalb qilinishini ham ta'minlaydi. Shu bilan birga, ichki seminarlar xodimlar o'rtasida tajriba almashish uchun samarali platforma yaratadi.

2. Professional sertifikatlash va o'quv dasturlari

Xodimlar malakasini oshirish va kasbiy rivojlanishini tasdiqlovchi sertifikatlarni olishga rag'batlantirish ham muhimdir. Sertifikatlash dasturlari xodimlarga o'z bilimlarini nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham mustahkamlash imkonini beradi. Bu nafaqat kasbiy rivojlanish uchun foydali, balki xodimning rezyumesida ham katta ahamiyatga ega bo'ladi.

3. Onlayn ta'lim platformalaridan foydalanish

Bugungi kunda onlayn ta'lim platformalari orqali o'quv kurslarini o'zlashtirish imkoniyati keng tarqalgan. Masofaviy ta'lim xodimlarga o'z vaqtini mustaqil rejalashtirish imkonini beradi, bu esa rivojlanish jarayonini tezlashtiradi. Coursera, Udemy, edX kabi platformalar keng miqyosda bilim olish imkonini beradi va xodimlarning kasbiy o'sishiga yordam beradi.

4. Mentorlik tizimini rivojlantirish

Katta tajribaga ega bo'lgan xodimlar yangi kelgan yoki kasbiy o'sishga intilayotgan hamkasblariga mentorlardan biri sifatida yordam bera oladi. Bu tizim tashkilotda o'zaro yordam va tajriba almashish jarayonini rivojlantirishga katta hissa qo'shadi.

Kasbiy rivojlanishdagi to'siqlar va ularni yengib o'tish yo'llari

Uzluksiz kasbiy rivojlanish ko'plab afzalliklarga ega bo'lsa-da, bu yo'lda turli to'siqlar ham mavjud bo'lishi mumkin. Quyida ba'zi to'siqlar va ularni yengib o'tish yo'llari keltirilgan:

Vaqt yetishmasligi: Ko'p xodimlar kasbiy rivojlanish uchun vaqt ajratishda qiyinchiliklarga duch keladi. Bunday holatda tashkilotlar o'quv dasturlarini

moslashuvchan qilib tashkil qilishi, masalan, qisqa modul kurslari yoki onlayn o'quv dasturlaridan foydalanish orqali vaqtni tejashga imkon yaratishi mumkin.

Motivatsiyaning yo'qligi: Ba'zi xodimlar yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga yetarli darajada rag'bat topa olmaydi. Bunday holatda, tashkilotlar xodimlarning motivatsiyasini oshiruvchi dasturlarni joriy qilishlari, mukofotlash tizimlarini yaratishlari mumkin. Shuningdek, har bir xodimga individual rivojlanish rejalari tuzish ham foydali bo'ladi.

Moliyaviy resurslarning cheklanganligi: O'quv kurslari va treninglar tashkil qilish ko'p hollarda moliyaviy xarajatlarni talab qiladi. Tashkilotlar ushbu muammoni hal qilish uchun xodimlarni o'zaro o'qitish va ichki treninglarni ko'proq joriy qilish orqali xarajatlarni kamaytirishlari mumkin.

XULOSA

Uzliksiz kasbiy rivojlanish tizimi – bu insonning kasbiy o'sishi va muvaffaqiyatga erishishining kalitidir. Bugungi kunda har qanday sohada raqobatbardosh bo'lish uchun muntazam ravishda yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish zarur. Tashkilotlar va xodimlar birgalikda bu jarayonni samarali boshqarishlari mumkin bo'lsa, natijada ular yanada yuqori natijalarga erishadilar. Texnologiyalar va mehnat bozori tez o'zgarib borayotgan hozirgi davrda uzluksiz rivojlanish zamon talabidir va u insonning shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim omillardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Wareing, C. Buissink, D. Harper, M. Gellert Olesen, M. Soto, S. Braico, P. Van Laer, I. Gremion, L. Rainford (2017) Continuing professional development (CPD) in radiography: a collaborative European meta-ethnography literature review.
2. Jill Schostak, Mike Davis, Jacky Hanson, John F. Schostak, Tony Brown, Peter Driscoll, Ian Starke, Nick Jenkins (2010) 'Effectiveness of Continuing Professional Development' project: a summary of findings
3. Ashebir Mekonnen (2014) Practices and challenges of school based continuous professional development in secondary schools of kemashi zone
4. Daniel Desta, Desalegn Chalchisa, Girma Lemma (2013) School-based continuous Teacher Professional Development in Addis Ababa: An Investigation of Practices, Opportunities and Challenges <Special Issue: Study results of the Africa-Asia university dialogue for educational development network second phase>
5. Samar Aboulsoud, Helena Filipe (2019) Opening Editorial: CPD and Lifelong Learning: a call for an evidence based discussion

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Uralov Azamat Begnarovich

*Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi tillarni o'qitish kafedrasini mudiri,
f.f.d(DSc), dotsent*

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni ochib berilgan. Ijodiy tafakkur sohibini, o'sayotgan, rivojlanayotgan va taraqqiyot sari yuz tutayotgan mamlakatimiz uchun zarur bo'lgan, ijodkor va mustaqil fikrlay oladigan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish ona tili ta'limi oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifa ekanligi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, pedagogika, pedagogik texnologiya, darslik, ta'lim

Абстрактный. В статье раскрывается роль современных педагогических технологий. Показано, что важнейшей и актуальной задачей, стоящей перед родным образованием, является воспитание творческого мыслителя, человека, способного мыслить творчески и самостоятельно, что необходимо нашей растущей, развивающейся и развивающейся стране.

Ключевые слова: узбекский язык, педагогика, педагогическая технология, учебник, образование.

Abstract. The role of modern pedagogical technologies is revealed in the article. It has been shown that the most important and urgent task facing mother tongue education is to bring up a creative thinker, a person who can think creatively and independently, which is necessary for our growing, developing and developing country.

Key words: Uzbek language, pedagogy, pedagogical technology, textbook, education

Maktab darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni katta. Chunki hozirgi yosh avlodning fikrlash doirasi zamonaviy texnikalar asrida rivojlanib bormoqda. Endilikda eski dars tizimi bilan bolani e'tiborini jalb qilib bo'lmaydi. O'qituvchilar ham bu kabi masalalarga jiddiy e'tibor qaratayapti.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan eng keng foydalanilayotgani bu ko'rgazmalilikdir. Bu o'quvchini faqat nazariy ma'lumot bilangina cheklanmay, balki uning tasavvur doirasini ham shakllantiradi. Chunki o'qituvchi har doim ham o'tayotgan narsasini o'quvchiga to'liq yetkazib bera olmaydi. Xuddi shu vaziyatda ko'rgazmali materiallar unga yordam beradi. Ko'rgazmali materiallar tanlashda ham o'qituvchi: o'quvchining yosh xususiyati; tanlangan ko'rgazmalarning o'tilayotgan mavzu maqsadi va vazifalariga mosligi; uning aniqligi va tushunarligi; ko'rgazmalarning rang-barangligi bilan o'quvchilarda qiziqish uyg'ota olish jihatlariga e'tibor berish lozim.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan yana biri muammoga asoslangan ta'lim hisoblanadi. Bu texnologiya o'quvchilarning o'z fikrini bildirish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bu texnologiyani o'rgangan o'quvchi real hayotdagi muammolarni yechishda ham shoshib qolmaydi.

Hamkorlikda o'rganish texnologiyasi ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiylaridan biri hisoblanadi. Chunki o'quvchi fanni sevishi uchun, avvalo, fan o'qituvchisini sevishi kerak. Shuning uchun ham o'qituvchi o'z o'quvchilari bilan do'stona muhit yarata olishi kerak. Bu o'qituvchiga darsda o'quvchilarni erkin qatnashtira olish imkonini ham beradi.

Hozirgi texnika asrida o'qituvchi o'z darsida zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanishi juda muhimdir. Bu usul darsning yanada qiziqarli va tushunarli bo'lishiga yordam beradi. Ayniqsa, bu texnologiya adabiyot darslarida katta yordam beradi. Biror asarni o'quvchilarga tushuntirganda ularga o'sha asar asosida yaratilgan videofilmlarni qo'yib berish orqali ularda bu asarning yanada esda qolishini va asar muhitiga tushish imkonini yaratish mumkin.

Ushbu texnologiyalardan samarali foydalanish orqali o'qituvchilar keyingi avlodni murakkab va tez rivojlanayotgan dunyoda muvaffaqiyatlar qozonishga tayyorlashlari mumkin. Bu texnologiyalardan samarali foydalanish o'qituvchilar uchun yetarli tayyorgarlik va qo'llab-quvvatlashni talab etadi. Umuman olib aytganda, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilar o'rtasida erkin fikrlashni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Faol ishtirok etishni, mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradigan o'quvchilarga yo'naltirilgan o'quv muhitini yaratish juda muhimdir. Bunga erishish uchun, albatta, o'qituvchilarda yetarlicha yangi g'oyalar va ko'nikmalar zarur. O'quvchilar o'rtasida erkin fikrlashni rivojlantirish uchun o'quv muassasalarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga yetarlicha sarmoya va imkoniyatlar yaratib berish lozim.

Bugungi kunda istalgan fan o'qituvchisining pedagogik dasturiy vositalarni yarata olishi va ularni mashg'ulotlarda unumli qo'llay olishi davr talabidir. O'zbek tili va adabiyoti darslarida foydalaniladigan elektron materiallarning sifati, samaradorligini oshirish yo'llarini o'rgatadigan yuqoridagi fan o'zbek tili va adabiyoti darslarining yanada yuqori saviyada tashkil etilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbek tili o'qitish metodikasi fani egallangan bilimlarni pedagogik amaliyotga joriy qilish, ilg'or pedagogik texnologiyadan unumli foydalanishga yo'naltirilganligida. U ijodiy tafakkur sohibini shakllantirishning lisoniy-ta'limiy asoslarini o'rganadi.

Ijodiy tafakkur sohibini, o'sayotgan, rivojlanayotgan va taraqqiyot sari yuz tutayotgan mamlakatimiz uchun zarur bo'lgan, ijodkor va mustaqil fikrlay oladigan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish ona tili ta'limi oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifa hisoblanadi.

Yangi zamonaviy texnologiyalarga asoslanib tuzilgan, ta'limning jahon andozalariga mos keladigan dastur va darsliklar yaratish davr talabidir. Aynan shu nuqtayi nazardan olganda, hozirgi o'zbek adabiy tili qurilishining ilmiy talqnlari ham, lug'aviy – grammatik munosabatlar tizimi ham yangilandi va rivojlantirildi. Shu sabab, pedagogika institutlari hamda universitetlarini bitirib chiqayotgan yoshlar maxsus tayyorgarliksiz, ona tili mashg'ulotlarini talab darajasida

o‘tkazishga qiynaladilar. Mazkur kitobda ona tili o‘qitishning yangilangan mazmuni, texnologiyasini – ongli – verbal kognitiv ta’lim tizimiga tayanilgan holda izohlab berishga, bu haqida qisqacha tushuncha berishga harakat qilindi.

Uzluksiz raqobatchilikka tayangan bozor iqtisodiyoti tezkor, tadbirkor, sharoitga ko‘ra ish tuta biladigan, maqsadga erishish vositalarini jadallik bilan yangilay oladigan faol shaxslarga muhtoj bo‘ladi. Shuning uchun G‘arb davlatlarida tarbiya tizimida bixevioristik yondoshuvdan kognitiv yondoshuvga qarab siljish sezilarli bo‘ldi. Inson faoliyatini baholashda ta’limiy, o‘rganilgan, o‘zlashtirilgan – kognitiv o‘tgan asrning 60-yillarigacha pedagogika va psixologiyada hukmron bo‘lgan bixevioristik yondoshuvdan quyidagicha farqlanadi:

a) bixevioristik yondoshuvda inson xatti harakatlari tashqi muhit ta’siri bilan belgilanadigan, ko‘p hollarda ongsiz reaksiyalar majmuasi sifatida tushuniladi;

b) kognitiv yondoshuvda bu xatti harakatlarda onglilik – ta’lim asosida hosil qilingan malaka va ko‘nikmalar ustunligi tan olinadi.

Ko‘rinib turibdiki, bixevioristik yondoshuvda inson va tarbiya sust, kognitiv yondoshuvda esa ular faoldir. Ma’lumki, bozor iqtisodiyotida yashash sharti insoniy faollikdir. Shuning uchun AQSh va G‘arbda o‘tgan asrning 60-yillaridayoq kognitivizm zudlik bilan pedagogika, didaktika tizimlariga kirib kela boshladi. Bu oqim o‘sha davrda ancha ommalashgan ta’limning verbal (ya’ni kommunikativ muloqotda ta’lim oluvchining faolligi va o‘zligini namoyon qilishga intilishi) usullari bilan birlashib, ongli verbal – kognitiv ta’lim yo‘nalishini shakllantiradi. Mashhur pedagog – metodist D. Ozbel bu yo‘nalishga asos solib, ta’lim jarayonida yetakchi usul – kashfiyot (ing. discovery) ekanligini alohida ta’kidladi. Kashfiyot ta’lim usulining mohiyati shundaki, ta’lim oluvchi har bir topshiriqni bajarish jarayonida yangi yangi materiallarni kashf etish yoki nimadir yaratish bilan shug‘ullanadi. Shuning uchun ta’lim jarayonida onglilik yetakchilik qiladi.

Sho‘ro pedagogikasi ijodkor shaxsni emas, balki bilimdon ijrochini tarbiyalashga qaratilganligi sababli, ongli verbal – kognitiv ta’lim usuli tarbiya tizimida ommalashtirilmadi. Istiqloq sharofati bilan bunday to‘siqlar barham topdi va O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida “...ijodkor shaxsni tarbiyalash ta’lim tizimining bosh vazifasi...” – deb belgilandi. Jumladan, muhtaram Birinchi Prezidentimiz O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Birinchi chaqriq IX sessiyasida so‘zlagan nutqda shunday ta’kidlagan edilar: “O‘qituvchining bosh vazifasi – o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilishdan iborat.

Shuning uchun bozor iqtisodiyoti sharoitida o‘zini oqlagan va yuqorida sanab o‘tilgan psixolingvistik omillar bizning ta’lim tizimimizga ham shaxdam kirib kelmoqda”.

Ta’lim jarayonida tafakkur mahsulini voqelantirishning bunday pedagogik-psixologik omillari, usul va vositalari juda ko‘p va rang-barangdir. Ulardan asosiylari sifatida, quyidagilarni sanab o‘tishimiz mumkin:

– talaba, har bir mashg‘ulotda darslik talabi asosida unga berilgan, yetkazilgan bilimlarni takrorlash bilan emas, balki uning yo‘llanmasi bilan yangi bilim, ko‘nikma, malakalar va kompetensiya hosil qilishi, o‘zi uchun biror yangilikni kashf etishi lozim. Bu kognitivlikning bosh omilidir.

– talaba passiv tinglovchi (ko‘chiruvchi, takrorlovchi, bajaruvchi) emas, balki izlovchi, qiyoslovchi, kashfiyotchi, kreativ fikrlovchi bo‘lishi kerak. Shuning uchun uning og‘zidan (qalami ostidan) chiqqan har bir so‘z, fikr, hukm, bayon uning o‘ziniki (aytilgan, berilgan, eshitilganning takrori emas!) bo‘lmog‘i lozim. Albatta, talabadan tug‘ilgan bu fikr olamshumul kashfiyot yoki biror chigal muammoning yechimi bo‘lmasligi mumkin, lekin o‘qituvchi (darslik) bergan axborotning soddagina takrori ham emas. Bunday ta‘lim usuli (verballik) talabada Mustaqillik, mas‘uliyat, o‘z menligini anglash, ijod, bunyod qilish ruhini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bunda talaba bilan tinglovchilar (jumladan, o‘qituvchi) orasidagi aloqa-munosabat (fikr almashtirish) juda ko‘p hollarda jonli og‘zaki munozara, qolaversa, bahs tusini oladi.

– o‘qituvchi (darslik) ning ta‘lim oluvchiga beradigan yo‘llanmasi shunday tuzilmog‘i lozimki, talabalarning izlanish va ijod mazmuni mohiyatan bir yo‘nalishda, lekin ular shaklan va mazmunan rang-barang bo‘lmog‘i kerak. Shundagina har bir ta‘lim oluvchi o‘zligini, ilmiy iqtidorini mumkin qadar erkinroq ifoda etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Darsda musobaqa, bellashuv ruhi hukmronlik qiladi.

– talaba, dars jarayoni (uy vazifasini bajarish va uni tahlil etish)da o‘qituvchi yo‘llanmasi (darslik topshirig‘i) asosida izlanar, fikr qilar, muammoni topar, biror hukmga kelar ekan, o‘z fikrini asoslash, isbotlash va himoya qilishga intilmog‘i lozim. Mashg‘ulotning tashkil etilishi va o‘quv materiali bunga keng yo‘l ochib bermog‘i, o‘rganuvchining yosh psixologiyasi va aqliy fiziologik qobiliyatiga mos tarzda bo‘lmog‘i zarur. Ta‘limning *onglilik* omili mana shularda namoyon bo‘ladi. Endilikda amaliyotga joriy etilgan Davlat ta‘lim standartlari asosida boshqa fanlar qatorida “Ona tili” o‘quv dasturi va shu dastur asosida yangi ona tili darsliklarining tuzilishi, ko‘rinishi, shakli, o‘quv topshiriqlari va materiallarini yuqorida sanab o‘tilgan omillar nuqtayi nazaridan psixolog va didakt sifatida ko‘zdan kechirish, yangi avlod darsliklarida, asosan, ongli verbal – kognitiv ta‘lim tamoyili ustivor bo‘lib borayotganligini ko‘rsatmoqda.

Bunday omillar asosida ma‘lum bir o‘quv predmetini to‘laligicha tizimli yo‘lga qo‘yish til o‘qitish metodikasi uchun yangilikdir. Zeroki, oldingi davrlarda bunday ta‘lim usulining elementlari muammoli ta‘lim sifatida ayrim mavzularni o‘rganish jarayonidagina qo‘llanilar edi. Hozirgi zamonaviy darsliklar esa ko‘proq shunday ta‘lim usuliga tayanadi. O‘z-o‘zidan tushunarliki, bunday yondashuv til o‘qitish metodikasi oldiga qator yangi vazifalarni qo‘yadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “2022-2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha Milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” PF – 134-sonli Prezident farmoni. 2022-yil 11-may. “Milliy dastur”. – T. ; 2022-2026-yillar.
2. Abduqodirov A. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida yangi axborot texnologiyalardan foydalanish muammolari. Uzluksiz ta’lim jurnali, 2002. 4-son.
3. Abrayeva M. O‘quvchilarda nutqiy kompetensiyani shakllantirishda didaktik o‘yinlardan foydalanish. – Toshkent, 2020.
4. Choriyev R. Yangi pedagogik texnologiyalar-ta’lim –tarbiya sifat va samaradorlik omili. – Toshkent , 2010.
5. Do‘stmuhamedova Sh. A., Nishonova Z. T. va b. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2013.
6. Uralov A. O‘zbek tili morfologiyasida nomutanosiblik. – Guliston: Ziyo nashr-matbaa, 2022.
7. Uralov A., Qambarov M. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: MIF MSH, 2024.
8. Uralov A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
9. Ziyodova T. U. O‘qituvchi kitobi. Ona tili o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma. – Toshkent; 2002.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA GIPERAKTIV BOLALAR BILAN ISHLASHNING PSIXOLOGIK YONDASHUVLARI

O.R.Avezov

Osiyo xalqaro universiteti professori, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Annotasiya: Mazkur maqolada kichik maktab yoshida bolalar psixikasida yuzaga keladigan giperaktivlik va uni oldini olish, hamda, diqqati tanqis bolalarga psixologik yordam ko'rsatish amaliyoti haqida tushunchalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Psixologik himoya, diqqat funksiyasi, giperaktivlik, psixik faoliyatning inertligi, diqqat, giperaktiv bola, impulsivlik mezoni, ta'sirning intensivligi.

Keywords: *Psychological protection, attention function, hyperactivity, inertia of mental activity, attention, hyperactive child, impulsivity criteria, intensity of impact.*

Klyuchevyye slova: *Psixologicheskaya zauqita, funktsiya vnimaniya, giperaktivnost, inersiya psixicheskoy deyatelnosti, vnimaniye, giperaktivnyy rebenok, kriterii impulsivnosti, intensivnost vozdeystviya.*

Mavzuning dolzarbligi. Bozor iqtisodiyoti munosabatlari taraqqiy etayotgan hozirgi jamiyatda inson shaxsi rivojlanishiga alohida talablar qo'yiladi. Ta'lim tizimi oldiga o'quvchilarda shunday ko'nikmalarni shakllantirish vazifasi turibdiki, bu ko'nikmalar jadal rivojlanayotgan jamiyatga shaxs diqqatining barqarorlashuvini ta'minlashga xizmat qilishi lozim. Shuningdek, uzluksiz ta'lim tizimida yangi malakalarni egallashga imkoniyat yaratilishi talab etiladi. Bu jarayonda o'quvchida hayotiy vaziyatlar, holatlar, betaraf ob'yektlar, shaxsiy bilim va ko'nikmalar, muayyan faoliyatning egallanganlik darajasini baholash va tashxislash ko'nikmasi shakllangan bo'lishi lozim. Zamonaviy maktab o'quvchisi bilimlarni mustaqil egallashga tayyor bo'lishi kerak. Buning uchun u muqobil nuqtai nazarlarni baholay olishi, o'quv faoliyati sub'yekti sifatida bilimlar darajasi va sifatini tashxislay bilishi talab etiladi. O'quvchilar kichik maktab yoshidayoq potensial imkoniyatlarni o'zlashtirishlari uchun o'z diqqatlari bilan bog'liq ko'nikmalarini egallashlari lozim.

Shu o'rinda biz bugungi kunda psixologiyada asosiy masalaga aylanib borayotgan giperaktivlik tushunchasini kengroq yoritishga, hamda ular bilan olib boriladigan psixologik ishlarga ko'proq to'xtalishga harakat qilamiz.

Giperaktiv bolalarni hozirgi kunda deyarli har bir maktabda uchratishimiz tabiiy holga aylanib bormoqda. Bunday bolalar bilan mashg'ulotlarni tashkil qilishda psixologga maxsus ishlab chiqilgan korreksion-rivojlantiruvchi dasturni qo'llash tavsiya qilinishi mumkin. Giperaktiv bolalarga yordam berishda ularning ota-onalari va o'qituvchilari bilan ish olib borish hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi.

Kattalarga bolaning muammolarini tushuntirish zarur, uning qiliqlari ataylab qilinmasligini anglatish, ularning yordam va qo‘llab-quvvatlashsiz bunday bola o‘zidagi bor qiyinchiliklarni yengib o‘ta olmasligini ko‘rsata olish kerak.

Psixolog giperaktiv bolalarning ota-onalariga tarbiyaviy ta‘sir etishning aniq usullariga amal qilishlarini tushuntirishi kerak. Ular shuni esda tutishlari lozimki, bolani holatining yaxshilanishi «unga bo‘lgan muloyim, xotirjam va izchil munosabatga bog‘liqdir».

Bunday bolalarni tarbiyalashda ota-ona ikkita keskinlikka yo‘l qo‘ymasliklari kerak: haddan ziyod rahm - shafqat ko‘rsatish va bir tomonidan esa uning oldiga u bajara olmaydigan ortiqcha aniqlik, shafqatsizlik va jazolar bilan uyg‘unlashgan katta talablarni qo‘ymaslik.

Psixolog M. Rotterning ko‘rsatishicha, bunday bolalar maktabga chiqqach jiddiy qiyinchiliklarga duch keladilar. Chunki o‘qish faoliyati diqqat funksiyasi rivojlanishiga yuqori talablarni qo‘yadi. Shuning uchun ham giperaktiv bolalar maktab talablarini bajara olmaydilar.

Qoida bo‘yicha o‘smirlik yoshida ham bunday bolalarda diqqatning nuqsonlari saqlanib qoladi, lekin giperaktivlik yo‘qoladi va ko‘pincha faollikning susayishi, psixik faoliyatning inertligi va istakning yetishmasligi bilan almashadi. Bz quyida giperaktiv bolalarni jamoada tezda tanish uchun ularning bir qancha xususiyatlarini e‘tiboringizga havola qilamiz.

Giperaktiv bolani jamoada qanday tanish mumkin?

Giperaktivlik mezoni:

Aktiv diqqatning tanqisligi:

1. *Diqqat, e‘tibori tarqoq, mantiqiylik kuzatilmaydi, Diqqatini uzoq vaqt bir voqea, hodisa yoki hikoyada saqlab turolmaydi.*

2. *Unga murojaat qilgan vaqtda qulog‘iga gap kirmaydi(diqqati tarqoqligi tufayli).*

3. *Topshirilgan vazifani katta ishtiyoq , zavq bilan boshlaganiga qaramasdan, ishini oxirigacha bajarolmaydi.*

4. *Tashkilotchilikda qiyinchilikka uchraydi*

5. *Ko‘pincha narsalarini yo‘qotib yuradi*

6. *Aqliy qobiliyatni talab qiladigan vazifalardan uzoqda yurishga qarakat qiladi*

7. *Xotirasi past, faromushxotir.*

Harakatchanlik mezoni:

1. *O‘tirgan yerida doimiy harakatda bo‘lishga harakat qiladi, qimirlayveradi.*

2. *Notinchlik, xavotir, jonsaraklik, tahlika belgilarini namoyon qiladi (stolda barmoqlarini taqillatmoq, kresloda o‘tirganda harakatlanmoq, sababsiz yugurish, atrofdegilardan uzoqlashish, yashirinish).*

3. *Boshqa bolalarga nisbatan kamroq uxlaydi, hatto go‘daklik davrida bu narsa namoyon bo‘ladi*

4. *Juda ko‘p gapiradi.*

Impulsivlik mezoni:

1. Savolni oxirigacha eshitmasdan javob bera boshlaydi
2. O'z navbatini kutmay suhbatga aralashadi, ko'p hollarda sukunatni buzib gap boshlaydi
3. Diqqat e'tiborini jamlay olmaydi
4. Doimo bajargan ishi uchun mukofot kutadi
5. O'z harakatlarini nazorat qilib, tartibga sololmaydi. Tartibini boshqarish va nazorat qilib qonun qoida doirasiga kiritish qiyin.
6. Yuklatilgan vazifalarni bajarishda o'zini turli xil tutadi va har xil ko'rsatkichlarni namoyon qiladi. (Ba'zi mashg'ulot va darslarda tinch, osoyishta, aktiv, namunali, ba'zilarida esa o'zini mutlaqo teskari tutadi).

Agar 7 yoshgacha bo'lgan bolada yuqorida ko'rsatilgan belgilardan 8 tagacha namoyon bo'lsa, psixolog yoki pedagog uni giperaktiv bolalar guruhiga kiritishi mumkin.

Ko'p hollarda mutaxassislar bolalarda giperaktialik holatlarini kuzatib, bu holat bilan qanday kurashish, yoki bu holatni "qanday korreksiya qilish mumkin?" degan savolga duch kelishidi. Axir giperaktiv bola – bu tashxis emas, balki holat sifatida qabul qilinadi. Ota – onalar esa bu holatga uncha e'tibor qaratmay, boladagi bu o'zgarishlarni uning yoshi xarakteriga, yoki sho'xligiga yoyishadi.

Bu holda mutaxassis kasb doirasida bo'lgan xushmuomalalik va nazokat bilan ota onaga bolaning bu holatini va bu holat keltirib chiqaradigan oqibatlarini tushuntirib uni psixolog yoki nervpotolog ko'rigidan o'tkazishni tavsiya qilishi shart. Chunki bu holatda bolaga mutaxassis yordami va korreksiyasining o'rni beqiyos.

Vaqtida yordam ko'rsatilgan holda bola va ota- onaning kelajak hayotlarida aks etishi mumkin bo'lgan holatlar bartaraf etiladi

Ko'pincha ota- onalarda bolaning o'ta harakatchanligi, tinib- tinchimas, jonsarakligi ham uni giperaktiv deb hisoblashga turtki bo'ladi. Lekin pedagog va ota onalar ko'p hollarda impulsivlik mezonini bolalarda namoyon bo'lishiga o'z e'tiborlarini qaratishmaydi.

Xo'sh, impulsivlik o'zi nima?

Impulsivlik – bu inson fe'l- atvori, xulqining o'ziga xos xususiyati bo'lib, bu holat insondagi ichki turtki tufayli vujudga keladigan g'ayri ixtiyoriy tashqi ta'sirlarga beriluvchanligida namoyon bo'ladi. Impulsiv inson o'z harakatlarini o'ylamasdan bajaradi, o'z imkoniyatlariga to'g'ri baho berolmaydi. U qanday tez va o'ylamasdan qaror qabul qilsa, xuddi shu tezlikda o'z qaroridan pushaymon bo'ladi.

Insondagi impulsivlik mezonini «Impulsivlik belgilari» anketasidan aniqlab bo'ladi. Bu anketa pedagoglar uchun qo'llanma sifatida ishlab chiqilib, psixologik va tibbiyot sohasiga xos bo'lgan terminlardan xoli. U pedagog mutaxassislarga anketa to'ldirish va xulosasini chiqarish, ya'ni interpretasiya qilishda hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi.

«Impulsivlik belgilari» anketasi

Impulsiv bola:

- Savol bergan vaqtda doimo tez va o‘ylamasdan javob beradi (noto‘g‘ri javob bo‘lsa-da).
- Kayfiyati o‘zgarib turadi.
- Ko‘p holatlar va narsalar uning jahlini chiqaradi, o‘zini nazorat qilolmaydi
- Tez va oson bajariladigan ishlar unga juda yoqadi.
- Salga xafa bo‘ladigan, jizzaki, ammo kek, gina saqlamaydi.
- Kayfiyatidan hamma narsadan charchaganligi, bezganligi ko‘rinib turadi.
- O‘ylamasdan tez qaror qabul qiladi
- Yomon ko‘rgan ovqatidan tez va qo‘pol yuz o‘girishi mumkin
- Mashg‘ulotlarda diqqatini yig‘ib ololmaydi
- Atrofdagilarning baland ovozigacha xuddi shu alfozda javob kaytaradi
- Hamma ish qo‘lidan kelishiga, barcha ishni bajara olishiga amin
- Ota- onasi va tarbiyachisiga o‘ylamasdan qo‘pollik qilishi mumkin.
- Serquvvat, serharakat, jaxldor. Ko‘p hollarda tana jarohati yetkaza oladi(tishlashi, tirnashi mumkin)
- U faqat harakat va quvvatga to‘la inson, o‘ylash qobiliyati sust
- O‘ziga e‘tibor talab qiladi, kutishni yoqtirmaydi
- O‘yinlarda umumiy qoidalarga rioya qilishdan bosh tortadi
- Gapirgan vaqtida asabiylashadi, ko‘p hollarda ovoz tembri ko‘tariladi, baqirishi mumkin.
- O‘yin yoki yaxshi ko‘rgan ishi bilan mashg‘ul bo‘lganda kattalarning topshiriq va iltimoslarini unutadi
- Tashkilotchilikni yoqtiradi. Lider bo‘lishga intiladi (o‘ta kibrli)
- Maqtozni yoqtiradi, tanqid, tanbeh jahlini chiqaradi, qabul qilmaydi

Bu anketa bo‘yicha ob‘yektiv ma‘lumotlarni olish uchun anketani tekshirilayotgan bolani yaqindan biladigan 2-3 odamga ko‘rsatib, javoblarning to‘g‘riligiga aniqlik kiritish kerak. Undan keyin barcha to‘g‘ri javoblarga 1 ball dan qo‘yib, xulosa chiqarish lozim.

15 – 20 ball – yuqori impulsivlik darajasi

7 – 14 ball – o‘rtacha impulsivlik darajasi

1 – 6 gacha bo‘lgan ball – past impulsivlik darajasidan dalolat beradi.

Giperaktiv bolaga doimiy psixologik yordam zarur. U ham boshqa bolalar singari muvoffaqiyatlarga erishib, faol o‘quvchilar qatorida bo‘lishni qalbdan istaydi. Ammo hali buning uddasidan chiqolmaydi. Shuning uchun ham psixolog ota – onalar bilan bo‘lgan mulohaza davrida giperaktiv bolalarga beriladigan barcha vazifa, shart va topshiriqlarni obdon o‘ylab topshirishlarini ta’kidlab o‘tishi lozim. Chunki giperaktiv bolalarning asosiy oltin qoidasi: *“faqat o‘zim qiziqadigan, qiziqarli ishni bajaraman, va bu ish bilan uzimga kerakli vaqtgacha*

shugullanaman”. Bu bolalar har bir ishga ana shu qoidaga rioya qilgan holda qo‘l urishadi. Shuning uchun ham bu bolalarning diqqatini doimo yo‘naltirmoq va har xil qiziqarli topshiriqlar bilan qiziqitirmoq katta ahamiyat kasb etadi. Demak bu bolalar charchaganini sezish bilanoq ularning diqqatini boshqa bir narsaga yo‘naltirish kerak.

Giperaktiv bolalarning o‘ynash va ish shart- sharoitlariga ham katta ahamiyat berish kerak. Televizor, yoki har zamon ochiladigan eshik, kompyuter ovozi, baland musiqa uning diqqatini doimo bo‘lib turadi. Bu joy tinch, sokin, diqqatini bo‘lmaydigan bo‘lishi shart. Vazifa, topshiriqlarni bajarish vaqtida uning oldida bo‘lish va kezi kelganda unga yordam qo‘lini cho‘zish foydadan xoli bo‘lmaydi.

Agar giperaktiv o‘gil yoki qizalog‘ingiz biror nojo‘ya ish qilib qo‘ysa, yoki sizga yoqmagani holatlar vujudga kelib qolsa unga uzun kirish so‘zidan iborat bo‘lgan pand nasihat o‘qimang. Esda tuting! U bu pand nasihat va o‘giltarni oxirigacha eshitolmaydi va qabul qilmaydi. Undan ko‘ra bu bolalarga oldindan axloqiy qonun qoidalarini o‘yin misolida tushuntirib, ularga “mukofot” va “jazo” me‘zonlarini belgilang.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, bolaga yuklatilgan talablar aniq, ravshan va uning bajarishi mumkin bo‘lgan talablar bo‘lishi lozim.

Giperaktiv bolalarni kechirim so‘rashga, iltimos qilishga va va‘da berishga majburlash mumkin emas. Ular bilan kelishuvga kelish va bu kelishuv qoidalarini birga ishlab chiqish shart.

Har bir kelishuv, talablarni bajarish va nazorat qilish ota- ona va pedagoglarning 2-3 haftadan ko‘proq vaqtini olishi mumkin. Lekin bir talab, topshiriq yoki vazifani bajarmasdan ikkichisiga hech qachon o‘tmang. Boshlangan ishni oxiriga yetkazishni giperaktiv bola faqat sizdan o‘rganadi, chunki u juda ta’sirchan va sezgir. Agarda sizning xulq atvoringizda o‘zida bo‘lgan kamchiliklarni sezib qolsa, u hech qachon siz uni ko‘rmoqchi bo‘lgan bola roliga kirmaydi. Chunki yashash, kurashish va kirishuvchanlikni u faqat sizdan o‘rganadi.

Shunday ekan, giperaktiv bolalar bilan ishlashda pedagogik jarayon bilan yonma- yon tarzda psixologik yondashuvni uyg‘un tarzda olib borish maqsadga muvofiqdir. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining umumiy rivojlanish darajasi sensor etalonlarga asoslangan bo‘ladi. Turli rang-tasvirlar, narsa- buyumlarning shakli, hajmi, ta’mi, ramzlarni tanishtirish orqali ularda kuzatuvchanlik, sinchkovlik, sezgirlik va hushyorlik tarkib toptiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Авезов, О. Р. (2023, March). ЭКСТРЕМАЛ ВАЗИЯТЛАРДА СТРЕССБАРДОШЛИК ТУШУНЧАСИ. In *E Conference Zone* (pp. 63-67).
2. Ravshanovich, A. O. (2024). PSIXOLOGIK XIZMATNING ASOSIY YO‘NALISHLARI. *O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(28), 18-22.

3. Ravshanovich, A. O., & Tavakkal o'g'li, S. S. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA'LIM-TARBIYA BERISHDA IJODIY O'YINLARNING AMALIY AHAMIYATI. *Scientific Impulse*, 2(14), 344-347.
4. Gafurova, F. O., & Avezov, O. R. (2024). PSIXOLOGIYADA SHAXS IDENTIVLIGI MUAMMOSINI TADQIQ QILISH. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 19(2), 33-37.
5. Ravshanovich, A. O. (2024). PSIXOLOGIK XIZMAT KORSATISH PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI. *MASTERS*, 2(1), 52-55.
6. Avezov, O. R., & Ubaydullayeva, N. F. (2022). Logotherapy: how psychotherapy helps a person to find meaning in life. *Science and Education*, 3(4), 747-752.
7. Avezov, O. R., & Ubaydullayeva, N. F. (2022). Frankl logoterapiyasi va uning inson hayotidagi tutgan o'rni. *Science and Education*, 3(4), 753-759.
8. Avezov, O. R., & To, A. S. O. G. L. (2022). Ekstremal vaziyatlarda shaxsga psixologik ta'sir etishning o'ziga xos xususiyatlari. *Science and Education*, 3(4), 717-724.
9. Avezov, O. R. (2024). SPECIFIC CHARACTERISTICS OF PSYCHOLOGICAL EFFECTS ON PERSONS IN EXTREME AND EMERGENCY SITUATIONS. *JOURNAL OF CHILD PSYCHOLOGY AND PSYCHIATRY*, 7(1), 85-90.
10. Avezov, O. R. (2024). SPORT PSIXOLOGIYASI VA UNING BUGUNGI ISTIQBOLLARI. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 3(30), 308-312.
11. Avezov, O. R. (2024). SPECIFIC CHARACTERISTICS OF PSYCHOLOGICAL EFFECTS ON PERSONS IN EXTREME AND EMERGENCY SITUATIONS. *JOURNAL OF CHILD PSYCHOLOGY AND PSYCHIATRY*, 7(1), 85-90.
12. Olimovna, H. N., & Avezov, R. (2024). "TARBIYASI QIYIN" O'SMIRLAR BILAN ISHLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, 2(17), 1183-1188.
13. Xasanova, S. J., & Avezov, O. R. (2024). O'SMIR SHAXSINI SHAKLLANISHIDA O'Z-O'ZINI ANGLASHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI. *Scientific Impulse*, 2(17), 1179-1182.
14. Qobulova, D. M., & Avezov, O. R. (2024). KICHIK MAKTAB YOSHI O'QUVCHILARDA ART TERAPIYA ORQALI TASAVVUR VA IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH. *Scientific Impulse*, 2(17), 1189-1194.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILAR FAOLIYATIDA PEDAGOGIK QOBILIYATLAR VA UNDA FOYDALANISH MAHORATI SHAKLLANTIRISH

Olimov Temir Hasanovich

Osiyo xalqaro universiteti professori, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Annotatsiya: ushbu maqolada qobiliyatlar faoliyatining muhim komponentlari bo‘lishi bilim, malaka, ko‘nikmalar bilan aynan bir narsa bo‘lmasada, ular bir-birlari bilan bog‘liqli, qobiliyatlar bilim, malaka, ko‘nikmalarning o‘zida ko‘rinmasligi, balki ularni egallash dinamikasida namoyon bo‘lashi, ya’ni boshqacha aytganda mazkur faoliyat uchun muhim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish jarayoni turli sharoitlarda qanchalik tez va chuqur, yengil va mustahkam amalga oshirishgizda namoyon bo‘lishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: didaktik qobiliyat, akademik qobiliyat, bilim, malaka, ko‘nikma, tez va chuqur, yengil va mustahkam.

Qobiliyat – shaxsning individual psixik xususiyati bo‘lib, muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va ishni muvaffaqiyatli amalga oshirishning subektiv shart-sharoitini ifodalovchi individual psixologik sifatlar yig‘indisidir. Qobiliyat insonning hayotiy faoliyati davomida shakllanadi. Taniqli olim Govard Gardner qobiliyatlarni intellektlar to‘plami deb ta’riflagan va u bilim, ko‘nikma, malakalarni egallash farqlarini aniqlashini ta’kilagan. Bizga ma’lumki, bilim bu ilmiy mutoalalar natijasidir Qobiliyat esa insonning psixologik va fiziologik tuzilishiga xos bo‘lgan xususiyat hisoblanadi. Qobiliyat bilim olish uchun shart-sharoit yaratadi. Tug‘ma qobiliyat zehn deb atalsada, iqtidor, iste’dod, donolik-insonning ijodiy faoliyati jarayonida erishiladigan qobiliyatlarning rivojlanish bosqichlari hisoblanadi. Qobiliyatlar shaxsning faqatgina ma’lum faoliyatidagina mavjud bo‘lgan sifatlari hisoblanib, ular har bir insonning qobiliyati turli sohalar bo‘yicha turkumlashadi.

Ijodkorlik bu sifat jihatidan yangi, original, takrorlanmas biror yangilikni paydo qiluvchi faoliyatdir. Ijodkorlik mahsuldor, evristik, kreativ turlarga bo‘linadi. Mahsuldor ijodkorlikda har qanday muammo muvaffaqiyatli hal qilinadi. evristik ijodkorlik jamiyatda ro‘y berayotgan kasbiy faoliyatga oid yangiliklarni o‘zlashtirishni anglatadi. Kreyativ ijodkorlik yangi nazariyalarni yaratadi. Qobiliyat umumiy (aqliy faollik, tanqidiylik, tahlil qilish, diqqatni jamlash, e’tiborlilik), maxsus (tashkilotchilik, loyihalashtirish, matematik, ijodiy, badiiy, musiqiy) turlarga bo‘linadi. Qobiliyatning yuqori darajasi talant deb yuritiladi. Talant - biror faoliyatni muvaffaqiyatli mustaqil va mukammal bajarishni ta’min- laydigan noyob qobiliyatlar birikmasidir.

Odamning qobiliyatlari bilim va ko‘nikmalarni egallash uchun faqat imkoniyat hisoblanadi. Bu bilim va ko‘nikmalar egallanadimi yoki yo‘qmi,

bularning hammasi, juda ko'p sharoitlarga bog'liqdir. Bolada namoyon bo'lgan musiqa qobiliyati uning musiqachi bo'lishiga kafil bo'la olmaydi. Bolaning musiqachi bo'lishi unga maxsus ta'lim berilishi, qat'iylik, salomatligining yaxshi bo'lishi, musiqa asbobi, notalar va boshqa sharoitlar bo'lishi kerak. Bularsiz qobiliyat taraqqiy etmay, so'lib ketishi ham mumkin. O'quvchida hali zaruriy ko'nikma va malakalar sistemasi hamda mustahkam bilimlar va tarkib topgan ish uslublari yo'qligiga asoslanib, jiddiy tekshirmay shoshilinch ravishda unda qobiliyatlar yo'q deb xulosa chiqarish pedagogning jiddiy xatosi bo'ladi. Bolalik paytida ma'lum qobiliyatlarning atrofdagilar tomonidan tan olinmaganligi, keyinchalik shu qobiliyat tufayli shon-shuhrat topgan odamlar ko'p.

Qobiliyatlar faoliyatining muhim komponentlari bo'lishi bilim, malaka, ko'nikmalar bilan aynan bir narsa bo'lmasa-da, ular bir-birlari bilan bog'liqdir. Qobiliyatlar bilim, malaka, ko'nikmalarning o'zida ko'rinmaydi, balki ularni egallash dinamikasida namoyon bo'ladi, ya'ni boshqacha aytganda mazkur faoliyat uchun muhim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayoni turli sharoitlarda qanchalik tez va chuqur, yengil va mustahkam amalga oshirishingizda namoyon bo'ladi. Xuddi shu yerda yuzaga chiqadigan fikrlar bizga qobiliyatlar haqida gapirish huquqini beradi.

Har qanday qobiliyat - shaxsga tegishli bo'lgan murakkab tushunchadir, u faoliyatning talablariga mos xususiyatlar tizimini o'z ichiga qamrab oladi. Har qanday faoliyat ham murakkab bo'lib, u kishiga turli-tuman talablar quyadi. Agar shaxs xususiyatlari tizimi shu talablarga javob bera olsa, kishi faoliyatni muvaffaqiyat bilan amalga oshirishda o'z qobiliyatini ko'rsata oladi, agar xususiyatlaridan qaysi biri rivojlanmagan bo'lsa, shaxs mehnatining muayyan turiga nisbatan kam qobiliyatli, deb xarakterlanadi.

Mana shuning uchun ham qobiliyat deganda birorta xususiyatning o'zini emas, balki inson shaxsining faoliyat talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlay oladigan xususiyatlar majmuasi yoki umumlashmasini tushunish lozim.

Agar boshqa bir odat bo'lgan shunday holatlarda faoliyat talablariga javob bera olmasa, unday paytda bu unga tegishli psixologik sifatlar boshqacha aytganda qobiliyatlar yo'q deb faraz qilishga asos bo'ladi. Bunday odam kerakli ko'nikma va bilimlarni umumiy egallab olmaydi degan xulosaga borilmaydi. Bularni egallash jarayoni cho'zilib ketadi, pedagogdan ko'p kuch va vaqt sarflashni talab qiladi.

Qobiliyatlar taraqqiyotining yuksak bosqichiga iste'dod deb ataladigan mezon yotadi. Iste'dod deb odamga qandaydir murakkab mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli mustaqil va original tarzda bajarish imkonini beradigan qobiliyatlar uyushmasiga aytiladi. Iste'dod mahoratning dastlabki sharti bo'lib, lekin mahoratning o'zidan ancha uzoqdir. Mohir usta bo'lmoq uchun juda ko'p ishlash kerak. Iste'dod mehnatdan ozod qilmaydi, balki katta, ijodiy va zo'r mehnatni taqozo qiladi. Iste'dodli kishilar shubhasiz mehnat orqali olamga mashhur bo'lgan

mahorat darajasiga erishganlar. Haqiqiy mahorat inson iste'dodining faoliyatida nomayon bo'lishidir.

Qobiliyatlar murakkab tuzilishga ega bo'lgan psixik sifatlar yig'indisidan iboratdir. Qobiliyat sifatida namoyon bo'ladigan psixik sifatlar yig'indisining struktura natijasida konkret faoliyat talabi bilan belgilanadi va har xil turdagi faoliyatlar uchun turlicha bo'ladi, endi shulardan pedagogik qobiliyat va uning tuzilishini ko'rib chiqamiz.

Pedagogikada o'qituvchi qobiliyati - bu imkoniyatdir, uning mohirligi zaruriy darajasi faqatgina o'qitish va tarbiyalash jarayonida takomillashib boradi va yutuqlarga erishishida zamin yaratadi. Tug'ma qobiliyatlar zex,n deyiladi. Iqtidor, iste'dod, daholik - insonning ijodiy faoliyati jarayonida erishiladigan qobiliyatlarning rivojlanish bosqichlari hisoblanadi. Qobiliyatlar xarakter kabi, shaxsning faqatgina ma'lum faoliyatidagina mavjud bo'lgan sifatlaridir.

Psixologiyada qobiliyat - insonning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni qiyinchiliksiz, osonlik bilan mukammal egallashi va biror faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullanishiga aytiladi. U o'quvchining kasbiy faoliyatida ham yorqin namoyon bo'ladi.

Kasbiy faoliyatning ta'lim mazmunini belgilovchi sifatlari o'qituvchining ijodkorligida namoyon bo'ladi. Ijodkorlik - bu sifat jihatidan yangi, original va takrorlanmas biror yangilikni paydo qiluvchi faoliyatdir.

Mahsuldor ijodkorlikda belgilangan har qanday muammo muvaffaqiyatli hal qilinadi, ijod qilishga layoqatli bo'lgan o'qituvchilarning asosiy qismida bu jihatlar namoyon bo'ladi.

O'qituvchining o'tkir qobiliyat egasi bo'lishi haqida xalqimiz tomonidan ajoyib rivoyatlar yaratilganki bular hali-hanuz ta'lim - tarbiya ishida katta ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda.

«Bir vaqtlar Mavlono Tanburiy degan ustod mashshoq o'tgan ekan. U kishi tambur, dutor, nay, changni shunday mahorat bilan chalar ekanki, eshitgan kishi erib, sel bo'lib ketarkan. Ustod ko'plab shogirdlar ham tayyorlagan ekan. Ammo shogird tanlashda qiziq bir odatlari bo'lib kim shogird bo'laman desa, qo'liga cho'p yo xassalarini tutqazar ekan- lar. Bir boy «qobiliyati zo'r, muzikachi bo'ladi», deb ustoz Tanburiyga farzandini ko'rsatibdi. Tanburiy bergan hassani bola bir qarich-ikki qarich deb o'lchayotganini ko'rgan ustoz: «Yo'q bolangizdan mashshoq emas, bozinger - savdogar chiqadi» debdi. Yana bir kishining bolasi berilgan yog'ochni kesa boshlaganini ko'rgan ustoz undan musiqachi emas, duradgor usta chiqajagini aytibdi.

Shunday qilib, ustoz, shogird bo'laman deb kelgan bola sinash uchun berilgan cho'pni yerga tiqsa bog'bon, «qilich» qilsa sarboz bo'ladi, deb jo'natib yuboraveribdi. Keyin bolalarni yig'ib. qo'llariga cho'p berib poylab o'tiribdi. Ulardan biri yana qilich qilib o'ynabdi, ikkinchisi ot qilib minibdi. Faqat bir usti yupun bola cho'pni nayga o'xshatib chalaboshlabdi. Buni ko'rib Tanburiy bag'oyat xursand bo'libdi-da, bolani o'ziga shogird, ham o'g'il qilib olib, unga bor hunarini

qunt, sabr, matonat bilan o'rgata boshlabdi. Kechani-kecha, yozni- yoz, qishni-qish demay ta'lim beribdi. Bola ham zehnli ekan, ustozning aytganlarini darrov anglab olib, qayta- qaytatakrorlab keyinchalik mashhur naychi bo'lib etishibdi.

Qarang-a ustodning topqirligi, bilimi, donoligi, ustozlik mehri tufayli oddiy bir dehqon bolasi xalq orasida mashhur naychi bo'lib yetishibdi».

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga asoslanib, o'qituvchining pedagogik qobiliyatlarini quyidagicha klassifikatsiya qilish mumkin.

1. Didaktik qobiliyat – murakkab bilimlarni o'quvchilarga tushuntira olishdir. Bunda o'qituvchining o'quv materialini, mavzu yoki muammoni talabalarga aniq va tushunarli qilib aytib berishi, ularda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg'ota olishi lozim. O'qituvchi zarurat tug'ilgan hollarda o'quv materialini o'zgartirib soddalashtira olishi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, tushunarsiz, noaniq narsani tushunarli qila olishi lozim.

2. Akademik qobiliyat – barcha fanlar yuzasidan muayyan bilimlarga ega bo'lishlik qobiliyati. Bunday qobiliyatlarga ega bo'lgan o'qituvchi o'z fanini o'quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o'z fani sohasidagi yangiliklarni kuzatib boradi.

3. Perseptiv qobiliyat – o'quvchilar holatini idrok qila olishi, bu o'quvchining, tarbiyalanuvchining ichki ma'naviy dunyosiga kira olish qobiliyati, o'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish, pedagogik intuitsiya va empatiya bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvchanlikdir. Bunday o'qituvchi kichkinagina alomatlar, uncha katta bo'lmagan tashqi belgilar asosida o'quvchi ruhiyatidagi ko'z ilg'amas o'zgarishlarni ham fahmlab oladi.

4. Nutq qobiliyati – ixcham, ma'noli, ohangdor, muayyan ritm, temp, chastotaga ega bo'lgan nutq; shuningdek, o'qituvchi nutqining ja- rangdorligi, uning pauza, mantiqiy urg'uga rioya qilishidir. Qobiliyatli o'qituvchining nutqi darsda hamisha o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchi yangi materialni tushuntirayotgan, o'quvchining javobini tahlil qilayotgan, ma'qullayotgan yoki qoralayotgan bo'lsa ham uning nutqi hamisha o'zining ichki kuchi, ishonchi, o'zi gapirayotgan narsaga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Fikrlar o'quvchi uchun aniq, sodda, tushunarli bo'ladi.

5. Tashkilotchilik qobiliyati–guruh yoki jamoani uyushtirish va uni boshqarish iste'dodi. Tashkilotchilik o'quvchilarni xilma-xil faoliyat turiga jalb qilish uchun asos hisoblanadi. Bu qobiliyat, birinchidan, o'quvchilar jamoasini uyushtirish, jipslashtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirish bo'lsa, ikkinchidan, o'z shaxsiy ishini to'g'ri uyushtirish qobiliyatidir.

6. Obro'ga ega bo'lishlik qobiliyati– o'zining shaxsiy xususiyati, bilimdonligi, aqlfarosatliligi, mustahkam irodasi bilan obro' orttirish qobiliyatidir. Fanda bu qobiliyat turi–avtoritar qobiliyat, deb ham yuritiladi.

7. Kommunikativ qobiliyatlar – muomala va muloqot o'rnata olish, bolalarga aralashish qobiliyati, o'quvchilar bilan pedagogik nuqtai nazardan samarali o'zaro

munosabatlar o'rnata bilish, pedagogik nazokatning mavjudligidir

8. Diagnostik (psixologik va pedagogik tashxislay olish) qobiliyati –bu pedagogning muhim qobiliyatlaridan bo'lib, o'qitish jarayoni samaradorligi ko'p jihatdan unga bog'liq holdat namoyon bo'ladi. Psixologik tashxis – ta'lim oluvchilarning shaxsiy-individual xususiyatlari, ruhiy jarayonlari va holatlarini to'g'ri aniqlay olish, pedagogik tashxis –ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish imkoniyatlari va darajasini aniql, xolis baholay olish qobiliyatidir.

Qobiliyat, faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi uchun o'qituvchida qobiliyat bo'lishi lozimligini, uning quyidagi turlari mavjud bo'lmog'i va tarbiyalash lozimligi o'zbek pedagogi M.Ochilovning asarlarida ifodalangan. Jumladan:

1. Bilish qobiliyati - fanning tegishli sohalariga oid (matematika, fizika, biologiya, adabiyot va hokazolarga doir) qobiliyatdir. Bunday qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchi fanni o'quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o'z fani sohasidagi kashfiyotlarni hamisha kuzatib boradi, materialni ipidan ignasigacha biladi, unga nihoyatda qiziqadi, oddiy tadqiqot ishlarini ham bajaradi.

2. Tushuntira olish qobiliyati- o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olish, o'quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg'otish qobiliyatidir. O'qituvchi zarur hollarda o'quv materialini o'zgartira olishi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, noaniq narsani tushunarli qilib o'quvchilarga yetkaza olishi darkor.

3. Kuzatuvchanlik qobiliyati - o'quvchining. tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, o'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvchanlikdir. Bunday o'qituvchi o'quvchining ruhiyatidagi ko'z ilg'amas o'zgarishlarni ham tez fahmlab oladi. O'quvchilar bunday o'qituvchi haqida: "Qaramayotganga o'xshaydi - yu, hamma narsani ko'rib turadi!", "O'quvchining xafa bo'lganligini yoki dars tayyorlamayotganligini ko'zidan biladi!", - deydilar.

4. Nutq qobiliyati – nutq yordamida, shuningdek, imo - ishora vositasida o'z fikr - tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati. Bu o'qituvchilik kasbi uchun juda muhimdir. O'qituvchining nutqi darsda hamisha o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchi yangi saboqni tushuntirayotgan, o'quvchining javobini tahlil qilayotgan yoki tanqid qilayotgan bo'lsa ham, uning nutqi hamisha o'zining ichki kuchi, ishonchi, o'zi gapirayotgan narsaga qiziqqanligi bilan ajralib turadi. Fikrning ifodasi o'quvchilar uchun aniq, sodda, tushunarli bo'ladi.

O'qituvchining bayoni o'quvchilar fikri va diqqatini maksimal darajada faolashtirishga qaratiladi: o'qituvchi o'quvchilar oldida savollar qo'yib, ularni asta – sekin to'g'ri javob berishga undaydi, o'quvchining diqqatini kuchaytiradi hamda fikrini faollashtiradi ("Mana bu yerga alohida e'tibor bering!", "o'ylab ko'ring!" kabi). Shuningdek, o'rinli qochiriq, hazil, yengilgina istehzo nutqni jonlantirib yuboradi va uni o'quvchilar tez o'zlashtiradi.

O'qituvchining nutqi aniq, jonli, obrazli, talaffuzi jihatdan yorqin, ifodali, his - hayajonli bo'lib, unda stilistik grammatik, fonetik nuqsonlar uchrasmaligi lozim. Bir xildagi cho'ziq, zeriktiradigan nutq o'quvchilarni juda tez charchatadi, ularni loqayd qilib qo'yadi. Ayrim o'quvchilar tez gapirishga, boshqalarini sekin gapirishga moyil bo'ladilar.

5. Tashkilotchilik qobiliyati - birinchidan, o'quvchilar jamoasini uyushtirish, jipslashtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirishni, ikkinchidan, o'z ishini to'g'ri uyushtirishni nazarda tutadi.

6. Obro' orttira olish qobiliyati - o'quvchilarga bevosita emotsional - irodaviy ta'sir ko'rsatish va shu asosda obro' qozona olishdir. Obro' faqat shu asosdagina emas, balki o'qituvchining fanni yaxshi bilishi, mehribonligi, nazokatligi va hokozalar asosida ham qozoniladi. Bu qobiliyat o'qituvchi shaxsiy sifatlarining butun bir yig'indisiga, chunonchi, uning irodaviy sifatlariga, shuningdek, o'quvchilarga ta'lim hamda tarbiya berish mas'uliyatini his etishga, o'zining haq ekanligiga ishonishga, bu ishonchni o'quvchilarga yetkaza olish kabilarga ham bog'liq

7. To'g'ri muomala qila olish qobiliyati - bolalarga yaqinlasha olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan juda samarali o'zaro munosabatlar o'rnatish, pedagogik nazokatning mavjudligini bildiradi.

8. Kelajakni ko'ra bilish qobiliyati - o'z harakatlarining oqibatini ko'ra bilishda, o'quvchining kelgusida qanday odam bo'lishini tasavvur qila olishida, tarbiyalanuvchida qanday fazilatlarini taraqqiy ettirish lozimligini oldindan aytib bera olishda ifodalanadi. Bu pedagogik optimizmga, tarbiyaning qudratiga bog'liqdir.

9. Diqqatni taqsimlab olish qobiliyati- o'qituvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari - hajmi, kuchi, ko'chuvchanligi, idora qilina olishi, safarbarligi kabilarning taraqqiy etishi bilan izohlanadi.

Demak, qobiliyatlar, umuman, jumladan pedagogik qobiliyatlar shaxsning faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan bilim, ko'nikma hamda malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual- psixologik xususiyatdir. Agar shaxsning ma'lum sifatleri yig'indisi odamning pedagogik jihatdan asoslab berilgan vaqt oralig'ida egallagan faoliyati talablariga javob bersa, bu narsa bizga mazkur faoliyatga nisbatan qobiliyati bor deb xulosa chiqarishga asos bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Olimov, T. H. (2019). Spiritual And Moral Aspects Of The Formation Of Civil Culture In Future Specialists Of Higher Education. *Theoretical & Applied Science*, (12), 662-665.

2. Olimov, T. H. (2020). The image of a modern teacher in the formation of civic culture among future highly educated specialists. *Pedagogical skill-*

Bukhara, 5.

3. Olimov, T. H. (2019). Development issues of civil society and culture in the work of Eastern thinkers. *Pedagogical skill-Bukhara, 2.*

4. Olimov, T. H. (2016). Formation of self-awareness in youth. *Social and humanitarian sciences in the educational system.-Tashkent, 4.*

5. Olimov, T. (2020). Bo'lajak oliy ma'lumotli mutaxasislarda fuqarolik madaniyatini shakllantirishning ayrim yo'nalishlari. *Fan, ta'lim va amaliyotning integrasiyasi, 1(1), 20-27.*

6. Olimov, T. The Role Of National Spirituality And Values In The Development Of Civil Culture In Future Specialists With Higher Education.

OILA MAHALLA VA TA'LIM MUASSASASI HAMKORLIGI

O.T. Shirinov

Sirdaryo viloyat pedagogik mahorat markazi Pedagogika va psixologiya ta'lim texnologiyalari kafedrasi mudiri. Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Ph.D.)

Annotatsiya: Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lini tanlagan mamlakatimizda oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligi va unda shaxs tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatuvchi milliy qadriyatlar yil sayin qadr topib, nufuzi oshib bormoqda. Buning asosiy sababi davlatimiz tomonidan ijtimoiy institutlarga har tomonlama e'tibor qaratilayotganligidadir.

Abstract: In our country, which has chosen the path of building a legal state and a civil society, the cooperation of the family, the neighborhood and the educational institution, and the national values that have a great influence on the education of the individual in it, are gaining value and increasing in prestige every year. The main reason for this is that our state is paying all kinds of attention to social institutions.

Kalit so'zlar: Huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, oila, mahalla, milliy qadriyatlar.

Key words: Legal state, civil society, family, neighborhood, national values.

Ключевые слова: Верховенство закона, гражданское общество, семья, соседство, национальные ценности.

Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lini tanlagan mamlakatimizda oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligi va unda shaxs tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatuvchi milliy qadriyatlar yil sayin qadr topib, nufuzi oshib bormoqda. Buning asosiy sababi davlatimiz tomonidan ijtimoiy institutlarga har tomonlama e'tibor qaratilayotganligidadir. Shu ma'noda olib qaralganda, ijtimoiy institutlar va uning muammolari bo'yicha ilmiy asoslangan tadqiqotlarning yuzaga kelishi dolzarb ahamiyatga molik bo'lib qolaveradi. Yosh avlodni tarbiyalashdek buyuk ishga Prezidentimizning ta'lim sohasiga alohida e'tiborlarini qaratganliklari har bir fan o'qituvchisidan o'z faoliyatiga jiddiy yondashishini talab etmoqda. Davlatimiz rahbarining qator qarorlari asosida yoshlar bilan ishlash negizida mahalla maktab va oilaning o'rni haqida fikr yuritilgan. Oila kabi mahalla ham jamiyatini shakllantirishning ajralmas qismidir. Vatanimiz tarixi guvohlik beradiki, O'zbek jamiyatida jamoa bo'lib yashashning sinalgan shakli mahalladir. „Mahalla" so'zi arabcha „Mahallun" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, aholi yashaydigan joy, guzar, uy-joy mavzelari degan ma'noni anglatadi. Mahalla shaharlar ichidagi kichik hududiy birlik bo'lib, o'tmishdan meros bo'lib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilanganidek — Oila jamiyatimizning asosiy bo'g'inidir. Haqiqatan ham oila bu jamiyatni tashkil etuvchi katta kuchdir. Jamiyat

mavjudligi mana shu oilaga tayanishi hech kimga sir emas. Oila jamiyatning ajralmas zarur qismidir. Oila va jamoatchilik bilan ishlash bo‘limida esa oila va o‘quv yurtining yoshlarga qo‘yadigan axloqiy talablarini ishlab chiqishga qaratilgan tadbirlar ko‘rsatiladi, ota-onalar va jamoatchilikning guruh hayotini va faoliyatini tashkil etishda qanday yordamlar berishlari belgilab chiqiladi, ota-onalar majlislari va ota-onalar uchun tashkil etiladigan suhbat, ma’ruza anjumanlarning mavzulari, kimning oilasiga borishi va boshqa bir qator ishlar aniqlashtiriladi. Ayniqsa, bu o‘rinda jamoatchilik bilan hamkorlik, chunonchi, ishlab chiqarish korxonalarida, turar joylarning oila va o‘quv yurtiga yordam beruvchi komissiyalari bilan aloqalar, ularni guruh hayotiga jalb qilish yo‘llari va shaklini belgilashda alohida e’tibor berish lozim. Guruh rahbari o‘z talabalari bilan o‘tkaziladigan har bir tadbiri uchun alohida reja tuzish ham tavsiya etiladi. Qat’iy dastur va darsliklari bo‘lgan har bir minutlik dars o‘zining barcha bo‘limlari va minutlarigacha hisobga olinib dasturlashtiriladi-yu, lekin negadir tarbiyaviy ishlar tajribasida ma’lum mavzudagi tarbiyaviy soat, bahslar, majlis, siyosiy axborot kabilar ko‘pincha hech qanday dastursiz, rejasiz o‘tkaziladi va bunday hollarni har qadamda uchratishimiz mumkin. Aslida esa tarbiyaviy tadbirning rejasini ishlab chiqish dars rejasidan ham ko‘ra murakkabroqdir. Bu xildagi reja uchun qo‘yiladigan talablar oldindan batafsil aniqlanib, uning reja uchun qo‘yiladigan talablar oldindan batafsil aniqlanib, uning mazmuni o‘ylab chiqilsagina samaradorlik tarbiyaviy tomoni yuqori bo‘ladi. Jamiyatning jadal rivojlanishi, faoliyat turlarining tobora murakkablashib borishi shaxs ongiga ko‘rsatayotgan ko‘rinmas ta’sirlarning kuchayishiga olib kelmoqda Mahalla — uzoq o‘tmish, mahalla — bugun, mahalla — kelajak. Bu halqa hayot davomiyligi asosini ta’minlab keladi. Ayniqsa, ming-ming yillardan buyon kokilini ikki daryo yuvib kelgan bizning zaminda shunday.

Bobolarimiz mahallaga esh bo‘lib, el dardini anglab o‘tdi, bugun biz shu muhitda yashab, farzandlarimizni elga qo‘shish niyatidamiz. Qit’alararo masofa ahamiyat kasb etmay qolgan, yangidan yangi madaniyatlar urchib borayotgan globallashuv davrida ertaga nevaralarimiz bu qutlug‘ an’anani davom ettirarmikan?

O‘zbekistondagi olimlar “mahalla insonni jamiyat bilan uyg‘un yashashga o‘rgatadigan, o‘zaro mehr-oqibat, bag‘rikenglik, do‘stlik, hamkorlik rishtalarini qaror toptirishga, inson kamoloti va jamiyat rivojini ta’minlashga xizmat qiladigan muhim vosita sifatida o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q”, degan xulosada. O‘qituvchi ota-onalarning faol yordamisiz bolalarning barkamolligini ta’minlay olmaydi. Bu o‘rinda tarbiyachining o‘zini tarbiyalash lozimligini ham esdan chiqarmaslik kerak. O‘ziga nisbatan talabchan muallim ota-onalar bilan hamkorlikda o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va harakat qilish, yangilikni sezish, tashabbuskorlik hamda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish maqsadida ularga qat’iy talablar qo‘yish uchun ma’naviy huquqqa ega bo‘ladi. Pedagog-olimlar

tadqiqotlarida isbotlanganidek, oilaviy tarbiyaga doir ishlar quyidagi sharoitlarda bajarilsa, uning samaradorligi yanada oshadi:

1. Maktab o‘zining barcha ta’sirlari majmuini oilaviy tarbiya jarayoniga izchil yo‘naltira olsa.

2. O‘qituvchilar jamoasi oila bilan o‘zaro hamkorligi davrida o‘zlarining etik-pedagogik tarbiyaviy talablarini to‘g‘ri tashkil eta olsalar. 3. Xalq ta’limi bo‘limi va muassasalar tashkilotchi ota-onalarni tarbiyaviy jarayonga tortsa olsalar. 4. O‘qituvchilar tomonidan oilaviy tarbiyaga rahbarlik bolalar maktabga kelmasdan oldin boshlansa va bu ish ularning barcha o‘quv yillarida davom ettirilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bayon etilgan fikr va mulohazalar ota-onalarga tarbiyaga oid bilim berishda maktab asosiy rol vazifasini o‘tashini eslatib o‘tamiz. Buning uchun quyidagi umumiy xulosalarni chiqarish mumkin:

–mamlakatimizda oilaviy tarbiya samaradorligini oshirish, aholining umumiy madaniy saviyasini oshirish ma’lum darajada ota-onalar va katta yoshdagi kishilarning savodxonligiga bog‘liq.

A. Avloniyning: " Tarbiya biz uchun yo hayot , yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir" iborasi oila ,maktab ,mahalla tamoyiliga aylanishiga erishildi. Hozirgi kunda bolalarning tarbiyasiga mahalla, jamoatchilik juda katta yordam ko‘rsatmoqda. Jamoatchilikda yosh bolalarni tatbiq etish, sinfdan tashqari ishlar, tashkilotchilik bilan shug‘ullantirish maqsadga muvofiq. Mahallaning yana foydali tomoni bu o‘quvchilarni dasrdan tashqari vaqtlarida tarbiyasi qiyin bo‘lgan o‘smirlarni tarbiyalash va bolalar bilan yashash joylarida sport va madaniy ishlar olib borishdir

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. R. Mavlonova, K. Xoliqberdiyev, "Pedagogika". T: "O‘qituvchi nashriyoti". 2002- yil
2. Ona tili o‘qitish metodikasi / K. Qosimova, S. Matchonov, X. G‘ulomova, Sh. Yo‘ldosheva, Sh. Sariyev. –T: “NOSHIR”, – 2009
3. Abdullayeva, O. O. (2021). Abay ijodini o‘rganishda savol va topshiriqlar ustida ishlash. Academic research in educational sciences
4. Abdullayeva, O. O. (2021). Ibroyim Yusupov ijodi asosida o‘quvchilarnmg vatanparvarlik tuyg‘ularini o‘stirish. Academic research in educational sciences
5. Munavvarov A.K Pedagogika, Toshkent, "O‘qituvchi"
6. Tursunov I.Nishonaliev U.Pedagogika kursi:Darslik, Toshkent "O‘qituvchi"
7. G‘aybullayev N.va boshqalar Pedagogika, Toshkent, 2000
8. Baranov S.P.va boshqalar Pedagogika, Toshkent, "O‘qituvchi" 1990.

BILIMLARNI NAZORAT QILISHNING ASOSIY VAZIFALARI VA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

S.S.Nasriddinov, A.Mavlyanov

Astraxan davlat texnika universiteti Toshkent viloyati filiali, t.f.d., professor;

f.-m.f.n., dosent

Mazkur maqolada bilimlarni nazorat qilishning asosiy vazifasi, o'qituvchilar tomonidan talabalar bilimi, malaka va ko'nikmalarini nazorat qilishning asosiy maqsadi, bilimlarni intellektual baholashning turli metodlari kabilar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'z va iboralar: bilim, ko'nikma, malaka, ijodiy qobiliyat, kompyuter texnologiyalari, nutq, xotira, diqqat, tasavvur, iroda, fikrlash, qobiliyat, sun'iy intellekt, monitoring, solishtirish, umumlashtirish, yaxlitlash, intensivlashtirish, optimallashtirish va boshqalar.

This article talks about the developmental task of knowledge control, the main goal of teachers to control students' knowledge, skills and abilities, various methods of intellectual evaluation of knowledge.

Key words and phrases: knowledge, competence, creative ability, computer technology, speech, memory, attention, imagination, will, thinking, ability, artificial intelligence, monitoring, comparison, generalization, rounding, intensification, optimization, etc.

Bilimlarni nazorat qilishning asosiy jumladan, rivojlantiruvchi vazifasi, talabalarning bilishga bo'lgan faolliklarini, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda namoyon bo'ladi. Kompyuter texnologiyalari asosida amalga oshiriluvchi nazorat jarayonida talabalarda nutq, xotira, diqqat, tasavvur, iroda va fikrlash qobiliyatlarining rivojlanishi yaqqol seziladi. Nazorat qilishning rivojlantiruvchi vazifasi, shaxsning qobiliyati, moyilligi, qiziqishlari va ehtiyojlari kabi xususiyatlarining shakllanishiga ta'sir qilishi bilan muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, talabalar erishayotgan bilimlarni nazorat qilishda uning yo'naltiruvchi vazifasi ham mavjud bo'lib, o'qituvchi uning mohiyatini, alohida talaba yoki butun guruh tomonidan o'qitishning maqsadiga qay darajada erishilganligi, ya'ni o'quv materialini qanday miqdorda va qanchalik chuqur o'zlashtirilganligi bilan belgilanadi. Bunday nazorat tufayli o'qituvchi yo'l qo'yilgan xatoliklarni va kamchiliklarni o'rganib, talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirishda qanday yondashuvlarga urg'u berish lozimligini anglab oladi. Nazoratning yo'naltiruvchi vazifasi talabaning turli xususiyatlari bo'yicha o'z o'zini yaxshi bilishga, o'zi erishgan bilimlari, qobiliyati va imkoniyatlarini anglash va odilona baholashiga katta yordam beradi.

Talabalarni nazorat qilishning yana bir muhim vazifasi ularni tarbiya qilish bilan bog'liq bo'lib, o'qituvchi talabalarda o'qishga javobgarlikni, intizomni, sarajomlik va sarishtalikni, axloqiy his-tuyg'ularni tarbiyalaydi. Ularda mehnatga layoqatlilikni, g'urur va irodani hamda mehnatga nisbatan muntazam ko'nikmalarni shakllantiradi. Bunday jihat haqqoniy bo'lishi uchun internetning ta'lim resurslari talabgorlarining so'rovlari va talablariga to'la javob bera oladigan darajada bo'lishi shart.

Shuning uchun ham ekspertlar tomonidan ta'lim veb- saytlarning sifatlarini baholash kompyuter tashxisining haqqoniyligida muhim o'rin tutadi. Ta'limda veb-saytlarning sifati ta'lim jarayonining axborot fazosining rivojlanishiga ta'sir etuvchi eng muhim jihatlardan sanaladi. U mazkur fazoda ta'lim olishning sifatiga va mazkur tizimning madaniyatli tashkil etilganligi darajasiga bevosita ta'sir etadi.

Tashxis va monitoringni ta'limda joriy etishda mavjud metodologiyani qo'llash orqali axborotli o'qitish muhitining tashxisiy vazifasini aniqlash imkoniyati tug'iladi. Ayni paytda talabalar erishgan bilimlar, ko'nikma va malakalarni nazorat qilishning keng tarqalgan yo'li – testlar yordamida tekshirish bo'lib, u kompyuterning undan foydalanuvchi bilan o'tkazadigan muloqotiga asoslangan. Mazkur tizim o'qituvchining talaba bilan individual ishlash jarayonini mujassamlashtiruvchi sifatida dunyoga kelgan.

Ba'zan o'quv jarayonida sun'iy intellekt tizimining qo'llanilishi baholash jarayonining murakkabligi, xususan talabani baholash uchun unga katta miqdordagi axborotni qayta ishlashi, baholovchi va baholanuvchi orasidagi o'zaro ta'sir jarayonining murakkabligi bu masalani oson hal qilish imkoniyatini bermadi. Xususan, talaba bilim va malakasini kompyuterlashtirilgan holda nazorat qilish, talab qilinadigan bilimlar majmuasining sifatini aniqlash muammosini hal qilish lozimligini, busiz erishilgan bilimlarni baholash mezonlarini va ularning o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash qobiliyatlarini belgilash mumkin emasligi oydin bo'ldi.

O'qituvchilar tomonidan talabalar bilimi, malaka va ko'nikmalarini nazorat qilishning asosiy maqsadi, ular erishgan yutuqlar va muvaffaqiyatlarni aniqlash, uni takomillashtirish yo'llarini ko'rsatish va shu asosda talabalarning faol ijodiy faoliyat ko'rsatishlari uchun sharoit yaratishdan iborat. Bu maqsad, birinchi navbatda, talabalar tomonidan o'quv materiallarini o'zlashtirish sifati bilan, ya'ni o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash darajasi bilan bog'liq. Ikkinchi tomondan, nazoratning asosiy maqsadini aniqlashtirish, o'zaro va o'z-o'zini nazorat qilish bo'yicha yondashuvlarni o'rganish hamda o'zaro va o'z-o'zini nazorat qilishga bo'lgan ehtiyojning shakllanishi bilan bog'liq. Uchinchi esa, bu maqsad talabalarda bajarilgan ish uchun javobgarlikning namoyon bo'lishi kabi shaxsning ijobiy sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi.

Talabalarning bilimlarini intellektual nazorat qilish o'qituvchidan ziyraklikni, adolat bilan faoliyat yuritishni talab qiladi. Bilimlarni intellektual baholashning turli metodlari mavjud bo'lib, bular ichida keng tarqalgan metodlar: og'zaki yo'l bilan tekshirish; yozma-grafik usulda tekshirish; amaliy-laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish orqali tekshirish.

Bilimlarni og'zaki usul bilan tekshirish metodi asosan ikki qismdan: birinchisi, tekshirish savollari va vazifalarini, ikkinchisi esa, qo'yilgan savol va vazifalarga javoblar, talablardan tashkil topadi. Bunda savol va topshiriqlarning mazmunini belgilashda, o'rganilayotgan o'quv materialini mazmuni bilan ilgari o'tilgan materiallar mazmuni orasidagi bog'lanishni tahlil qilish, o'tilgan mavzuni nazorat qilishda esa etakchi bilimlarni ajratish zarur bo'ladi. Savol va topshiriqlarning sifati talabalarning aqliy faoliyatlarining xarakteriga bog'liq bo'lganidan, ular talabalarning xotirasini faollashtirish, fikrlash (solishtirish, umumlashtirish, yaxlitlash va hokazo) va nutqini rivojlantirishga qaratilmog'i lozim.

Yozma-grafik usulda tekshirish, talabalarning nazariy bilimlarini; ularni masalalar va boshqa eksperimental topshiriqlarni bajarishda qo'llay olish ko'nikmasi va malakasini; ularda bu masalalar bo'yicha shakllangan ko'nikmalarni tekshirishni nazarda tutadi. Yozma-grafik ishlarni bajarish metodikasi quyidagi to'rt bosqichda bajariladi: nazoratni o'tkazishga tayyorgarlik; uni tashkil etish; o'tkazish; natijalarni tahlil qilish. Nazoratni tashkil etishda, nazorat etaplarining maqsadlarini belgilash, nazorat ob'ektlarining mazmunini tanlash, tekshirish vazifalarini tuzish lozim bo'ladi.

Amaliy-laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish orqali tekshirish. Ushbu usul yordamida, talabalarning erishgan nazariy bilimlari asosida amaliy masalalarni echish, turli jadvalardan, formulalardan, chizmalar va o'lchash asboblaridan unumli foydalanish ko'nikmasi va malakalari tekshiriladi. Amalda masalalar echishda talabadan masalalarni echishning algoritmini tuzish talab etiladi, chunki bunday tekshirishda talaba faoliyatining mantiqiy ketma-ketligi to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi ma'lum bo'ladi.

Shunday qilib, o'qituvchi tomonidan tekshirishning turli metodlari qay darajada muvaffaqiyatli ekanligi tanlanganligi, talabalar bilimlarini odilona baholashda muhim ko'rsatkichlardan sanaladi. Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida pedagogik jarayonlarni **quyidagicha samarali tashkil etish mumkin:** o'qituvchilar o'rtasida mehnat taqsimotini to'g'ri tashkil etish; masofaviy o'quv kurslari va elektron adabiyotlarning yaratuvchisi bo'lgan jamoaga o'qituvchilar, kompyuter dasturchilari va mutaxassislarining birlashuvi; pedagogik jarayonning tashkil qilinishini takomillashtirish va o'qituvchi faoliyati samaradorligining monitoringini olib borish.

Yangi zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o‘qituvchining **pedagogik faoliyati**: ta’limda texnologik asoslarning tez rivojlanishi bilan bog‘liq b‘lgan yangi kurslarni yaratish; o‘quv kurslarini yaratish asosida o‘qituvchilarning ko‘nikma va malakalarini shakllantirish; masofaviy kurslarning ochiqligi tufayli ularning sifatiga bo‘lgan talablarning va o‘quv materiallari sifatini nazorat qilishga oid ehtiyojlarning qondirilishi; o‘quv jarayonida talaba faoliyatining ustuvor mavqe tutishini, o‘quv jarayoni salmog‘ining o‘qituvchidan talabaga ko‘chishini ta’minlash; yangi kommunikasion texnologiyalardan foydalanish asosida, o‘qituvchining har bir talaba bilan teskari aloqasining vujudga kelishini amalga oshirish.

O‘qituvchida zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish malakalarini shakllantirish. Bu borada o‘qituvchi albatta axborot kommunikasion texnologiyaaridan foydalanishning afzalliklaridan xabardor bo‘lishi kerak.

Bunday vazifalarni bajarish «Kadrlar tayyorlash milliy modeli»ni amalga oshirishning bosqichlarida belgilab berilgan, uning kelajakdagi istiqboli ilmiy asoslab berildi. Modelni amaliyotga tatbiq etish o‘quv jarayonini texnologiyalashtirish bilan uzviy bog‘liqdir. Ilmiy texnikaviy taraqqiyot ishlab chiqarishning ko‘p sonli tarmoqlari bilan bir qatorda ta’lim sohasiga ham zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishni taqozo etmoqda. Shu bois, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da “o‘quv-tarbiyaviy jarayonni ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ta’minlash“ zaruriyati e’tirof etildi, uning ikkinchi va uchinchi bosqichlarida bajariladigan jiddiy vazifalardan biri sifatida belgilandi.

Nima uchun bugungi kunda ta’limda axborot texnologiyalarini joriy etishning nazariy asosini yaratish va amaliyotga tatbiq etish zaruriyati paydo bo‘ldi? Birinchidan, o‘qituvchini o‘quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki bilimlarni egallash manbalaridan biriga aylanib qolayotganligini ta’kidlash mumkin. Ikkinchidan, ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanayotgan bosqichida axborotlarning keskin ortib borayotganligi va ulardan o‘qitish jarayonida foydalanish uchun vaqtning chegaralanganligi, shuningdek, talabalarni kasbiy faoliyatga mukammal tayyorlash talablari ta’lim tizimiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda.

Ta’lim tizimini isloh qilishning muhim yo‘nalishlaridan biri –axborot va telekommunikasiya texnologiyalari bilan ta’lim jarayonini tizimli integratsiyalash va uni boshqarish hisoblanadi. Islohotlar jarayonida bosh vazifa qilib o‘quv jarayonini tashkil etish, uning mazmunini tubdan yangilash, kompyuterlashgan muhitda o‘qituvchining pedagogik faoliyati va talabalarning bilim olish jarayonini tashkil etish bilan belgilanadi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da kadrlar tayyorlash tizimini mukammallashtirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida

ta'lim tizimining yaxlit axborot makonini yaratish alohida ta'kidlab o'tilgan. Unda ta'limning zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida rivojlanib borishi belgilangan.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'limni intensivlashtirish va optimallashtirish imkoniyatlari masofaviy malaka oshirishni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun o'qituvchi kadrlari malakasini oshirishdan maqsad o'qituvchilarda zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanib bilim, ko'nikma va malakalarini hamda pedagogik mahoratlarini shakllantirishdir.

Bugungi kunda pedagogik ta'lim samaradorligini oshirish bilan bevosita aloqador bo'lgan bir qator, hozirgacha echimi topilmagan muammolar mavjud. Bu muammolar ta'lim sohasini axborotlashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalari sohasida o'qituvchi kadrlar tayyorlash, o'qituvchilarning zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalardan foydalanish malakasining etarli emasligi bilan bog'liq. Bu muammolarning muhim qirralaridan biri sifatida o'qituvchilarning o'zlarida ta'limni zamonaviy axborot texnologiyalari bilan jihozlashga bo'lgan munosabatlarini ko'rsatish mumkin. Shu narsani ta'kidlash joizki, axborotlashtirish sharoitida o'qituvchining pedagogik mahorati yanada oshadi.

Hozirgi kunda barcha ta'lim muassasalari zamonaviy kompyuter va telekommunikasiya texnologiyalari asosida jihozlanmoqda. Bu o'z navbatida o'qituvchilarning o'z mehnat faoliyatlariga yangicha yondashuvlarini talab etadi. O'quv jarayonida yangi texnologiyalarni joriy etilishi, o'qituvchini texnik vositalar tomonidan siqib chiqishga emas, balki uning vazifalari, rolini o'zgartiradi, o'qituvchilik faoliyatini yanada serqirra kasbga aylantiradi. Kompyuter va zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal sur'atda rivojlanishi endilikda hozirgi zamon o'qituvchisining pedagogik mahorati naqadar serqirra ekanligini namoyon etmoqda.

Hozirgi kunda **zamonaviy o'qituvchidan:** o'quv kurslari dizayneri: o'quv kurslarining yaratuvchisi; fasiliteytor: o'qitish metodlari bo'yicha maslahatchi; tyutor: o'quv kurslarini interfaol taqdim etish bo'yicha mutaxassis; invigilator: ta'lim natijalarini nazorat qilish usullari bo'yicha mutaxassis bo'lishni talab etmoqda. Zamonaviy texnologiyalar, masofaviy oliy pedagogik ta'limni yangicha tashkil qilinishiga zamin yaratadi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: 2020. Yangi tahrir.
2. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T.: TDPU, 2003. www.ziyouz.com kutubxonasi

3. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Ped. fanlari dokt. ilmiy dar. uchun diss. - T.: 305 b.
4. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi.- T.: O'zbekiston, 1999,29 b.
5. Zagvyazinskiy V.I. Pedagogicheskoe tvorchestvo uchitelya. Biblioteka uchitelya i vospitatelya. - M.: Pedagogika, 1987, 160 s.
6. Kan-Kalik V.A., Nikandrov N.D. Pedagogicheskoe tvorchestvo: Biblioteka uchitelya i vospitatelya. -M .: Pedagogika, 1990, 144 s. \u / ^
7. Kuzmina N.V. Sposobnosti, odarennost, talant uchitelya. L.: Znanie, 1985, 32 s.
8. Pirmuxamedova M. Pedagogik mahorat asoslari.- T.: 2001.
9. Rachenko I.P. Diagnostika razvitiya pedagogicheskogo tvorchestva uchitelya. - Pyatigorsk, 1992,196 s.
10. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. nazariya va amaliyot. - T.: Moliya nashriyoti, 2003.
11. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A. Pedagogik jarayonlarni tashkil etash va boshqarish. - T.: "Fan", 2009. - 168 b. www.ziyouz.com kutubxonasi
12. O'qituvchi ish faoliyatini baholash va uni rag'batlantirish mezonlari (Metodik tavsiyanoma). - T.: 1993. - 34 b.

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARINING IJTIMOIIY-GUMANITAR FAN O'QITUVCHILARINI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Biybalayev Islombek Abdunazarovich

Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasini mudiri, Guliston davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumta'lim maktablarining ijtimoiy-gumanitar fan o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Ushbu mavzuning dolzarbligi ta'lim jarayonida o'qituvchilarning zamonaviy pedagogik yondashuvlarni o'zlashtirishi va o'z mahoratlarini doimiy yangilab borish zaruriyati bilan izohlanadi. Maqola doirasida xorijiy va milliy tajribalardan kelib chiqqan holda uzluksiz kasbiy rivojlantirish metodikasining nazariy asoslari ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda o'qituvchilarning ehtiyojlari va kasbiy rivojlanish jarayonidagi mavjud muammolar aniqlanib, zamonaviy texnologiyalar va reflektiv usullardan foydalanish imkoniyatlari o'rganilgan. Asosiy tahlil natijalariga asoslanib, kasbiy rivojlanish kurslarini optimallashtirish va o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishga qaratilgan innovatsion tavsiyalar berilgan. Xulosa o'laroq, maqolada ijtimoiy-gumanitar fan o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishini takomillashtirish orqali ta'lim sifatini yaxshilash imkoniyatlari ko'rsatib o'tilgan.

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы совершенствования методики непрерывного профессионального развития учителей социально-гуманитарных наук общеобразовательных школ. Актуальность данной темы объясняется необходимостью освоения учителями современных педагогических подходов и постоянного обновления своих профессиональных навыков. В статье рассмотрены теоретические основы методики непрерывного профессионального развития на основе зарубежного и отечественного опыта. В исследовании определены потребности учителей и существующие проблемы в процессе их профессионального развития, а также изучены возможности использования современных технологий и рефлексивных методов. На основе анализа предложены инновационные рекомендации по оптимизации курсов повышения квалификации и повышению профессионального мастерства учителей. В заключении статьи представлены возможности улучшения качества образования через совершенствование профессионального развития учителей социально-гуманитарных дисциплин.

Abstract. This article analyzes the issues surrounding the improvement of continuous professional development methodology for social sciences and humanities teachers in general education schools. The relevance of this topic is explained by the need for teachers to master modern pedagogical approaches and

continuously update their professional skills. The article examines the theoretical foundations of continuous professional development methodology based on both foreign and national experiences. The study identifies the needs of teachers and the existing challenges within their professional development process, as well as explores the potential of using modern technologies and reflective methods. Based on the main analysis, innovative recommendations are provided for optimizing professional development courses and enhancing teachers' skills. In conclusion, the article presents opportunities for improving education quality by enhancing the professional development of social sciences and humanities teachers.

Kalit so'zlar: Uzluksiz kasbiy rivojlanish, Ijtimoiy-gumanitar fanlar, Metodika takomillashtirish, O'qituvchilar malakasi, Zamonaviy pedagogika, Reflektiv o'qitish, Ta'lim texnologiyalari, Innovatsion yondashuv, Ta'lim sifati, O'zbekiston ta'lim tizimi.

Ключевые слова: Непрерывное профессиональное развитие, Социально-гуманитарные науки, Совершенствование методики, Квалификация учителей, Современная педагогика, Рефлексивное обучение, Образовательные технологии, Инновационный подход, Качество образования, Система образования Узбекистана.

Keywords: Continuous professional development, Social sciences and humanities, Methodology improvement, Teacher qualification, Modern pedagogy, Reflective teaching, Educational technologies, Innovative approach, Education quality, Uzbekistan education system.

KIRISH

O'quvchilar ijtimoiy-gumanitar fanlar orqali keng dunyoqarash va madaniy ma'lumotlarga ega bo'ladi, bu esa ularni mustaqil va tanqidiy fikrlashga, tarixiy voqealarni chuqurroq tahlil qilishga undaydi.

Dolzarblik: Ijtimoiy-gumanitar fan o'qituvchilarining bilim va mahoratini muntazam yangilab turish, o'quv jarayonida sifatli darslarni tashkil etish zarurligi yildan yilga ortib bormoqda. Uzluksiz kasbiy rivojlantirish bu ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi.

Maqsad: Ijtimoiy-gumanitar fan o'qituvchilarining bilim va amaliy ko'nikmalarini uzluksiz rivojlantirish bo'yicha metodikani takomillashtirish hamda uning ta'lim jarayonidagi rolini oshirish.

Vazifalar: Maqola davomida o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini yaxshilash uchun kerak bo'ladigan asosiy metodlarni tahlil qilish, ularni ta'lim jarayoniga qanchalik samarali integratsiya qilishni o'rganish, shuningdek, mavjud muammolar va ularning yechimlarini izohlash.

Ta'lim sohasidagi zamonaviy tendensiyalar va jamiyatning ijtimoiy-gumanitar bilimlarga bo'lgan talabining ortib borishi o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va malakasiga yangicha talablar qo'ymoqda. Ijtimoiy-gumanitar fanlar (tarix, huquq, tarbiya va boshqalar) o'quvchilarning kengroq dunyoqarashga ega

bo'lishlari, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishlari, jamiyat va madaniyatni chuqurroq anglab yetishlari uchun muhim omil hisoblanadi. Shu bois, mazkur fanlar o'qituvchilari doimo o'z bilimlarini yangilab borishlari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion uslublarni egallashlari zarur.

Uzluksiz kasbiy rivojlanish – o'qituvchilarning muntazam ravishda o'z bilim va ko'nikmalarini oshirishini ta'minlaydigan tizimli jarayon bo'lib, u nafaqat o'qituvchi sifatida rivojlanish, balki o'quvchilarning ta'lim sifatini oshirish uchun ham muhim omil hisoblanadi. O'zbekistonda ta'lim tizimining barqaror rivojlanishi va xalqaro talablarga mosligini ta'minlash uchun o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini takomillashtirish muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan. Shu bilan birga, kasbiy rivojlanish jarayoni o'qituvchilar uchun nafaqat akademik bilimlarni, balki pedagogik mahoratni ham chuqurlashtirishga imkon beradi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – ijtimoiy-gumanitar fan o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonini tizimli o'rganish va bu sohada mavjud metodikalarning samaradorligini oshirish imkoniyatlarini ko'rib chiqishdan iborat. Xususan, o'qituvchilarning o'z faoliyatini chuqurroq tahlil qilishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishi, dars jarayonida interfaol va innovatsion yondashuvlarni joriy etishi uchun sharoit yaratish zarur.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Ijtimoiy-gumanitar fanlar o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlanish ehtiyojlarini aniqlash.

2. Zamonaviy pedagogik metodikalar va texnologiyalardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish.

3. Xorijiy mamlakatlarning ijtimoiy-gumanitar fanlar o'qituvchilarini kasbiy rivojlantirishdagi ilg'or tajribalarini o'rganish va ularni milliy tizimga tatbiq etish yo'llarini o'rganish.

8. Harmer, J. *The Practice of English Language Teaching* (5th ed.). Pearson Longman. 2013.
9. Jacobs, G. M., & McCafferty, S. G. *Collaborative Learning: Socializing Second Language Learning*. *TESOL Quarterly*, 40(3), 675-683. 2006.
10. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. *Cooperative Learning in the Classroom: Strengthening Social Skills through Group Work*. Kagan Publishing. 2014.

11. Liaw, M. L. *Content-based Reading and Writing for Critical Thinking Skills in an EFL Context*. *English Teaching & Learning*, 31(2), 45-87.2007.
12. Richards, J. C. *Key Issues in Language Teaching*. Cambridge University Press. 2015.
13. Savignon, S. J. (2018). *Communicative Competence: Theory and Classroom Practice*. Addison-Wesley.
14. Zins, J. E., & Elias, M. J. *Social and Emotional Learning: Promoting the Development of the Whole Student*. *American Educational Research Journal*. 2007.

MALAKA OSHIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI

K.Eshkuvatov

Guliston davlat universiteti Matematika kafedrasida dotsenti

Annotatsiya. Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishdan maqsad o'qituvchining ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish, uning shaxsiy sifatlarini, kasb bilimlari va umumiy saviyasini takomillashtirish, pirovard maqsad esa, o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash sifatini keskin oshirishdan iboratdir.

Kalit so'zlar: matematika, ta'lim, fikr o'quv dasturi, davlat ta'lim standarti, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, kasbiy sifat, nazorat, metod, texnologiya va b.q.

Аннотация. Целью переподготовки и повышения квалификации педагога является развитие творческих способностей педагога, повышение его личных качеств, профессиональных знаний и общего уровня, а конечной целью – резкое повышение качества преподавания и воспитания студентов.

Ключевые слова: математика, мысль, воспитание, обучение, учебная программа, государственный образовательный стандарт, знание, умение, квалификация, компетентность, профессиональное качество, контроль, метод, технология и т. д.

Abstract. The purpose of retraining and upgrading the qualifications of the teacher is to develop the creative capabilities of the teacher, to improve his personal qualities, professional knowledge and general level, and the ultimate goal is to sharply increase the quality of teaching and education of students.

Key words: mathematics, thought, education, training, curriculum, state education standard, knowledge, skill, qualification, competence, professional quality, control, method, technology, etc.

O'quv jarayonini yangilish, standart talablariga javob beradigan zamonaviy darslar tashkil etish, o'qituvchini ishga mas'ulliyat bilan yondashishga, kasbiy bilimdonlikka, zamonaviy pedagogik texnologiya va innovatsiyalar asosida ta'limni tashkil etishga yo'naltirishdan iborat. Bu esa qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini yangicha, zamonaviy talablarda tashkil etishni taqozo etadi.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", talablari asosida milliy kadrlar tayyorlashni zamon talabi darajasiga ko'tarish, uning yangi tizimini barpo etish, yetuk o'qituvchi-kadrlar tayyorlash, o'qitishning yangi pedagogik texnologiya bilan ta'minlashni talab etmoqda.

Bugun kunda ana shunday islohatlarni oshirish uchun ta'lim muassasalari yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, ularning kasbiy mahoratini oshirish, yuksak aql-zakovat salohiyatini shakllantirishdek olijanob ishlarni amalga oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yish kerak. Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishdan maqsad o'qituvchining ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish, uning shaxsiy sifatlarini, kasb bilimlari va umumiy saviyasini

takomillashtirish, pirovard maqsad esa, o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash sifatini keskin oshirishdan iboratdir.

Malaka oshirish jarayonini yangicha va to'g'ri isloh etishda professor-o'qituvchilardan quyidagilar talab etiladi:

-mashg'ulotlarni yangicha munosabatda tashkil etish;

-fan va laboratoriya xonalarini standart talablari asosida jihozlash;

-ishchanlik muhitini yaratish;

-ko'rgazmali, tarqatma va didaktik materiallarni tayyorlash va ulardan unumli foydalanish;

-chet el ilg'or tajribalarini o'rganish va ularni mashg'ulotlarga qo'llash;

-internet tarmog'idan foydalanish;

Pedagoglarni malakasini oshirish tizimi uzluksiz ta'limning asosiy bo'g'ini hisoblanib, uni takomillashtirish vazifalari har bir rahbar hamda xodimdan katta mas'uliyat talab etadi. Uzluksiz malaka oshirish tizimini maktabdan boshlab, tuman (shahar) kesmida tashkil etilishi kerak. Malaka oshirishni quyidagicha shakillashtirish mumkin:

-maktab va tumanda ma'lum bir usullar asosida doimiy harakatdagi seminarlar nalar tashkil etish;

-malakali o'qituvchilarning ijodiy tajribalari taqdimotini pedagoglar jamoasida o'tkazish;

-maktabda innovatsion dastur asosida malaka oshirishni tashkil etish; har bir tuman metodika kabineti, metod birlashmalarda ijodiy guruhlar interfaol usullarni qo'llash bo'yicha trenerlar guruhini shakllantirish va hakoza.

Malaka oshirish tizimining samaradorligini oshirish omillari quyidagilardan iboratdir: malaka oshirishni o'qituvchining kasbiy darajasiga qarab tashkil etish; malakali o'qituvchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish;

-malaka oshirishning uzviyligini yo'lga qo'yish; malaka oshirishni xar bir xodimning kundalik ehtiyojiga aylantirish;

-malaka oshirishning maktab va tuman kesmida istiqbol rejasini ishlab chiqish; malaka oshirish jarayoniga innovatsion va yangi pedagogik texnologalari jorish va hakoza.

Demak, malaka oshirish kurslarida o'quv jarayonini mazmunan boyitish uchun yuqoridagilarga qat'iy amal qilish kerak.

Bugungi kunda malaka oshirish professor-o'qituvchilarining asosiy vazifalari jarayonida ta'limning faol usullarini qo'llash, ya'ni zamonaviy pedagogik texnologiya hamda yangi axborot texnologiyalarni va milliy istiqloq g'oyasini fanlarni o'qitish jarayonida tatbiq etsihga tta erbermoqdalar. Dolzarb muammolar bo'yicha davra suhbatlari, yangi dastur, dasrlik va davlat ta'lim standartlari asosida yaratilgan dars ishlanmalarini modellashtirish, ishchan o'yinlar, treninglar, dars jarayonida pedagogik masalalar (holatlar)ni yechish, bahs-munozaralar, tinglovchilar orasida turli ko'rik tanlovlar (orginal ko'rgazmali qurollar ko'rigi, metodik festivallar g'oyasi), mini-seminarlar, tajriba almashuvlar,

ilg'or o'qituvchilar ijodiy hisobotini tinglash, kurs ishlari himoyasini tashkil etish va hokozolarni amalga oshirishdan iborat.

Kafedralar viloyat ta'lim muassasalari bilan bevosita hamkorlikda ish olib borishi kerak, bu esa hozirgi vaqtda yaratilgan yangi davlat ta'lim standartlari, takomillashtirilgan o'quv dasturlarini birgalikda amalga oshirishda katta samara beradi. Malaka oshirish markazlari internet tarmoqlaridan keng foydalanishni yo'lga qo'yishlari kerak, hamda malaka oshirishning masofadan turib o'qitishni tadbiq etish va takomillashtirilishi lozim. Bu esa barcha pedagog xodimlarning uzluksiz malakalarini oshirishda qulaylik yaratishning asosiy omillaridan hisoblanadi. Markazda ta'limning sifat va samaradorligini ta'minlash uchun o'qituvchining tayyorgarligi va ehtiyojiga mos ravishda tabaqalashtirilgan maqsadli, loyihali bloklar asosida o'quv jarayonini tashkil etish talab etiladi.

Pedagogning malaka oshirish kursi davomida olgan bilimlarini, chunonchi, ta'limga oid yangiliklar, samarali dars usullari va ilg'or tajribalarni amaliyotga tatbiq etish darajasini belgilash uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim.

Markazda malaka oshirgan har bir rahbar va pedagogning kurs jarayonida malaka oshirish kursidan keyingi pedagogik faoliyati dasturining loyihasi yaratilab, bu dasturda pedagogning 3 yillik ish faoliyati davri qamrab olinishi kerak. Dasturga pedagogning malaka oshirishdan keyingi 3 yil davomida amalga oshiradigan barcha ishlari kiritiladi. Malaka oshirib qaytgan pedagog ta'lim muassasasidagi fan metobdirlashmasiga xisobot berishi, ochiq (namunaviy) darslarni tashkil etishi va kasbdoshlarining darslarini kuzatishlari lozim.

Pedagogning dars o'tish uslublari, jamoadagi, tuman (shahar) va viloyat miqyosidagi faolligi, ijodkorligi va izlanishlarida ro'y bergan o'zgarishlarga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Pedagogning o'tgan darslari samarasi va jamoa a'zolarining pedagogga nisbatan munosabatida yuz bergan o'zgarishlari ham e'tiborga olinadi.

YEVKLID GEOMETRIYASI AKSIOMALARINING DEKART TALQINI VA ULARDAN KELIB CHIQUADIGAN NATIJALAR

Nafasov G‘anisher Abdurashidovich, Abdimannab Eshmuratov

Guliston davlat universiteti “Matematika” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d (PhD)

E-mail: gnafasov87@gmail.com

Guliston davlat universiteti “Matematika” kafedrasi dotsenti, p.f.n

E-mail: eshmuratovabdimannab@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqola yevklid geometriyasi aksiomalarining dekart talqini va ulardan kelib chiqadigan natijalarga bag‘ishlangan. Natijada bo‘lajak matematika o‘qituvchilarining mantiqiy kompetentsiyalarini rivojlantirishda samarali metodlarlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: yevklid, nuqta, yarim yevklid, to‘plam, to‘g‘ri chiziq, affin koordinatalar, sikl, kesma.


Аннотация: эта статья посвящена декартовой интерпретации аксиом евклидовой геометрии и вытекающим из них результатам. В результате сформулированы эффективные методы развития логических компетенций будущих учителей математики.

Ключевые слова: Евклид, точка, полувеклид, множество, прямая, аффинные координаты, цикл, поперечное сечение.

Abstract: This article is devoted to the Cartesian interpretation of the axioms of Euclidean geometry and the results resulting from them. As a result, effective methods for the development of logical competencies of future mathematics teachers have been formulated.

Key words: Euclid, point, semi-Euclidean, set, straight line, affine coordinates, cycle, cross section.

Ma‘lumki, Yevklid tekisligidagi aylanaga turli xil ta‘riflar berish mumkin. Masalan, berilgan nuqtadan bir xil masofada yotgan nuqtalar to‘plami yoki berilgan kesma faqat to‘g‘ri burchak ostida ko‘rinuvchi nuqtalar to‘plamiga aylana deb ataladi. Endi shu ta‘rifning ikkinchi qismining yarim Yevklid tekisligidagi ko‘rinishidagi ko‘rinishini aniqlaylik. Berilgan kesma uchlari $A(a_1, a_2)$ $B(b_1, b_2)$ ko‘rinishidagi koordinatalarga ega bo‘lsin. $M(x, y)$ esa $[A, B]$ kesma o‘zgaras burchak ostida ko‘rinadigan nuqtalar to‘plamining ixtiyoriy nuqtasi bo‘lsin.



(AM) va (BM) to'g'ri chiziqlar $y=kx+b$ va $y=k_1x+b_1$ ko'rinishdagi tenglamalarga ega bo'lsin. Bu tenglamalarni Yevklid tekisligidagi ikki nuqtadan o'tuvchi to'g'ri chiziq tenglamsidan ham hosil qilish mumkin. Bu yerda

$$K = \frac{y - a_2}{x - a_1} \quad \text{va} \quad K_1 = \frac{y - b_2}{x - b_1}$$

bo'lib burchakka berilgan ta'rifga asosan

$$\alpha = k_1 - k = \frac{y - b_2}{x - b_1} - \frac{y - a_2}{x - a_1}$$

bo'ladi. Burchak o'zgarmas bo'lganligi uchun

$$\frac{y - b_2}{x - b_1} - \frac{y - a_2}{x - a_1} = \alpha$$

$$\alpha(x - b_1)(x - a_1) - (x - a_1)(y - b_2) + (x - b_1)(y - a_2) = 0$$

$$(b_1 - a_1) = \alpha x^2 + [(b_2 - a_2) - \alpha(b_1 + a_1)]x + \alpha a_1 b_1 - a_1 b_2 + a_2 b_1$$

$$y = \frac{\alpha}{b_1 - a_1} x^2 + \frac{[(b_2 - a_2) - \alpha(b_1 + a_1)]}{b_1 - a_1} x + \frac{\alpha a_1 b_1 - a_1 b_2 + a_2 b_1}{b_1 - a_1}$$

$$a = \frac{\alpha}{b_1 - a_1}, \quad b = \frac{(b_2 - a_2) - \alpha(a_1 + b_1)}{b_1 - a_1}, \quad c = \frac{\alpha a_1 b_1 - a_1 b_2 + a_2 b_1}{b_1 - a_1}$$

bu yerda,

ko'rinishidagi belgilashlar kiritsak,

$$y = ax^2 + 2bx + c \quad (1.1)$$

Hosil bo'ladi. Bu esa Yevklid tekisligidagi parabola tenglamasidir.

Yarim Yevklid tekisligida biror affin koordinatalar sistemasiga nisbatan koordinatalari (1.1) tenglamani qanoatlantiruvchi nuqtalar to'plamiga sikl deb ataladi. Ma'lumki, Yevklid tekisligidagi aylananing har bir nuqtasidagi egriligi o'zgarmas songa $1/R$ ga teng. Agar (1.1) parabolaning egriligini hisoblasak u ham o'zgarmas songa teng bo'ladi.

(1.1.1) § dagi yarim yevklid tekisligidagi harakatda sikl yana siklga o'tinshini ko'rsataylik. Harakat tenglamasini

$$\begin{cases} x_1 = x \\ y_1 = vx + y \end{cases} \quad (1.2)$$

ko'rinishida olaylik. (1.2) ni parabola tenglamasiga qo'ysak

$$vx + y = ax_1^2 + 2bx_1 + c \quad y = ax_1^2 + (2b - v)x_1 - c$$

yana sikl tenglamasi hosil bo'ladi.

Demak, sikl yarim yevklid geometriya asosiy tushunchalaridan biri ekan, chunki u galiley harakatiga nisbatan invariantdir.

Agar harakat tenglamasini

$$\begin{cases} x' = x + \frac{v}{2a} \\ y' = vx + y + \frac{v^2}{4a} \end{cases} \quad (1.3)$$

Ko'rinishida olsak bu harakat parabola nuqtalarini yana shu parabola nuqtalariga akslantiradi. Yevklid tekisligida har bir nuqtasidagi egriligi o'zgarmas bo'lgan chiziqlar aylana va to'g'ri chiziq bo'lsa, yarim yevklid tekisligida bunday xossaga ega bo'lgan chiziqlar sikl bilan to'g'ri chiziqdir.

Yevklid tekisligidagi aylananing biror yo'nalishga parallel bo'lgan vatarlariuning o'rtalari bitta to'g'ri chiziqqa tegishli bo'ladi. Bu to'g'ri chiziqning aylana bilan chegaralangan bo'lagi dastlabki vatarlarga qo'shma vatar deb ataladi [12]. Shunga o'xshash biror sikl beryl gan bo'lsa, maxsus yo'nalishga parallel bo'lmagan biror to'g'ri chiziqqa parallel to'g'ri chiziqlar to'plami siklni parallel vatarlarini hosil qiladi. Bu parallel vatarlarning o'rtalari bitta to'g'ri chiziqda yotadi. Aylana unga tegishli bo'lmagan nuqtadan o'tkazilgan o'rinmalarining uzunligi o'zoro teng. Shunga o'xshash siklga unga tegishli bo'lmagan biror nuqtadan o'tkazilgan o'rinmalarining uzunliklari o'zoro teng bo'ladi.

Yarim yevklid tekisligining aksiomalari sistemasiga to'xtashdan oldin yevklid geometriyasi aksiomalarini va ulardan kelib chiqadigan ba'zi natijalarni keltiraylik.

Bog'liqlilik aksiomalari va ulardan kelib chiqadigan natijalar Elementar geometriya aksiomalari besh guruhga bo'lib o'rganiladi.

I- guruh, sakkizta bog'liqlik aksiomalarini o'z ichiga oladi.

II-guruh, to'rtta tartib aksiomalaridan iborat.

III-guruh, beshta kongruentlik aksiomalaridan to'zilgan.

IV- guruh bitta o'zluksizlik aksiomasidan tashkil topgan.

V-guruh, bitta parallellik aksiomasini o'z ichiga oladi.

Bo'liqlilik aksiomalarida nuqta, to'g'ri chiziq va tekisliklarni o'zaro joylashishi xossalari haqida so'z yuritiladi va «tegishli» so'zi bilan ifodalaniladi.

Bunda «a nuqta a to'g'ri chiziqqa tegishli», «a nuqta a to'g'ri chiziqda yotadi» va «a to'g'ri chiziq a nuqtadan o'tadi» kabi jumlar teng kuchli, «a nuqta a tekislikka tegishli», «a nuqta a tekislikda yotadi» va «a tekislik a nuqtadan o'tadi» kabi jumlar teng kuchli deb hisoblanadi. Agar S nuqta a va b to'g'ri chiziqlarga tegishli bo'lsa, a va b to'g'ri chiziqlar S nuqtada kesishadi deyiladi. a to'g'ri chiziqning barcha nuqtalari a tekislikka tegishli bo'lsa a to'g'ri chiziq tekislikda yotadi yoki a tekislik a to'g'ri chiziq orqali o'tadi deb ataladi.

Q va R tekisliklarning har biri a to'g'ri chiziq orqali o'tsa, Q va R tekisliklar a to'g'ri chiziq bo'yicha kesishadi deyiladi.

Birinchi guruh quyidagi sakkizta aksiomalardan tashkil topgan:

I_1 aksioma. L va V nuqtalar qanday bo'lmasin, bu nuqtalarning har biridan o'tuvchi s to'g'ri chiziq mavjud.

I_2 aksioma. Turli a va V nuqtalar qanday bo'lmasin, bu nuqtalardan o'tuvchi bittadan ortiq bo'lmagan to'g'ri chiziq mavjud.

Bu ikki aksiomani quyidagicha ifodalash mumkin: Istalgan ikkita turli nuqtalar bu nuqtalardan o'tuvchi bitta va faqat bitta to'g'ri chiziqni aniqlaydi.

I_3 aksioma. Agar bir to'g'ri chiziqda kamida ikkita nuqta yotadi. Bir to'g'ri chiziqda yotmaydigan kamida uchta nuqta mavjud.

I_4 aksioma, a, b, c nuqtalar qanday bo'lmasin, bu nuqtalarning har biridan o'tuvchi l tekislik mavjud. Har bir tekislikda kamida bitta nuqta yotadi.

I_5 aksioma. Bir to'g'ri chiziqda yotmaydigan a, b, c nuqtalar bo'lmasin, bu nuqtalarning har biridan o'tuvchi bittadan ortiq bo'lmagan tekislik mavjud.

I_6 aksioma, d to'g'ri chiziqning A va V nuqtalari α tekislikda yotsa, d to'g'ri chiziq ham tekislikda yotadi.

I_7 aksioma, Q va R tekisliklar bitta umumiy S nuqtaga ega bo'lsa (tekisliklarning har birida yotuvchi nuqta), ularning yana kamida bitta umumiy D nuqtasi mavjud.

I_8 aksioma. Bir tekislikda yotmaydigan kamida to'rtta nuqta mavjud.

Bog'liqlilik aksiomalaridan bir necha natijalar kelib chiqadi. Bu natijalardan ba'zilarini keltiramiz.

1.3—teorema. Ikkita to'g'ri chiziq bittadan ortiq bo'lmagan umumiy nuqtaga ega. Ikkita tekislik yoki umumiy nuqtaga ega emas yoki umumiy to'g'ri chiziqqa ega. Tekislik va unda yotmaydigan to'g'ri chiziq bittadan ortiq bo'lmagan umumiy nuqtaga ega.

Isbot. Birinchi tasdiqning isboti I_2 aksiomadan kelib chiqadi. Ya'ni, teskarisini faraz qilamiz. a va b to'g'ri chiziqlar bir—biridan farqli bo'lib, umumiy S nuqtadan tashqari D nuqtaga ham ega bo'lsin. U holda, S , D nuqtalar a , b to'g'ri chiziq'larga tegishli ekani kelib chiqadi. S va D nuqtalar a , b to'g'ri chiziq'larga tegishliligidan I_2 aksiomaga ko'ra a to'g'ri chiziq bilan b to'g'ri chiziq ustma—ust tushadi. Bu ziddiyat birinchi tasdiqni isbotlaydi.

Ikkinchi tasdiqni isbotlaylik. Q va R tekisliklar umumiy P nuqtaga ega bo'lsin deb faraz qilaylik. I_7 aksiomaga ko'ra Q va R tekisliklar R dan farqli umumiy Q nuqtaga ega bo'ladi. R va Q nuqtalardan o'tuvchi to'g'ri chiziq Q va R tekisliklarning har birida yotadi. Demak, a to'g'ri chiziq Q va P tekisliklarning umumiy nuqtalaridan tashkil topgan ekan. Bundan tashqari, a to'g'ri chiziq a va r tekisliklarning barcha umumiy nuqtalarini o'z ichiga oladi. Haqiqatdan ham Q va P tekisliklarning a to'g'ri chiziqda yotmaydigan umumiy R nuqtasi bor deb faraz qilaylik. U holda, Q va P tekisliklarning bir to'g'ri chiziqda yotmaydigan umumiy uchta R , Q , R nuqtalari mavjud bo'ladi. I_5 aksiomaga ko'ra Q va P tekisliklar ustma—ust tushadi. Shunday qilib, Q va P tekisliklar to'g'ri chiziq bo'yicha kesishar ekan. Tasdiq isbotlandi.

Uchinchi tasdiq esa I_6 aksiomadan kelib chiqadi. Haqiqatdan ham, tekislik va unda yotmaydigan to'g'ri chiziqning ikkita umumiy nuqtasi bo'lsin deb faraz qilsak, I_6 —aksiomaga ko'ra to'g'ri chiziq tekislikda yotishi kelib chiqadi. Bu ziddiyat teoremaning uchinchi tasdig'ini isbotlaydi. 1.3—teorema isbotlandi.

1.4—teorema. To'g'ri chiziq va unda yotmaydigan nuqta, hamda ikkita kesishuvchi to'g'ri chiziqlar orqali bitta va faqat bitta tekislik o'tadi.

Isbot. Birinchi tasdiqni isbotlaymiz. B nuqta a to'g'ri chiziqqa tegishli emas deb faraz qilaylik. 1_3 aksiomaga ko'ra a to'g'ri chiziqda kamida ikkita nuqta mavjud. Bu nuqtalarni r va Q deb belgilaylik. 1_4 aksiomaga ko'ra V, R, Q nuqtalardan o'tuvchi l tekislik mavjud. 1_6 aksiomaga ko'ra a tekislik a to'g'ri chiziq orqali o'tadi. 1_5 aksiomaga ko'ra bir to'g'ri chiziqda yotmaydigan V, R, Q nuqtalardan o'tuvchi tekislik yagona ravishda aniqlangani uchun a to'g'ri chiziq va B nuqtadan o'tuvchi Q dan boshqa tekislik mavjud emas.

Endi ikkinchi tasdiqni isbotlaymiz. a va b to'g'ri chiziqlar S nuqtada kesishadi deb faraz qilaylik. 1_3 aksiomaga ko'ra a to'g'ri chiziqda S dan farqli A nuqta, b to'g'ri chiziqda S dan farqli V nuqta mavjud. A, V, S nuqtalar bir to'g'ri chiziqda yotmaydi. 1_4 aksiomaga ko'ra A, V, S larning har biridan o'tuvchi a tekislik mavjud. 1_6 aksiomaga ko'ra p tekislik a va b to'g'ri chiziqlardan o'tadi. 1_5 aksiomaga ko'ra bu tekislik yagona.

1.4 —teorema isbotlandi.

1.5—teorema. Har qanday tekislik bir to'g'ri chiziqda yotmaydigan kamida uchta nuqtani o'z ichiga oladi.

Isbot. 1_8 aksiomaga ko'ra Q tekislikda yotmaydigan V nuqta mavjud. 1_3 aksiomaga ko'ra AV to'g'ri chiziqdan tashqarida S nuqta mavjud. A nuqta ABC va a tekisliklarning umumiy nuqtasi ekanidan, 1_7 aksiomaga ko'ra ularning yana kamida bitta umumiy D nuqtasi bor. Shunday qilib, Q tekislikda A nuqtadan tashqari D nuqta ham mavjud. 1_8 aksiomaga ko'ra LVP tekislikda yotmaydigan E nuqta mavjud. 1_4 aksiomaga ko'ra ABE tekislik mavjud, 1_7 aksiomaga ko'ra, ABE va Q tekisliklar A dan farqli umumiy F nuqtaga ega (1_6 aksiomaga ko'ra F nuqta AV to'g'ri chiziqda yotmaydi). F vas nuqtalar AV to'g'ri chiziqda yotmasligidan, 1.4— teoremaning ikkinchi tasdig'iga ko'ra ular ABF va ABD tekisliklarning umumiy nuqtalari bo'la olmaydi, bu yerdan D va F nuqtalar har xil ekani kelib chiqadi. Shunday qilib, Q tekislikda uchta A, D, F turlicha nuqtalar mavjud ekan. 1.5 —teorema isbotlandi.

ADABIYOTLAR

1. P.S.Aleksandrov „Лекции по аналитической геометрии” Москва «Наука»1980 г
2. Dadajonov N.D. , Jurayev M.SH. Geometriya. 1-qism Toshkent. 1995 y
3. Yunusova D.I. Bo'lajak matematika o'qituvchisini innovatsion faoliyatga tayyorlash nazariyasi va amaliyoti: ped.dok.diss. – T.: TDPU. 2012. – 140 b.
- 4 Nafasov, G., Xudoyqulov, R., & Usmonov, N. (2023). DEVELOPING LOGICAL THINKING SKILLS IN MATHEMATICS TEACHERS THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 1(5 Part 2), 229-233.
5. Nafasov, G. A. (2023). Determination of the Low Pressure Zone of the Water Conducting Tract of Reservoirs. *Genius Repository*, 25, 28-32.

6. Zakirova F.M., Xurramov B.S. Masofaviy o'qitish tizimini rivojlantirishdagi muammolar va yechimlar xususida tahliliy mulohazalar. // Современное образование. – М., 2021. – № 1 (98). – С. 19.

4. 5. Nafasov, G. A. (2023). Determination of the Low Pressure Zone of the Water Conducting Tract of Reservoirs. *Genius Repository*, 25, 28-32.

6. Nafasov, G. A. (2023). Determination of the Low Pressure Zone of the Water Conducting Tract of Reservoirs. *Genius Repository*, 25, 28-32.

7. Nafasov, G. (2019). Model of Developing Cognitive Competence at Learning Process Elementary Mathematics. *Eastern European Scientific Journal*, (1).

8. Abdurashidovich, N. G., Tagayevich, D. U., & Mirkomilovich, K. M. (2023). The Use of Technology in The Approximation of Didactic Units in The Training of Future Mathematics Shooters on The Basis of Innovative Education. *Genius Repository*, 24, 34-38.

9. Abdullayeva, B. S., & Nafasov, G. A. (2019). Current State Of Preparation Of Future Teachers Of Mathematics In Higher Education Institutions. *Bulletin of Gulistan State University*, 2020(2), 12-17.

10. Abdurashidovich, N. G. (2021). Theoretical Basis Of Development Of Cognitive Competence Of Students Of Higher Education Institutions In The Process Of Teaching Elementary Mathematics. *European Journal of Molecular and Clinical Medicine*, 8(1), 789-806.

11. Abdurashidovich, N. G., Muzaffarovich, U. N., Qosim o'g'li, N. Q., & Olimjon, D. (2023). Design in the process of teaching mathematics and its teaching methodology. *Genius Repository*, 25, 23-27.

12. Abdurashidovich, N. G. REQUIREMENTS FOR THE SELECTION OF CONTENT FOR HEURISTIC TASKS IN THE TEACHING OF ELEMENTARY MATHEMATICS TO FUTURE MATHEMATICS TEACHERS.

13. Abdurashidovich, N. G. REQUIREMENTS FOR THE SELECTION OF CONTENT FOR HEURISTIC TASKS IN THE TEACHING OF ELEMENTARY MATHEMATICS TO FUTURE MATHEMATICS TEACHERS.

**MOBIL TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA MALAKA OSHIRISH
TIZMINI TASHKIL ETISH MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI**

Nomozov Hamdam Sobir o'g'li

Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti
+99897954500 hamdambeknomozov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda zamonaviy ta'limda mobil ta'limdan foydalanishning asosiy yo'nalishlari ko'rib chiqiladi. Qayd etilishicha, mobil telefonlar rahbar va pedagog kadrlar o'rtasida keng tarqalgan va ulardan foydalanish imkoniyati mavjud bo'lishiga qaramay, mahalliy oliy o'quv yurtlarida mobil ta'lim sust taqsimlangan. Ta'limda mobil ta'limdan foydalanishning asosiy afzalliklari va ayrim kamchiliklari tahlil qilingan. Mahalliy universitetlarning o'quv jarayoniga mobil ta'limni joriy etishning o'ziga xos shakllari va usullari keltirilgan. Rahbar va pedagog kadrlarning mashg'ulotlarda mobil texnologiyalardan foydalanishga texnik va psixologik tayyorgarligi tahlil qilinadi. Ko'pchilik zamonaviy universitet rahbar va pedagog kadrlari ta'limda mobil texnologiyalardan foydalanishga texnik va psixologik jihatdan tayyor va mobil ta'lim salohiyatidan samaraliroq foydalanishning yangi imkoniyatlarini ko'rib chiqish zarurligi haqida xulosa qilinadi.

Abstract. This thesis examines the main directions of using mobile education in modern education. It is noted that despite the fact that mobile phones are widespread among students and there is an opportunity to use them, mobile education is poorly distributed in local higher educational institutions. The main advantages and some disadvantages of using mobile education in education are analyzed. Specific forms and methods of introducing mobile education into the educational process of local universities are presented. The technical and psychological readiness of students to use mobile technologies in training is analyzed. It is concluded that most modern university students are technically and psychologically ready to use mobile technologies in education, and it is necessary to consider new opportunities for more effective use of mobile learning potential.

Kalit so'zlar: Mobil texnologiya, mobil trening, mobil ilova, mobil telefonlar, o'quvchilarning mobil ta'limga tayyorligi.

KIRISH

Mobil texnologiyalarning rivojlanishi va ta'limda mobil ilovalarning takomillashtirish. Ko'pgina oliy o'quv yurtlari rahbar va pedagog kadrlar uchun so'nggi yillarda ta'limda mobil texnologiyalar tadqiqot va qo'llashning eng muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bugungi kunda mobil ta'lim ko'plab ta'lim tashkilotlari uchun strategik mavzudir. Yangi turdagi qurilmalar va ilovalarning paydo bo'lishi ta'limni o'zgartirmoqda, shuning uchun mobil ta'limdan to'g'ri foydalanish va amalga oshirishni ta'minlash muhim

ahamiyatga ega. So‘nggi bir necha yil ichida simsiz aloqaning takomillashtirilishi, mobil qurilmalarning funksional imkoniyatlarining kengayishi va ochiq kodli mobil platformalarning paydo bo‘lishi tufayli mobil texnologiyalar jadal rivojlanmoqda.

Hozirda mobil qurilmalardan nafaqat aloqa, balki ta‘lim va tijorat maqsadlarida ham foydalanish mumkin. Ushbu imkoniyatlarni qo‘llab-quvvatlash uchun turli xil mobil ilovalar ishlab chiqilmoqda [1]. Zamonaviy dunyoda mobil texnologiyalar inson faoliyatining tobora ko‘proq sohalarini qamrab oladi. Mobil ilovalar bozorining o‘sishi hayotning barcha jabhalarida, shu jumladan ta‘lim sohasida ham mobil tizimlardan foydalanish muhimligi, qulayligi va dolzarbligini ko‘rsatadi.

Ta‘limda axborot texnologiyalari instituti “Mobil ta‘lim” nomli maqolani e‘lon qildi, unda mobil qurilmalar zamonaviy o‘quvchilar hayotida muhim o‘rin tutishi qayd etildi. Hayotimiz haqiqati shundan iboratki, barcha o‘quvchilar darslik, o‘quv qo‘llanma, lug‘at kabi qog‘ozdagi an‘anaviy manbalardan o‘qish uchun foydalanishadi va deyarli barcha ma‘lumotlarni internetdan, bevosita kompyuter, mobil qurilmalar yordamida tortib olishadi.

Bu yuqoridagi qurilmalardan keng foydalanish zamonaviy o‘qituvchilarga ularni o‘quv jarayonini tashkil etishda yordamchi qilish imkonini beradi. Shunday qilib, m-Learning [2] deb nomlangan texnologiya mavjud edi. Shuningdek, YuNESKO hujjatlarida “Global ta‘lim-2030” dasturi doirasida shunday deyilgan: “Keyingi o‘n besh yil ichida mobil ta‘lim umumiy ta‘lim bilan yanada integratsiyalashib, rasmiy va norasmiy ta‘lim tizimida umumiy hodisaga aylanadi. Texnik va pedagogik innovatsiyalar o‘rtasidagi takomillashtirilgan bog‘liqlik sifatida mobil texnologiyalar umumiy ta‘lim ekotizimida aniq belgilangan.

Mobile Learning yoki m-Learning - bu pedagogika va ta‘limning yangi yo‘nalishi bo‘lib, u mobil texnologiyalar yordamida tashkil etiladi.

M-learning - bu mobil qurilmalar yordamida istalgan qulay vaqtda va istalgan joyda o‘rganish, bu ta‘rifni D. Kisko [3] bergan. V.Kuklevning qayd etishicha, mobil o‘qitish vaqt va joydan qat‘iy nazar, fanlararo va modulli yondashuvlarning pedagogik asosda maxsus dasturiy ta‘minotdan foydalangan holda mobil vositalar mavjudligini ta‘minlaydi.

Texnologiyaning o‘quvchilar tushunchasiga ta‘siri haqidagi xuddi shu fikrni . Xortonning bayonotlarida ham kuzatish mumkin, unda mobil ta‘limga quyidagi ta‘rif berilgan: “mobil ta‘lim – bu mobil texnologiyalar va qurilmalar yordamida bilim va ko‘nikmalarni egallashdir. har qanday joy va vaqt va bu rahbar va pedagog kadrlarning xatti-harakati to‘g‘rilaydi ”[4].

Yuqoridagi ta‘riflarni tahlil qilib, shuni xulosa qilamizki, mobil ta‘lim - bu o‘quv jarayonini tashkil etish shakli bo‘lib, unda jamiyat tomonidan ma‘lumotlarni to‘plash, saqlash, qayta ishlash va tarqatish uchun

foydalaniladigan mobil vositalar, usullar, qurilmalar va ishlab chiqarish jarayonlari o'quv vazifalariga erishish uchun foydalaniladi.

Mobil ta'limni o'rganish deb atash mumkin, bunda talaba o'quv resursidan doimiy foydalanish imkoniyatiga ega, shuningdek, o'qituvchi va sinfdoshlar bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega.

OTMlarning o'quv jarayonida mobil ta'lim texnologiyasidan foydalanish quyidagilarga imkon beradi: test tizimi yordamida rahbar va pedagog kadrlar bilimi darajasini nazorat qilishni ta'minlash, shu orqali test va test sinovlarini soddalashtirish; ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari o'rtasida ta'lim mazmuni almashinuvini jadallashtirish, bu o'qituvchilar va rahbar va pedagog kadrlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jarayonini soddalashtirish; ta'lim jarayonini faollashtirish va modernizatsiya qilish; taqsimlangan mobil ta'lim resursini tashkil etish; ta'lim jarayoni ishtirokchilarining joylashgan joyini ko'rsatmasdan, rahbar va pedagog kadrlarning birgalikdagi faoliyatini ta'minlash; mobil qurilmadan o'quv, uslubiy va ma'lumotnomalarning shaxsiy kutubxonasi sifatida foydalanish; rahbar va pedagog kadrlar bir-biri bilan va o'qituvchi bilan muloqot qilishlari va katta monitorlar orqasiga yashirinishlari mumkin; auditoriyaga bir nechta mobil qurilmalarni joylashtirish bir nechta stol kompyuterlariga qaraganda ancha oson; cho'ntak yoki planshet shaxsiy kompyuterlar va elektron kitoblar engilroq va fayllar, qog'ozlar va darsliklar va hatto noutbuklarga qaraganda kamroq joy egallaydi. Stilus yoki sensorli ekran yordamida tanib olish klaviatura va sichqonchani ishlatishdan ko'ra ko'proq ingl. Vazifalarni almashish va hamkorlik qilish imkoniyati mavjud; rahbar va pedagog kadrlar va o'qituvchilar elektron pochta orqali matn jo'natishlari, guruh ichidagi uzatish moslamalarini kesish, nusxalash va joylashtirish, simsiz tarmoq, masalan, Bluetooth yordamida bir-birlari bilan ishlashlari mumkin; mobil qurilmalardan istalgan joyda, istalgan vaqtda foydalanish mumkin, yangi texnik vositalar, masalan, mobil telefonlar, gadjetlar, o'yin qurilmalari va boshqalar ta'limga qiziqishini yo'qotgan pedagoglarni o'ziga jalb qiladi; Mobil qurilma orqali M-learning o'rganishni individual qiladi rahbar va pedagog kadrlar o'zlarining qiziqishlarini hisobga olgan holda trening mazmunini tanlash imkoniyatiga ega; moslashuvchanlik, mobil qurilmalar yordamida ma'lum bir ish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarga darhol kirish ish unumdorligini oshirishi talab bo'yicha kontentni zudlik bilan ta'minlash m-ta'limning xarakterli xususiyatlari hisoblanadi. [5] Bu foydalanuvchilarga ish soatlaridan keyin ta'lim olish imkonini beradi va birgalikda o'qitish va o'zaro hamkorlik qilish uchun sharoit yaratadi; Ta'limdagi so'nggi tendentsiya aralash ta'limdir, bu jarayonni yanada samarali va qiziqarli qiladi. U o'rganishning turli shakllarining afzalliklarini o'zida mujassam etgan va interfaol o'quv muhitidagi o'quv kontekstiga eng mos keladi. Mobil ta'lim boshqa turlar bilan birlashtirilishi mumkin, bu esa talabalar uchun interaktiv ta'lim

muhitini ta'minlaydi. Shu bilan birga, quyidagi mumkin bo'lgan kamchiliklarni ham qayd etish kerak: kichik mobil ekranlar qo'lda shaxsiy kompyuterlar ko'rsatilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarning miqdori va turini cheklaydi; mobil telefonlarni saqlash uchun cheklangan imkoniyatlar mavjud; Batareyalar muntazam ishlashi kerak, aks holda ma'lumotlar yo'qolishi mumkin; ular ish stoli kompyuterlariga qaraganda ancha ishonchli bo'lishi mumkin (garchi planshet shaxsiy kompyuterlari bu muammoni hal qiladi); grafika bilan ishlash, ayniqsa mobil telefonlar bilan ishlash qiyin, garchi 3G va 4G oxir-oqibat bunga imkon beradi; bozor, ayniqsa mobil telefonlar uchun tez o'zgarib bormoqda, shuning uchun qurilmalar juda tez eskirib ketishi mumkin; o'tkazish qobiliyati simsiz tarmoqlardan foydalanuvchi ko'p sonli foydalanuvchilar bilan kamayishi mumkin.[6] Shu munosabat bilan mobil ta'lim sohasining kelajagi mobil aloqa ishlab chiqaruvchilari, mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi provayderlar, shuningdek, kadrlar tayyorlash sohasi mutaxassislarining birgalikdagi sa'y-harakatlarini taqozo etadi. Hozirgi vaqtda mobil ta'limning quyidagi toifalari mavjud: Texnologiyaga asoslangan mobil ta'lim - ba'zi o'ziga xos texnologik innovatsiyalar texnik imkoniyatlar va pedagogik imkoniyatlarni namoyish qilish uchun akademik muhitda joylashgan; miniatyura, lekin portativ elektron ta'lim (Miniature, but portable e-learning) - mobil, simsiz texnologiyalar va portativ texnologiyalar an'anaviy elektron ta'lim vositalarida allaqachon qo'llaniladigan yondashuvlar va echimlarni takrorlash uchun ishlatiladi. Masalan, virtual o'quv muhiti (VLE) kabi ba'zi elektron ta'lim texnologiyalarini mobil texnologiyalarga o'tkazish.

[7]

XULOSA

Kelajakda oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari va talabalari ma'lum bir joyda va vaqtda o'qish va ta'lim olish imkoniyati bilan cheklanib qolmasligi kerak. Yaqin kelajakda mobil qurilmalar va simsiz texnologiyalar sinf ichida ham, tashqarisida ham o'rganishning kundalik qismiga aylanadi. Zamonaviy talabalarning aksariyati ta'limda mobil texnologiyalardan foydalanishga texnik va psixologik jihatdan tayyor va mobil ta'lim salohiyatidan yanada samarali foydalanishning yangi imkoniyatlarini ko'rib chiqish zarur. Bu muammoni hal etish oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayoniga mobil ta'lim strategiyalari, shakl va usullarini tatbiq etish bo'yicha ta'lim, ilmiy-tadqiqot va metodik ishlar bo'yicha olimlar va o'qituvchilardan tashkiliy sa'y-harakatlarni talab etadi.

Shunday qilib, bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik o'zaro munosabatlarga tayyorlashda mobil pedagogik texnologiyalar va uslublar universitetning o'quv jarayoniga osonlik bilan kiritiladi. Ular kelajakdagi o'qituvchilarni ham, pedagogik profil talabalarini ham, malaka oshirish kurslari talabalarini ham ijtimoiy va pedagogik hamkorlikka tayyorlashda qo'llanilishi mumkin.

Mobil texnologiyalar va usullarni o'zlashtirish o'qituvchining kasbiy yo'naltirilgan shaxsini shakllantirishga yordam beradi, u muloqotga, o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarga, maktab mikrosotsiumidagi vaziyatga ta'sir ko'rsatishga qodir, yordamni, vositachilikni tashkil qiladi, nizolarda moderator bo'lib ishlaydi. maktab o'quvchilari o'rtasida ijtimoiy-pedagogik o'zaro munosabatlarning zarur bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bazhenov RI Intellektual axborot texnologiyalari. Birobidjan: Sholem Aleyxem nomidagi PDU, 2011.176 b.
2. Bluestein M. MonoTouchni o'rganish. C # va yordamida iOS ilovalarini yarating. NET -Litr, 2014 yil.
3. Goloshchapov AL Google Android 3. platformasida mobil qurilmalarni dasturlash. - BHV-Peterburg, 2011 yil.
4. Grigsby D., Chernik V., Gardner LD Mobil qurilmalar uchun veb-saytlarni ishlab chiqish. - 2013 yil.
5. Kasyanova EV Masofaviy ta'limni dasturlashni qo'llab-quvvatlashning moslashuvchan usullari va vositalari // Novosibirsk, ISI SB RAS, 2007. p. 170.
6. Kuzmina NV, Shmeleva EA Universitetning kasbiy ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchining innovatsion salohiyatini rivojlantirish // Rossiya Ta'lim Akademiyasi. Xalqaro akmeologiya akademiyasi. Akmeologik tadqiqotlar markazi. - 2013 yil.-- S. 16.

PEDAGOGDA FUNKSIONAL SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUMAMMO SIFATIDA

Ilyosbek Bozorbayev

*Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti,
tayanch doktorant e-mail: ibozorbayev@mail.ru Tel: +998947674121*

Abstract: Currently, the educational process is undergoing global changes. In particular, the rapid introduction of digital technologies and innovations into the education system requires a high level of functional literacy from the teacher. Therefore, this article discusses the scientific and theoretical foundations for the development of functional literacy of the teacher in the context of contextual learning and the impact of functional literacy of the teacher on the quality of education.

Keywords: functional literacy, contextual learning, quality of education, modern approaches, pedagogical competencies, problem-based learning, innovative technologies, practical knowledge.

Annotatsiya: Hozirgi zamon ta'lim jarayoni global o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Xususan, raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar ta'lim tizimiga jadal sur'atlarda kirib kelishi pedagogdan yuqori darajadagi funksional savodxonlikni talab etmoqda. Shu bois, mazkur maqolada kontekstli o'qitish sharoitida pedagogda funksional savodxonlikni rivojlantirishning ilmiy nazariy asoslari hamda pedagogning funksional savodxonligi ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatishi muhokama qiliningan.

Kalit so'zlar: funksional savodxonlik, kontekstli o'qitish, ta'lim sifati, zamonaviy yondashuvlar, pedagogik kompetensiyalar, muammoli o'qitish, innovatsion texnologiyalar, amaliy bilimlar.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchilarning funksional savodxonligi ta'lim jarayonining sifatini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Funksional savodxonlik – bu pedagogning nafaqat bilim va ko'nikmalari, balki ularni ta'lim amaliyotda qo'llash hamda uning keng qamrovli kasbiy (ilmiy) masalalar yechimini topishda foydalanish qobiliyatidir.

Asosiy qism. Funksional savodxonlik ilmiy adabiyotlarda keng ko'lamda tahlil qilingan tushuncha bo'lib, o'qituvchi tomonidan fanning nazariy asoslarini hayotiy vaziyatlarga tatbiq etish qobiliyatini anglatadi. Funksional savodxonlikka ega bo'lgan pedagoglar ta'lim oluvchilarga nafaqat dalillar va bilimlarni uzatish bilan cheklanib qolmasdan, ularni amalda qo'llash orqali muammolarga yechim topishga ham yo'naltiradi. Olib borilayotgan tadqiqot ishlari natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, funksional savodxonlik ta'lim oluvchilarda mantiqiy fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodiy yondashuvlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Funksional savodxonlik darajasi yuqori bo'lgan shaxslarda mustaqil qaror qabul qilish, jamoa bilan ishlash va hayotiy vaziyatlarga innovatsion yondashish qobiliyatlari samarali shakllangan bo'ladi.

Kontekstli o'qitish – bu ta'lim jarayonida nazariy bilimlarni hayotiy vaziyatlar orqali o'zlashtirishni ta'minlovchi pedagogik yondashuvdir. Ushbu usul o'quv materiallarini hayotiy misollar, vaziyatlar va muammolar bilan bog'lash orqali ta'lim oluvchilarni nafaqat bilim darajasini oshiradi, balki ularni real kundalik hayot sharoitlariga tayyorlaydi. A.A.Verbitskiy kontekstli o'qitishda uchta (semiotik, imitatsiya, ijtimoiy) ta'lim modeli qatnashishini ta'kidlagan. Bular:


- semiotik ta'lim modelida mavzuga oid ma'lumotlar shaxsga og'zaki yoki yozma tekst, jadval yoki grafik tarzida taqdim qilinadi. Bu ma'lumotlar ta'lim oluvchi tomonidan mustaqil o'zlashtiriladi va yakuniy xulosa so'zli (yoki yozma) ko'rinishda bayon qilinadi;

- imitatsiya ta'lim modelida mavzuiga oid ma'lumot nazariy axborot ko'rinishida taqdim qilinadi. Ta'lim oluvchidan berilgan axborotni tahlil qilinishi va berilgan topshiriqqa mustaqil qaror qabul qilinishi kutiladi;


– ijtimoiy ta'lim modeli – bu kasbiy faoliyatning bir qismi bo'lib, talabalarning birgalikdagi faoliyat shakllanib, berilgan odatiy muammoli vaziyat yoki ma'lumotlar tahlil qilinadi va ular berilgan ma'lumotlarning amaliy ahamiyatini tushunishi va uning bajarilishi quyidagi faoliyatlar orqali qabul qilinadi: referat, loyiha ishi, tadqiqot ishini bajarishi shaklida [1].

Mazkur g'oyaga ko'ra shaxsning ta'lim muassasasida ta'lim olish faoliyati mazmunan uning kelgusi kasbiy faoliyatiga bilan uzviy bo'lgan o'quv muammoli vaziyatlar yug'indisidan iborat. Shu bois, ijtimoiy ta'lim modeliga ko'ra pedagogda funksional savodxonligini rivojlantiruvchi kontekstli o'qitish hal qiluvchi rol o'ynaydi va bu jarayonda pedagog o'zining amaliy bilim va ko'nikmalaridan foydalanib, o'quvchilarga ta'limni kundalik hayot ehtiyojlari bilan bog'lashni namoyish etadi.

Ta'lim sifatini oshirishning asosiy omillaridan biri pedagoglarning funksional savodxonligini oshirish bilan bog'liqdir. Funksional savodxonlikka ega pedagoglar o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi, bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi [2]. Pedagogni kasbiy rivojlantirishga qaratilgan funksional savodxonlik kompetensiyalari va uning funksiyalari 1- va 2-rasmlarda keltirilgan.



1-rasm. Funksional savodxonlik kompetensiyalari



2-rasm. Funksional savodxonlikning asosiy funksiyalari

Zamonaviy ta‘lim jarayonida funksional savodxonlikning rivojlanishida raqamli texnologiyalarning o‘rni katta. Raqamli ta‘lim texnologiyalari pedagoglarga yanada kengroq imkoniyatlar yaratadi va o‘quvchilarning ta‘lim jarayonidagi faolligini oshiradi. Pedagoglar funksional savodxonlikni rivojlantirish uchun zamonaviy o‘qitish texnologiyalaridan foydalanib, turli interaktiv vositalar yordamida kontekstli o‘qitishni takomillashtirishi mumkin. Masalan, simulyatsiya, raqamli laboratoriyalar va ta‘limiy dasturlar o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim vositalar bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa va tavsiyalar: Pedagogning funksional savodxonligi zamonaviy ta‘lim jarayonining sifatini oshirishda asosiy omil hisoblanadi. Kontekstli o‘qitish

va funksional savodxonlik o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, bu pedagogik yondashuv orqali o'quvchilarni amaliy hayot sharoitlariga tayyorlash mumkin. Shu sababli, ta'lim jarayonida pedagoglarning funksional savodxonligini rivojlantirishga alohida e'tibor berilishi zarur, chunki bu ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning amaliy bilimlarini mustahkamlash uchun kalit hisoblanadi.

1. Pedagoglarning funksional savodxonligini oshirish uchun doimiy ravishda malaka oshirish dasturlari tashkil etilishi va ularda raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha o'quvlar o'tkazilishi lozim.

2. Ta'lim jarayonida kontekstli o'qitishning amaliyotini kengaytirish uchun muammoli o'qitish usullarini keng qo'llash tavsiya etiladi, chunki bu usullar o'quvchilarning ijodiy va analitik ko'nikmalarini rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Вербицкий А.А. Контекстное обучение: теория и технологии. Москва: Изд-во МГУ. -2010
2. Маркова А.К. Формирование профессиональной функциональной грамотности учителей. Педагогика, 2018. 5(2), – 45-53.

ENHANCING FOREIGN LANGUAGE TEACHING IN PROFESSIONAL DEVELOPMENT: INNOVATIONS AND STRATEGIES FOR QUALITY IMPROVEMENT

Akhbutayeva Feruza Gofurovna

Doctoral student of Institute for Retraining and Professional Development of Higher Education Personnel axbutayevaf@mail.ru

Abstract. This article deals with problems of teaching foreign languages in professional development system. It is devoted to the analysis of the specifics of linguistic teaching, the directions, types and forms of foreign language teaching which raising it to a new level of quality, introducing advanced pedagogical and information technologies to it.

Абстракт. В данной статье рассматриваются проблемы преподавания иностранных языков в системе повышения квалификации. Оно посвящено анализу специфики лингвистического обучения, направлений, видов и форм обучения иностранному языку, которые поднимают его на новый уровень качества, внедряют в него передовые педагогические и информационные технологии.

Keywords: foreign languages, competence, linguistics, four language skills, self-development, professional development.

Ключевые слова: иностранные языки, компетентность, лингвистика, четыре языковых навыка саморазвитие, профессиональное развитие.

Introduction

Nowadays, modernizing the educational process in higher education institutions, developing the professional competence of teachers in improving the quality of the personnel training system, arming them with modern professional knowledge, qualifications and skills in the field, independently and creatively using scientific and technical innovations and development of skills to solve prospective tasks is considered one of the important tasks. Because globalization and rapid development of science and technology require rapid adaptation of specialists to modern requirements and professional innovations. This, in turn, forms a responsible attitude to one of the types of continuous education - the improvement of personnel qualifications and their retraining.

Significant changes are taking place in the education system of Uzbekistan. From this point of view, we started researching pedagogical problems within the topic by studying literature. During the research, the process of studying the literature made it possible to find out which aspects of the pedagogical problems of improving the lexical competence of pedagogues have been well resolved, and which issues have not been resolved.

The field of linguistics is one of the fields of science that many people are interested in. Linguistics is a field of science that talks about the ins and outs of language with its various branches. Phonology is a basic branch of linguistics that

discusses the problem of language sounds. Morphology is the second branch of linguistics that discusses the ins and outs of words and their formation. Syntax is a branch of linguistics that discusses the problems of phrases, clauses, and sentences. Discourse is also a branch of linguistics that discusses the paragraph level. Other branches of linguistics, namely semantics which discusses the issue of meaning, pragmatics which discusses meaning in context, and semiotics which discusses the meaning of signs. In addition, there are also branches of linguistics that are a combination of other branches of science, such as sociolinguistics which is a combination of linguistics and sociology, neurolinguistics which is a combination of linguistics and neuro, psycholinguistics which is a branch of linguistics from a combination of linguistics and psychology, lexicography which studies matters related to dictionary making, and there are still many more branches of science in linguistics (Yang & Hu, 2022).

Linguistic competence is needed by every individual because this skill is a model for developing ones' intellectual, character, and social abilities. Therefore, one should be able to improve the four language skills through language learning, namely speaking, listening, reading, and writing skills. Speaking and writing skills are productive skills. Listening and reading skills are receptive skills. To support improving linguistic competence, the learning design must be related to students' language intelligence (Cai et al., 2021; Allami & Naeimi, 2011; Bender, 2005). Gardner suggests that there are eight types of multiple intelligences, namely: verbal linguistic intelligence, logical mathematical intelligence, visual-spatial intelligence, musical-rhythmic intelligence, bodily-kinesthetic intelligence, interpersonal intelligence, intrapersonal intelligence, and naturalistic intelligence. Of the eight bits of intelligence, the most related to language skills is verbal-linguistic intelligence.

Harakatli o'yinlarining barchasi bolalarning organizmlariga yaxlit ta'sir o'tkazadi. Shuning uchun ham o'yinlarga umumiy jismoniy ta'sir ko'rsatuvchi sifatida qarash lozim. Bironta o'yin yo'qki, u ayrim jismoniy sifatni rivojlantiruvchi vosita bo'lib hisoblanmasin. Masalan, "do'ppi kiyishda kim g'olib" milliy o'yinida faqat chaqqon bo'libgina qolmay, balki epchil, sezgir bo'lishga ham da'vat etiladi.

Harakatli o'yinlariga asoslangan jismoniy madaniyat estetik tarbiyani amalga oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Harakatli o'yinlarini bajarish jarayonida estetik zavqni idrok qilish va o'ziga singdirishni, go'zallik, nafosat, ma'nodorlik, qad-qomat, liboslar bejirimligi, o'z atrofidagi barcha narsalarni tuShunish, to'g'ri qadrlashni rivojlantirish, estetikaga va o'z xulq-atvoriga gard yuqtirmaslikka

bo'lgan moillikni, qilayotgan ishi, aytayotgan gapi va barcha hatti-harakatida qo'rslik, dag'allikka aslo yo'l qo'yilmaslikni rivojlantirish lozim bo'ladi.

Harakatli o'yinlar bilan shug'ullanish jarayonida mehnat tarbiyasi amalga oshiriladi. Bolalarning salomatligi yaxshilanadi, ularda harakat malakalari shakllanadi, mehnat faoliyati uchun zarur bo'lgan jismoniy fazilatlar rivojlanadi. Bolalarni mehnatga tayyorlashda jismoniy madaniyatning, jumladan, xalq milliy o'yinlarining tutgan o'rnini ularga ta'Shuntirish va bu ta'Shunchani ularning ongida shakllantirish g'oyat muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilar jismoniy tarbiyasining vazifalari doimo, jumladan, milliy xalq o'yinlarini o'rganish va o'rgatish jarayonida ham uyg'un holda hal etiladi. Bu vazifalar butun jismoniy madaniyat tizimining bolalarga ta'sir etishi tufayligina muvaffaqiyatli bajarilishi mumkin. buning uchun maktabning butun pedagogika jamoasi birgalikda ahil xarakat qilishi, maktabda mashg'ulotlarni tashkil etishning turli shakl va usullaridan, ayniqsa, milliy xalq o'yinlarida, barcha vositalari yaxlitligi (kompleksi) dan foydalanish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Safarov O. O'zbek xalq milliy o'yinlari. – T.: O'qituvchi, 1994. –216 b.
2. Salimov G'.M. Milliy harakatli o'yinlar asosida 7-10 yoshli o'quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish samaradorligi. Ped.f.n. dis – T.: O'zDJTI, – 2007. – 147 b.
3. Salimov G'.M., Abdullaev Sh.J. O'zbek xalq o'yinlari - yoshlar sog'lig'ining tayanchi. // “Barkamol avlodini tarbiyalashda jismoniy tarbiyaning roli”. Respublika ilmiy - amaliy anjuman tezislar to'plami. – Buxoro: 2002. – 163–165 b.
4. Soliev X. Ma'naviy merosimizning xalqimiz ravnaqidagi ahamiyati. // “Barkamol avlodni tarbiyalashda jismoniy tarbiyaning roli”. Respublika ilmiy anjuman. – Buxoro: 2002. – 120–121-b.

КЛАСТЕР УСУЛИДА ҲАРАКАТЛИ ЎЙИНЛАРНИ КЛА ОЛИБ БОРИШ

Жумаев А.Т.

*ЧДПУ Жисмоний маданият ва спорт
кафедраси катта ўқитувчиси*

Аширбоев Х.И

“Жисмоний маданият” йўналиши талабаси

Аннотация:

Ушбу мақолада бошланғич синф ўқувчиларида ҳаракатли ўйинларни кластер усулида олиб бориш.

усуллари ёритилган. Соғлом авлод учун давлат дастури “Алпомиш ва Барчиной” махсус тестларининг ишлаб чиқиши хамда уларнинг ҳаётга тадбиқ қилиниши жисмоний тарбия ва спорт тадбирларини янада ривожлантириш йўллари кўрсатилади

Таянч сўзлар: халқ-ўйинлари қадиршунос донишманд, “Алпомиш” ва “Барчиной” махсус тестлари.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются методы проведения физического воспитания двигательных игр - начинающих студентов кластерным способом. Разработка специальных тестов государственной программы "Алпомиш и Барчиной" для здорового поколения, а также их реализация указывают пути дальнейшего развития физкультурно-спортивной деятельности.

Ключевые слова: Народно-патриотический мудрый, мудрый “Алпомыш” и “Барчиной” специальные тесты.

SUMMARY

Us this article covers the methods of carrying out the physical education of moving games - beginner snif students in a cluster way. The development of special tests of the state program "Alpomish and Barchinoy" for the healthy generation, as well as their implementation, indicate ways of further development of physical education and sports activities.

Key words: People's patriotic wise, wise Alpomysh and Barchinoy special tests, etc.

Маълумки халқ донишмандлиги ва одобномасининг нодир соҳаси бўлган ўзбек халқ педагогикаси ижтимоий ва маиший-ахлоқий ҳаётнинг барча томонларини халқ оғзаки ижоди қадиршунослик удумшунослиги ва маросимшунослигининг етакчи йўналишларини диний-ахлоқий таълимотни камраб олганлиги билан характерланади. У халқимизнинг асрлар довомида тўплаган бой тажрибаларини ижтимоий-сиёсий жисмоний етуклик борасидаги

карашларини ахлоқий фалсафий маърифий эстетик маънавий хулосаларини лўнда ва донишмандона таризда ифодалайди.

Халқимизнинг миллий ҳаракатли ўйинлари узоқ асрлар давомида шакилланган.

Ўзбек олимаси: Р.Мавлонова такидлаганидек “Боланинг қандай шахс сифатида камол топишида халқ педагогикаси муҳум аҳамият касб этади. Халқ педагогикасида тарбиянинг майда-чуйдаси яъни бирламчиси-иккиламчиси бўлмайди ҳамма нарса ҳисобга олиниши ҳеч бир соҳа четга қолмаслиги айтиш чокда тарбиянинг ниҳоятда нозик инжиқ мураккаб томонлари эътиборга олинган ҳолда етти ўлчаб бир кесишга амал қилинади. Халқ педагогикасининг ўзига хослиги шундаки у бугун ва эртани ўйлаб иш тутади яъни ўтмишни унитмаслик бугуннинг қадрига етишлик келажакка умид асосида тарбия олиб борилади”.

Дарҳақиқат ёшларнингана шу жарёнларга қўшилиш характери ва йўналишига уларнинг билимлари тарбияланганлиги жисмонан ва маънан соғломлиги катта таъсир кўрсатади шу билан бирга мақсади Ватан равнақи юксалтиришга қаратилган сиёсий ва иқтисодий ислохатлар амалга оширидиб борган сари ёшларнинг жамиятни қуришда қатнашиш шакиллари ҳам такомиллашиб ва қўпайиб борадики бу ҳам объектив таризда юз беради.

Ўзбек халқининг миллий хусусиятлари ахлоқийлик ўз-ўзини англаш миллий туйғу миллий маданият миллий кийиниш ва юриш-туришда ўз аксини топадики халқ миллий ўйинларини ўрганишда буларни четлаб ўтиш мумкин эмас. Ўзбек оилалари тузулишига қуйидаги сифатлар хосдир: Кўп болалик меҳнатда жисмонан чиниқиш оилада отанинг бош тарбиячи сифатида номаён бўлиши қариндошчилик бир неча авлодларнинг биргаликда яшаши. Шу боис Республикаимизнинг шаҳар ва қурғонларининг аҳолиси ўртасидаспартикадалар халқ миллий ўйинларини ўтказилиши усиб келатган ёш авлодга ахлоқий фазилатлар :матонат ва қаттият сабр ва чидам ҳамдартлик меҳр-оқибат кабиларни сингдиришга замин яратади. Бунда спортнинг кураш арқон тортиш тош қўтариш футбол енгил атлетика каби турлари оммавий тус олмоқда.

Аҳолининг жисмонан бақувват бўлиши ва узоқ умр кўриши соғлом турмуш маданияти билан белгиланади. Бу борада Ўзбекистон Президентининг “Ўзбекистонни чинакам мустақиллик эришишдан иборат ўз йўли Республикани ривожлантиришнинг асосий ўзига хос хусусиятлари шарт-шароитларни ҳар томанлама ҳисобга олишга асосланади. Аввало у аҳолининг миллий тарихий турмиш ва тафаккури тарзидан халқ ананалари ва урф одатларидан келиб чиқади деган мулоҳазалари эътиборга лоикдир. Соғлом авлод учун орденини таъсис этилиши жисмоний тарбия ва спорт тўғрисидаги

конун Соғлом авлод учун давлат дастури “Алпомиш ва Барчиной” махсус тестларининг ишлаб чиқилиши ҳамда уларнинг ҳаётга тадбиқ қилиниши жисмоний тарбия ва спорт тадбирларини янада ривожлантириш маъсулятини юклайди. Маълумки ахлоқ хулқ ва атвор сўзлари арабча бўлиб улар ўзбек тилида ҳам уз маъносида ишлатилади. Ахлоқ ижтимоий онг шакилларида бири ижтимоий тартиб қоида булиб бу тартиб қоида ижтимоий ҳаётнинг истисносиз ҳамма соҳаларида кишиларнинг хатти ҳаракатларини тартибга солиш функциясини бажаради. Ахлоқ бизнинг ҳаётимизда ва онгимизда фаол таъсир қилади кишилик жамиятидан номидан яхшилик ва ёмонлик адолат билан адолатсизлик меҳр билан зулм ўртасида ва инсоний муносабатлардаги мақбул ва номақбул ман этилмайдиган ва ман этиладиган ишларни хатти ҳаракатларни белгилаб беради. Инсоннинг жамиятга оилага меҳнатга бўлган муносабатларига ахлоқ намоён бўлади.

Ўрта осий халқлари ахлоқшунослик соҳасида бой анъанага эга. Ўтмиш алломаларимиз мутафакурларимиз ахлоқ ва ахлоқийлик масаласига ўз асарларига алоҳида ўрин беришган.

Қори Низомиддин бин мулла Ҳасан “илмий ахлоқ” рисоласида шундай ёзади: “Ахлоқ илми инсонларнинг яхши хулқларга чақириб ёмон хулқлардан қайтармоқ учун яхши хулқларнинг яхшилигини ёмон хулқларнинг ёмонлигини баён қиладурган билдирадурган бир илимдур”. Ҳар ким ахлоқ илмини билиб амал қилса бу дунёда азиз охиратда шарофатлик бўлур. Ахлоқли яхши кишилар душманларини ҳам осонлик билан ўзларига дуст қилурлар. Инсонларнинг ҳайвонлардан фарқлари айримлари ақл илм сўз адаб фикр ахлоқ иладур. Шунинг учун дунёда “чин инсон бўлурман” деган кишиларга бу илми ўқимоқ ахлоқ йўллариини ўрганмоқ яхши хулқ қайси ёмон хулқ қайси-билмак бир-биридан айирмоқ лозимдир. Агар бир кишининг ўзидан ишидан сўзидан бошқа кишилар озор топмасалар яхши хулқ деюлур. Агар озор топадурган бўлсалар ёмон хулқ деб аталур.

Абулла Авлоний “Туркий гулистон ёхуд ахлоқ” асарида ахлоқни ақилсиз инсонларни яхшиликка чақиргувчи ёмонликдан қайтаргувчи бир илимдур. Яхши хулқларнинг яхшилигини ёмон хулқларнинг ёмонлигини далил билан мисоллар ила баён қиладурган китобни ахлоқ дейилур. Ахлоқ илмини чуқур билиб амал қилган кишилар ўзининг ким эканлигини ер юзида нима иш қилмоқ учун юрганини билур деб ёзади. Шарқ алломалари ахлоқни иккига ажратиб тасниф этадилар. Авлоний шундай ёзади: “ахлоқ илми инсонларнинг хулқларини иккига бўлишдур. Агар нафс тарбият топиб яхши ишларни қилурға одат қилса яхшиликка тавсиф бўлиб “яхши хулқ” агар тарбиясиз ўсиб ёмон ишлар қиладурган бўлиб кетса ёмонликка тавсиф бўлиб “ёмон хулқлар” деб аталур”. Алломаларимиз фикрича ахлоқда диёнат донишмандлик

адолат ғайрат шижоат илм сабр интизом виждон ватанни севмоқ иффат ҳаё хайрихоҳлик саҳавот камтарлик садоқат муҳаббат меҳнатсеварлик каби инсоний ҳислатлар мужассамлашгандур.

Демак ҳаракатли ўйинлар -бошланғич сниф ўқувчиларининг жисмоний тарбиясида ахлоқий сифатларини шакиллаштириш воситаси сифатида муҳум аҳамият касб этади ва уларнинг хулқ-атворида этикод-имонида фикр-мулоҳазасида мушоҳада-мулоқатида номоён бўлади. Ахлоқ ижтимоий онг шакилларида бири бўлиб инсонларнинг ўзига оиласига дуст-бродарларига жамоа аъзоларига ва табиатга бўлган муносабатини тартибга солувчи хулқ одоб қонун-қоидалар мажмуидир. Ҳаракатли ўйинлар ўқувчиларнинг маънавияти ва маданияти даражасининг ўсишига замин яратиб хулқ одоб қонун-қоидаларини ахлоқ котеҗарияларини уларнингонги ҳаёти турмиш тарзига сингдириши учун муҳум таъсир кўрсатади. Ўқувчилар га ҳаракатли ўйинлар орқали ахлоқ категорияларини сингдириш.

Бошланғич сниф ўқувчиларида ҳаракатли миллий ўйинлар орқали ахлоқий тарбия бериш мазмуни асосан қўйидагиларда ўз ифодасини топади.

1. Она заминга ватанга муҳаббат ва садоқатни тарбиялаш.Бу хилдаги муносабатлар шахснинг ватанпарварлиги фуқоро етуқлиги байналминаллик каби фазилатларга акс этади унинг мақсадларида Ватан сарҳадларини ҳимоя қилиш сабот ва матонат билан мамлакат равнақини ўстириш мустақилликни мустаҳкамлаш ва ҳимоя қилишга қаратилган амалий ишларида номоён бўлади.

2. Жисмоний фазилатларни тарбиялаш. Бу фазилатлар инсонни етуқликка камолатга эргаштириш учун хизмат қилади.

3. Меҳнатга ахлоқий муносабатни тарбиялаш. Бу ахлоқий муносабат шахснинг меҳнат жарёнида номоён бўладиган юксак онгида меҳнатнинг ҳаётдаги ролини англашида хусусий важамоа меҳнатига тайёрлик меҳнатсеварликда ифодаланади.

4. Жаъмият аъзоларига атрофдаги кишиларга ахлоқий муносабат.Шахснинг жамоатчилик кўпчиллик манфаатини ўз шахсий манфаатидан устун қўйишидир.

5. Шахснинг ўзига ўз хулқига ахлоқий муносабатни тарбиялаши –бу ўқувчини онгли интизом руҳида тарбиялашдан иборат

“Боладаги кўп сифатларга оилавий тарбия орқали асос солинади шакиллантирилади .Лекин оиланинг ўзи комил инсонни тарбиялай олмайди.Умум ўрта таълим мактабларида олиб бориладиган жисмоний тарбия оилавий тарбияни тўлдиради бойитади.Фикримизча ўқувчиларни жисмоний тарбиялаш жарёнида қўйидаги асосий вазифалар ҳал этилади. Биринчи вазифа-соғлиқни мустаҳкамлаш тана аъзоларини чиниқтириш жисмоний жиҳатдан тўғри ривожланиш ҳамда унинг иш қобилиятининг ошишига таъсир

этишдир. Шунинг таъкидлаш жоизки ўқувчиларнинг соғлигини жисмоний тарбия дарслари ҳамда мактаб шароитларида ўтказиладиган махсус тадбирлар ҳисобигагина мустаҳкамлаш қийин. Чунки бу жараён ота-она тарбиячи бутун педагоглар жамоасининг иши бўлиб соғломлаштириш билан болаларни мунтазам равушда бутун йил довомида шуғуллантириш керак.

Жисмоний тарбия ўқитувчиси ҳаракатли ўйинларни ташкил қилиш ва ўтказишда қуйидагиларни назарда тутиш лозим:

1. Ўқувчиларнинг жисмоний баркамоллиги саломатлигининг яхшиланиши чиниқишига тана аъзолари ва умумий иш қобилиятининг қилиш.

2. Ўқувчиларда ҳар хил шароитларда эркин ҳаракат малакаларини ҳосил қилиш.

3. Ўқувчиларда ҳаётининг фаолиятда ёрдам берадиган ақлий ва ирадовий сифатларни таркиб топтириш.

4. Ўқувчиларни турли ўйинлар ва жисмоний машқларга қизиқтириш режимга риоя қилишга одатлантириш.

5. Ўқувчиларда ҳаракатли ўйинларни мустақил ҳолда ташкил этиш ва ўтказиш учун зарур билим ва малакалар ҳосил қилиш.

Ҳаракатли ўйинларни ўтказишда ўқитувчининг ташкилотчи ва тарбиячи сифатидаги вазифаси жуда маъсулиятлидир. Ўйинлар а ввало тўғри танланиши болаларда ўртоқларча ёрдам жамоатчилик ватанпарварлик ҳисларини ижтимоий-фойдали меҳнатга онгли муносабатни шаклланадиган таризда ташкил қилиниши ва ўтказилиши керак. Ҳаракатли ўйинлар жисмоний тарбия дарсининг асоси ҳисобланади. Шунинг учун мактаб дастурида ўйинлар бошқа матриалларга нисбатан кўпроқ ўрин олади. Бунинг сабаби шуки, дастурга киритилган ҳар хил жисмоний машқларни болалар турли ўйинлар воситасида осонроқ идрок қиладилар ва ўзлаштирадилар. Ўйин-инсон фаолиятининг кўринишларидан биридир. Мураккаб ва қизиқарли ҳодиса сифатида у турли касбдаги кишилар диққатини жалб этади. Ўйинлар катталар ҳаётида муайян ўрин тутаркан, у болалар учун муҳим аҳамиятга эгадир. Ўзбек халқ ўйинларидан “Чир айланма” “Румол ташлаш”, “Қузи” “Зағизғон” “Топар бўлсанг топа қол” “Тўқилган румол” кабилар бугунги кунда ҳам ўз аҳамиятини йўқатгани йўқ. Ўзбек халқ ўйинлари-инсон ўзлигининг намоён бўлиши унинг такомиллашув усулидир. Жисмоний тарбия дарсининг муҳим хусусиятларидан бири вақтдан унумли фойдаланишдир. Бу тадбир дарсни қизиқ ўтиш имконини беради. Ўқитувчи ўқувчиларни дарсда фаол қатнаштириш учун барча имкониятлардан фойдаланиши шунингдек ҳамма ўқувчиларга бериладиган топшириқлар бир миёрада бўлишига эришиши лозим. Бунга эса ҳар бир ўйин ва ҳар бир иштирокчи учун вақтни аниқ тақсимлаш йўли билан эришиш мумкун. Агар ўйинчилар сони жуда кўп бўлса бир неча

гуруҳ ёки камонда тузиш, топшириқни бажариш учун белгиланган вақтни қисқартириш лозим.

Ўйин пайтида унинг қоидаларини ўқувчиларни ўйиндан чиқариб юбориш эмас балки уларга штраф очколари бериш орқали “жазолаш” мақсадга мувофиқдир.

Ўйин бўлиниб қолишига йўл қўймаслик учун унга яхши тайёргарлик кўриш ўйин ўтказиладиган жойни ва керакли асбоб-ускуналарни олдиндан тайёрлаш лозим.

Ўқитувчи мактабни имкониятлари ва ўқувчиларнинг тайёргарлик даражасини ҳисобга олиб ўқув дастурига тавсия этилган ўйинларни ўзгартириши ва уларга қушимчалар киритиш мумкун.

Ҳаракатли ўйинларни ўқув йилининг чорақлари бўйича режалаштиришда об-ҳаво шароитларини ҳисобга олиш керак. Об-ҳаво яхши вақтга мулжалланган “Чиллак” “Оқтош” “Қозик” “Тегизсанг -минасан” “Байроқ учун кураш” сингари ўйинлар режалаштирилганда уларни спорт майдончаларида ўтказиш мумкун.

Хар бир чорақ охирида ўтказиладиган текшириш машғулотлари учун турли жисмоний машқлардан иборат ўйинларни режалаштириш лозим. Бундай ўйинлар ўқувчиларнинг тайёргарлигини эгаллаган малакаларини ҳаракатларининг тезлиги ва ўзаро мувофиқларини синан кўришда ёрдам беради.

Ўйин вазиятида тез фикир юритишни устириш мақсади билан ўйиннинг айрим усуллариини ўргатишда шароитга мувофиқ ҳолда ўйинга “рақиб” ўйинчини киритиш ҳам мумкун.

Болалар учун ҳаракатли ўйинларнинг ахамияти уларда муайян жисмоний сифатларни ҳосил қилиш ва уларни такомиллаштириш билан чекланмайди. Ҳаракатли ўйинлар болаларда интизомлилик жамоада ўзини тута билиш ва унинг шарафи обриси учун курашиш ўртоқларига беғараз ёрдам бериш каби фазилатларни ҳам шакиллантиради.

1-4 синф ўқувчиларида уюшқоқлик билан бир маромда юриш куникмаларини ҳосил қилиш учун доира бўлиб айланиб рақисга тушиладиган ашула айтиладиган ўйинларни мусиқа журлигида ўйналадиган ўйинларни шунингдек айтилаётган шер вазнига мос ҳаракатлар бажариладиган ўйинларни танлаш лозим.

Шу мақсадда “Мусиқа жўрлигида юриш” “карусел” “ўйлаб топ” “Кимни овози” сингари оммовий ўйинлардан, шунингдек. “Уразан-буразан” “Оқ теракми кук терак” каби миллий ўйинлардан фойдаланиш мумкин. Бу ўйинлар жуда оддий ва осон бўлиб улардан жисмоний тарбия дарсларида хусусан дарсни боши ва охирида самарали фойдаланиб келинаётир.

Адабиётлар:

1. Zufarov, T. U. (2020). Suzish sport turining ahamiyati va davolovchi ta'siri. *Maktab va hayot*, 2(150), 20-21.
2. Zufarov, T. U., & Asatov, A. A. (2020). Umumta'lim maktablarida milliy harakatli o'yinlarning ijtimoiy-pedagogik asoslari. "Boshlang'ich ta'limga innovatsion va kompetensiyaviy yondashuvning dolzarb masalalari", 43-47.
3. Зуфаров Темур Умарович., Даулетов Елмурат Даулетович, (2021). Развитие физических качеств у младших школьников на основе инновационного кластерного метода обучения «Инновационное развитие науки и образования» 68-70.
4. Ачилов, Т. С., Нурматов, Ф. А., & Зуфаров, Т. У. (2019). ФОРМИРОВАНИЕ Технической подготовленности школьников как средство повышения эффективности процесса их физического воспитания. *Maktab va hayot*, 4(144), 40-43.
5. Achilov, T., & Zufarov, T. (2019). Improvement Of Combined Actions Of Greco- Roman Style Wrestlers Taking Into Account The Specifics Of Competitive Activity. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(12), 1913-1917.
6. Mamatkulov Ravshanzhon Solizhonovich¹, Zhumaev Abdikhakim Turdievich², Juraboev Akmal Bahromovich³, Kurbanova Muattar Erkinovna⁴ // Features and application of the cluster method of its organizations in lessons in secondary school and higher pedagogical institutions

KURASHDA USULLARNI BOSQICHMA BOSQICH O'RGATISHNI SHAKLLANTIRISH

Xudoyberganov Javlonbek Soatboy o'g'li

CHDPU dotsent v/b PhD

Xikmatullayev Diyora

CHDPU Tojik tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada Kurashda dastlabki o'rganish bosqichida eng asosiy vazifa o'quvchilarda kurashning o'rganilayotgan harakatini to'g'ri bajarish uchun zarur bo'lgan tasavvurlarni yaratishdan iboratligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: asosiy, kurash, o'quvchi, mushak, harakat, malaka, vazifa.

Dastlabki o'rganish bosqichida eng asosiy vazifa o'quvchilarda kurashning o'rganilayotgan harakatini to'g'ri bajarish uchun zarur bo'lgan tasavvurlarni yaratishdan iborat. Ushbu bosqichning xususiyatlari quyidagilar: vaqt va makonda harakatlarning yetarli darajada aniq bo'lmasligi; mushak kuchlanishlarining noaniqligi; ortiqcha harakatlarning mavjudligi; kurash texnik harakatlarini bajarishda fazalar yaxlitligining buzilishi. Bunda shug'ullanuvchilar ko'pgina ortiqcha kuch sarflaydilar va usullarni ko'pgina gavda mushaklarini zo'riqtirish bilan bajaradilar. Tez toliqib qolish va ayniqsa yosh kurashchilarda ish qobiliyatining yetarli darajada bo'lmasligi ana shularga bog'liq.

Shunday qilib, ushbu bosqichda bir qator xususiy vazifalar hal etilishi lozim:

- o'rganilayotgan texnik harakat to'g'risida yaxlit tasavvurni shakllantirish va ulardan bellashuvlarda foydalanish to'g'risida shug'ullanuvchilarga ma'lumot berish;

- shug'ullanuvchilarning harakat malakalari zaxirasini kurashning yangi usulini egallash uchun kerak bo'lgan elementlar bilan boyitish;

- oddiy usullarning butunligicha bajarilishiga erishish;

- kerak bo'lmagan harakatlarni, ortiqcha mushak kuchlanishlarini bartaraf etish.

Qismlarga bo'lib o'rganish bosqichining asosiy vazifasi harakat malakasini shakllantirish hamda uni ko'nikmaga o'tgunga qadar takomillashtirishdan iborat. Bu bosqichda alohida kurash usullarining vaqt, makon va kuch tavsiflari aniqlanadi. Agar oldingi bosqichda harakat malakasini shakllantirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar yaratilgan bo'lsa, ikkinchi bosqichda uning hosil bo'lishi yuzaga keladi. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- o'rganilayotgan usul texnikasini egallash va qismlarini aniqlab olish;

- o'rganilayotgan harakatlarning qonuniyatlarini tushunishni chuqurlashtirish;

- bajarilishi zarur bo'lgan amallarning ketma-ketligini batafsil gapirib turish bilan o'rganilayotgan harakatni bajarish;

- o‘quv-mashg‘ulot bellashuvlaridagi o‘rganilayotgan usullarning aniq, erkin va butunligicha bajarilishiga erishish.

Kurashchining texnik-taktik harakatlarini mustahkamlash va keyingi takomillashtirish bosqichida o‘qitishning asosiy vazifasi, ya’ni harakat ko‘nikmasini shakllantirish va musobaqa bellashuvlarida egallab olingan kurash usullarini qo‘llay olish malakasini hosil qilish vazifasi hal etilishi lozim. Buning uchun ushbu bosqichning quyidagi xususiy vazifalarini bajarish zarur:

- shug‘ullanuvchilarni egallangan texnik harakatlarni turli sharoitlarda usullar bilan birga qo‘shib bajarishga o‘rgatish;

- kurashchini o‘rganilgan harakatni har xil tayyorgarlikka (jismoniy, texnik, taktik va h.k.) ega bo‘lgan raqiblar bilan bajarishga o‘rgatish;

- shug‘ullanuvchilarning alohida xususiyatlariga muvofiq va ularning jismoniy tayyorgarligi oshishini hisobga olgan holda o‘rganilgan texnik harakatlarni yangi elementlar (taktik tayyorgarlik usullari, ushlab olishlar, yakunlovchi fazalar) bilan boyitish;

- musobaqa bellashuvlarida o‘rganilgan texnik harakatning yetarli darajada barqarorligi va variantlilik, ishonchliligi va tejamliligini ta’minlashdan iborat.

Darsni o‘tkazish uslubiyatida mashg‘ulotning asosiy formasi sifatida darsning tuzilishini, vazifasi va dars qismlarining mazmunini hamda uni amalga oshirishning uch vazifasini – darsga tayyorgarlik, uni o‘tkazish va yakunlash vazifalarini yaxshi tushunish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Toshmurodov O.E., Turaqulov I.R. “Milliy kurash turlari va uni o‘qitish metodikasi” fanidan mustaqil ish topshiriqlari va uni bajarish bo‘yicha uslubiy tavsiyanoma (ko‘rsatmalar). – Samarqand. 2016.

2. Tastanov N., Abdullaev Sh., Tursunov Sh., Adilov S. SPMO Yunon-rim va erkin kurash bo‘yicha. –T. 2017.

3. Xo‘jayev F., Achilov T. Kurash va yakka. – T.: Davr nashriyoti. 2013.

4. Yusupov K. Kurash Xalqaro qoidalari, texnikasi va taktikasi. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2005.

KURASH MUSOBAQASIGA HAKAMLARNI TAYYORLASH USUL VA SHAKLLARI.

Mamatqulov Ravshanjon Solijonovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Jismoniy madaniyat” fakulteti katta
o‘qituvchisi

Qurbonaliyev Akobir

Jismoniy madaniyat fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada musobaqalarda ishtirok etish maqsadi g'alabaga erishish yoki imkoni boricha yuqori o‘rinlarni egallashdan iborat. Trenirovka jarayonida odatda, sportchining yuqori sport natijalariga erishishiga yordam beradigan hamma sifatlarni yuksak darajada namoyon qilish uchun sharoitlar yaratish imkoniyati yo‘q.

Kalit so‘zlar: Kurash, jismoniy tayyorgarlik, hakam, halol, chala, jismoniy holat, yonbosh, dakki.

Аннотация: В данной статье цель участия в соревнованиях – выиграть или занять как можно более высокое место. В ходе тренировок обычно не удается создать условия для того, чтобы спортсмен мог продемонстрировать на высоком уровне все качества, которые помогают ему достичь высоких спортивных результатов.

Ключевые слова: Борьба, физическая подготовка, судья, халол, физическое состояние, чала, даkki.

Abstract: In this article, the goal of participating in competitions is to win or take the highest possible place. During training, it is usually not possible to create conditions so that an athlete can demonstrate at a high level all the qualities that help him achieve high athletic results.

Key words: Wrestling, physical training, judging, halol, physical condition of the chala, dakki.

Milliy kurash turlari; Dunyoda unchalik ko‘p bo‘lmagan davlatlardagina milliy kurash turlari mavjud. Bizning yurtimizda birdaniga ikkita milliy kurash turi borligidan g'ururlanib, kelajak avlodlarimizga mazkur qadriyatimizni saqlab qolishimiz zarur. O‘zbekistonda milliy kurash turlaridan kurash va belbog‘li kurash juda yaxshi rivojlangan. Ko‘p sonli tarixiy yodgorliklarda milliy kurash turlari o‘z aksini topgan.

Kurashning avvalgi nomi – Buxorochoa usuldagi kurash, belbog‘li kurashning avvalgi nomi - Farg‘onacha usuldagi kurash deb atalgan. Bahslarni tinchlik yo‘li bilan hal qilish, shuningdek dushmani asirga olish usullarini o‘z

ichiga oladigan kurash usullarini tasvirlovchi qadimiy rasmlar hozirgi O'zbekiston hududida olib borilgan arxeologik qazilmalar davomida topilgan. Aytish joizki, musobaqalar oldidan uloqtirishlar, sakrashlar, kuchni namoyish qilishni o'z ichiga oluvchi mashqlar bajarilgan.

Ular raqiblarning o'zaro bellashuvlari oldidan badan qizdirish vositasi sifatida xizmat qilgan. Kurashchilar bir birining charmdan tayyorlangan belbog'idan yoki ustki kiyimining har xil joyidan ushlab, bellashishni boshlaganlar. Raqibni tashlash texnik usulini bajarishda oyoqlar bilan harakat qilishga hamda chalish usullariga katta e'tibor qaratilgan. O'zbekiston hududida yashovchi xalqlarda bellashuv birinchi tashlashgacha davom etgan. Bu musobaqalar milliy musiqa ohanglari sadolari ostida o'tkazilgan va musobaqa g'olibi xalq o'rtasida katta hurmatga sazovor bo'lgan. Kurash bellashuvlari g'alaba, oilaviy tantana yoki mavsumiy bayramlar munosabati bilan o'tkaziladigan bayramlar bezagi bo'lgan. Buyuk bobolonlarimizdan Abu Ali Ibn Sino (980-1037) va Alisher Navoiy (1441-1501) asarlarida kuchli kurashchilarning bellashuvlari hamda ba'zi texnik usullarning ta'rifi yozib qoldirilgan. Ushbu asarlardan ko'rinib turibdiki, hozirgi O'zbekiston hududida usullar tizimi yetarlicha rivojlangan milliy kurash mavjud bo'lgan. Qadimdan ikkita kurash turi shakllangan. Raqib belbog'ini oldindan ushlab bellashish va raqibni erkin ushlab olishish. Kurashning birinchi turi "Farg'onacha", ikkinchisi "Buxorocha" usul deb nomlangan. Bu milliy kurash turlari hozirgi kunda ham Respublikamizda keng tarqalgan. Ushbu turlar bo'yicha Respublika, Osiyo va Jahon chempionatlari o'tkaziladi. 1908-yildan boshlab Turkiston polvonlari o'rtasida professional musobaqalar o'tkazila boshlangan. 1936-yilda yoshlarni milliy kurashga qiziqishini hisobga olib Respublika sport qo'mitasi Toshkent shahrida milliy kurash seksiyasi tuzildi. 1937-yil Toshkent shahrida birinchi bor Respublikaning 30 ta shahridan 120 ta polvon yig'ilib kurash bo'yicha O'zbekiston birinchiligi o'tkazildi. 1938-yilda "Sambo" kurashi joriy qilinganligi sababli sambo kiyimida (kurtka) kurash tushishi unga moslashish juda tez kechadi. 1939-yil O'zbek kurashining Farg'onacha va Buxorocha turlari bo'yicha musobaqa qoidalari ishlab chiqildi. 1945-yildan boshlab kurash bo'yicha Respublika birinchiliklari o'tkaziladi. 1947-yildan kurash umum o'zbek Spartakiadasi dasturiga kiritilgan. 1949-yildan kurash qishloq Spartakiadasi dasturiga kiritilgan. 1975-yildan O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institutiga Buxoracha va Farg'onacha uslubdagi milliy kurash turlari bo'yicha abituriyentlar qabul qilinishi boshlangan. Unda A. Absattarov Buxoracha usuldagi kurash bo'yicha, J. Nurshin Farg'onacha usuldagi kurash bo'yicha murabbiylik qilgan.

1991-yil xalqaro kurash assotsiatsiyasi prezidenti Komil Yusurov qadimiy manbalarda keltirilgan ma'lumotlarni jamlab, dunyo andozalariga mos kurash qoidalarini ishlab chiqdi. 1992-yildan boshlab viloyatlarda kurash musobaqalari va

turnirlari ommaviy tarzda o'tkazilib kelindi. 1993-yilda ulug' bobokalonimiz Al-Hakim At-Termiziy xotirasiga bag'ishlangan xalqaro turnirni o'tkazish to'g'risida Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi. 1998-yilda Xalqaro kurash assotsiatsiyasi tuzildi (IKA), uning faxriy prezidenti etib mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov saylandi.

1999-yil 1-2-may kunlari Toshkent shahrining "Yunusobod" tennis saroyi va "Jar" sport majmuasida kurash bo'yicha birinchi Jahon chempionati o'tkazildi. Kurash bo'yicha birinchi jahon chempioni unvonini A.Qurbonov, K.Murodov, T.Muxammadievlar egalladi. 2000-yil 23-iyunda butun jahon kurashni rivojlantirish jamg'armasi tashkil qilindi. Mustaqillik yillarida ko'plab nufuzli xalqaro turnirlar, qit'alar va Jahon chempionatlari o'tkazilib kelinmoqda. 2017-yilning 7- mart kuni "Sport" gazetasida rasmiy ravishda kurash XVIII yozgi Osiyo o'yinlari dasturidan o'rin egallaganligi e'lon qilindi. Unga ko'ra 2018-yilning 18-avgustdan 2-sentyabrgacha davom etadigan Indoneziyaning Jakarta va Palembang shaharlaridagi XVIII yozgi Osiyo o'yinlarining 19-22-avgust kunlari kurash bo'yicha bellashuvlar o'tkazildi.

Kurash turlarida hakamlilik qilish qoidalari va vazifalari; Musobaqalarda ishtirok etish maqsadi g'alabaga erishish yoki imkoni boricha yuqori o'rinlarni egallashdan iborat. Trenirovka jarayonida odatda, sportchining yuqori sport natijalariga erishishiga yordam beradigan hamma sifatلامي yuksak darajada namoyon qilish uchun sharoitlar yaratish imkoniyati yo'q. Musobaqalarda har bir sportchi o'z raqibini engishga intiladi va bu intilish sportchidan barcha imkoniyatlarni safarbar etishni talab qiladi. Bu nafaqat insonning funksional imkoniyatlarini namoyon qilishga imkon beradi, balki ularni shakllantirish vositasi bo'lib ham xizmat qiladi.

Musobaqalar quyidagi vazifalarni hal etishga yordam beradi;

- sport jamoasida o'quv-trenirovka ishi ahvolini aniqlash;
- kurashchilar tayyorgarligi darajasini aniqlash;
- har bir tayyorgarlik bosqichida o'quv-trenirovka ishiga yakun yasash;
- kurash turlarini targ'ib qilishga va shug'ullanuvchilar sonini oshirishga yordam berish.

Adabiyotlar.

1. Ф.С. Фазлиддинов Виды соревновательных нагрузок в футболе- Web of Scientist: International Scientific Research..., 2022
2. FS Fazliddinov Psychological training of athletes- E-Conference Globe, 2021
3. Ф. Ф. Савриевич Основа физического воспитания школьников-физические знания- Web of Scientist: Международные научные исследования., 2021

**BO'LAJAK JISMONIY MADANIYAT O'QITUVCHILARI JISMONIY
TAYORGARLIGINI KLASTER METODI VOSITASIDA
RIVOJLANTIRISH**

Mamatqulov Ravshanjon Solijonovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, "Jismoniy madaniyat" fakulteti katta
o'qituvchisi

Jismoniy madaniyat fakulteti talabasi;

Norqulov Nurbek

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy o'quv yurtlarida bolajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarini tayorlashda klaster texnologiyalarni qo'llash masalalari ko'rib chiqiladi. Klaster-modul usulini jismoniy tayyorgarligi turlicha bo'lgan talabalar guruhlarida qo'llash masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, jismoniy tayyorgarlik, klaster tahlili, klaster, klaster-modul usuli, turli darajalar, jismoniy madaniyat, jismoniy holat, tanlab olish, ta'lim jarayoni.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы использования кластерных технологий в подготовке учителей группы студентов физической культуры в высших учебных заведениях. Рассмотрены вопросы использования кластерно-модульного метода в группах студентов с разной физической подготовкой.

Ключевые слова: физическое воспитание, физическая подготовка, кластерный анализ, кластер, кластерно-модульный метод, разные уровни, физическая культура, физическое состояние, отбор, образовательный процесс.

Annotation: In this article, the issues of using cluster technologies in the training of children's physical culture teachers in higher educational institutions are considered. The issues of using the cluster-module method in groups of students with different physical fitness are considered.

Key words: physical education, physical training, cluster analysis, cluster, cluster-module method, different levels, physical culture, physical condition, selection, educational process.

Ta'lim jarayonida, xususan, jismoniy tarbiya jarayonida klasterlashning o'zini nafaqat klaster shakllanishi ketma-ketligini, balki klasterlashning o'zi mantiqiyligi, dinamikasi va ko'lamini tavsiflovchi jarayon sifatida talqin qilish. Bu juda murakkab, chunki biz jismoniy tayyorgarlik, salomatlik ko'rsatkichlari sifatida shaxsning jismoniy holatining amaldagi mezonlari va standartlari xususiyatlari bilan

birgalikda ta'lim jarayonining segmentlari haqida bormoqda, bu turli xil guruhlarni birlashtirgan sotsiologning fantaziyalari haqida emas. ixtiyoriy asoslar bo'yicha ma'lumotlar.

Hozirgi vaqtda jismoniy madaniyat o'qituvchilari klaster tahlilini juda yaxshi bilishmaydi, chunki u ko'proq sotsiologiya va iqtisodiy fanlarda qo'llaniladi va hali ham jismoniy tarbiya tuzilishiga yomon moslashtiriladi, ammo umumiy va tanlab olingan sog'lomlashtirish yo'nalishlarining oqilona kombinatsiyasi. Jismoniy madaniyat ontogenezning (Ontogenez jarayonida ota-onadan olingan genetik ma'lumotni amalga oshirish jarayoni sodir bo'ladi) turli yosh davrlarida va hayotning turli sharoitlarida, ayniqsa talaba yoshlarning salomatligi va jismoniy tayyorgarligini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan jismoniy faoliyatni rag'batlantirishning zamonaviy usullari va shartlarini ta'minlaydi. Umuman olganda, o'qitish nazariyasi va metodologiyasiga umumiy didaktik va profilli tushuncha va yondashuvlarni joriy etish, ayniqsa, kompyuterlashtirish va o'qitishning texnik vositalaridan keng foydalanish talabalarning nazariy va amaliy bo'limlarni nisbatan qisqa vaqt ichida o'zlashtirishini ta'minlaydi va o'qituvchi guruhning tezkor tekshiruvi va etarli darajada o'zlashtirilmagan materialni aniqlash va shu bilan uni odatdagi ishidan ozod qilish bilan bog'liq.

Umuman olganda, o'qitish nazariyasi va metodologiyasiga umumiy didaktik va profilli tushuncha va yondashuvlarni joriy etish, ayniqsa, kompyuterlashtirish va o'qitishning texnik vositalaridan keng foydalanish talabalarning nazariy va amaliy bo'limlarni nisbatan qisqa vaqt ichida o'zlashtirishini ta'minlaydi va o'qituvchi guruhning tezkor tekshiruvi va etarli darajada o'zlashtirilmagan materialni aniqlash va shu bilan uni odatdagi ishidan ozod qilish bilan bog'liq.

Bularning barchasi axborot texnologiyalaridan foydalangan holda bilimlarni o'qitish va nazorat qilishda samarali didaktik yondashuvdan dalolat beradi. Kompyuter ta'limning axborot texnologiyalariga bevosita integratsiyalashgan va ta'lim tizimining shunday kerakli elementiga aylanadiki, u yo'q bo'lganda talaba uchun ham, o'qituvchi uchun ham ma'lum bir noqulaylik paydo bo'ladi.

Jismoniy tarbiya va sportda axborot texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyati rasmiylashtirish qiyin bo'lgan biologik ob'ektlarni boshqarishni tashkil etishdir. Shu nuqtai nazardan o'qituvchi va talaba o'rtasidagi ob'ektiv-subektiv munosabatlar masalalari ularning biologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ko'rib chiqiladi. Shunday qilib, jismoniy tarbiyada amaliy foydalanish uchun biz o'lchash va baholash mumkin bo'lgan jismoniy holatning mavjud va informatsion ko'rsatkichlarini tanlashimiz mumkin. Bular: somatometrik, somatoskopik va fiziometrik ko'rsatkichlar, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy faollik, kasallanish bo'lishi mumkin. Jismoniy holatning o'lchanadigan belgilarini tanlashda ularni o'lchashning soddaligini, baholash usullarini va jalb qilinganlarning

motivatsiyasini hisobga olish kerak. Klaster tahlili - har biri ma'lum bir o'zgaruvchilar to'plami bilan tavsiflangan ko'p o'lchovli kuzatishlarni tasniflash imkonini beruvchi usullar to'plami. Klaster tahlilining maqsadi odatda klasterlar deb ataladigan bir-biriga o'xshash ob'ektlar guruhlarini shakllantirishdir [2].

Sog'liqni saqlashning individual dasturlarini ishlab chiqishda klaster-modul usulidan foydalanish, funksional va jismoniy holatni to'g'ri baholash katta ahamiyatga ega, chunki u nafaqat jismoniy mashqlarning tanaga ta'sirini o'rganishga imkon beradi, balki ba'zan yashirin kasallik tashxisini qo'yish, jismoniy faoliyatga moslashish qobiliyatini o'rnatish, uni optimalligini aniqlash va hokazo. Modulni o'quv elementi sifatida standartlashtirilgan buklet shaklida quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi mumkin:

- ✓ aniq tuzilgan o'quv maqsadi;
- ✓ zarur jihozlar ro'yxati;
- ✓ tegishli ta'lim elementlari ro'yxati;
- ✓ batafsil illyustratsiyalar bilan birga qisqacha aniq matn ko'rinishidagi dolzarb o'quv materiallari;
- ✓ vosita ko'nikmalarini rivojlantirish uchun amaliy mashqlar;

Hozirgi vaqtda jismoniy tarbiya bo'yicha yangi o'qitish texnologiyalarini tizimlashtirish va tahlil qilish uchun ilmiy asoslarni ishlab chiqish dolzarb masala bo'lib, ular turli xil vazifalarni hal qila oladi: bilimlarni etkazish, ularni o'zlashtirish jarayonini kuzatish, tasviriy materiallarni namoyish qilish va jismoniy rivojlanishni rivojlantirish. fitnes. Solovieva E. B. (1996) jismoniy tarbiya jarayonini tashkil etishning eng muhim muammosi - bu o'quv faoliyati jarayonida o'quvchilar tomonidan olingan yuklarni o'zlashtirish darajasini nazorat qilish imkonini beradigan o'quv tizimini izlash deb hisoblaydi. shaxsning jismoniy rivojlanishini individuallashtirish imkonini beradi. [4].


O'z tanangizni bilish uchun uning harakatlarini rag'batlantirishni o'rganing, asab-mushak tarangligini va psixo-emotsional charchoqni engillashtiring. Bu turli xil tadqiqotlarda tasdiqlangan, bu erda talabalar o'rtasida kasallanishning kamayishi, reabilitatsiya va tiklash choralari tizimidan maqsadli foydalanganlar (barcha 4-5 yil davomida) jismoniy va intellektual qobiliyatlarning oshishi statistik jihatdan isbotlangan.

Modellashtirish "bizni qiziqtirgan ob'ekt to'g'ridan-to'g'ri o'rganilmaydigan, balki yordamchi sun'iy yoki tabiiy tizim ("kvazi-ob'ekt") qo'llaniladigan ob'ektning vositachilik bilan amaliy yoki nazariy ishlashi usuli bo'lib xizmat qiladi. bilishning ma'lum bosqichlarida uni almashtirishga va uni o'rganishda, pirovardida, modellashtirilgan ob'ektning o'zi haqida ma'lumot berishga qodir bo'lgan ma'lum ob'ektiv muvofiqlik.

O'qituvchi faoliyati nafaqat har bir talaba jismoniy tarbiyaning turli bo'limlari bilimlaridan foydalanish sohasidagi konseptual va uslubiy mazmun, faoliyat usullari to'g'risida tuzilgan, maqsadli va asosli ma'lumot berish, balki jismoniy tarbiyaning bevosita va bilvosita nazorati sifatida ham ko'rib chiqilishi kerak. ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishda o'quvchilarning jismoniy faolligi o'qituvchisi.qo'yilgan o'quv maqsadlariga muvofiq.

Tibbiyot va jismoniy tarbiyada kompyuterlardan foydalanish katta imkoniyatlar yaratadi. Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, jismoniy tarbiya darslarini individuallashtirish jismoniy tarbiya va o'quvchilar salomatligini dinamik kuzatish (monitoring) tizimlarini ishlab chiqishni anglatadi. Buni zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida, sog'lig'i yomon o'quvchilarning jismoniy tarbiyasida amalda qo'llanilmaydigan klaster-modulli o'qitish usuli yordamida amalga oshirish mumkin, yuqorida aytilganlarning barchasi sifatni baholashning yangi shakllarini topish zarurligini ko'rsatadi. jiddiy sog'lig'i buzilishi bo'lgan talabalar uchun bilim va ko'nikmalar.

Biroq, zamonaviy axborot texnologiyalarining yuqori salohiyatiga qaramay, ular hali ham oliy jismoniy tarbiya tizimida keng qo'llanilishini topmagan. Yuqoridagilar bilan bog'liq holda, jismoniy tayyorgarligi turlicha bo'lgan o'quvchilarning jismoniy tarbiyasi bo'yicha o'quv jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish bugungi kunda juda dolzarb ko'rinadi.



1. Aqliy vizual tasvirning shakli, istalgan yakuniy natija xaritasi. 2. Istalgan natijaga olib keladigan tanadagi jarayonlarning tasvirini aqliy vizual tasvirlash shakli.
3. So'rov bilan tananing ma'lum bir organi yoki tizimiga og'zaki ruhiy murojaatlar shakli. 4. Aqliy fikrlarni harakat va harakatlar bilan birlashtirgan shakl.

1-rasm Klaster-modul usulining tuzilishi.

Klaster-modul usuli - bu turli darajadagi talabalarning muvofiqlashtirish qobiliyatlari, chidamliligi va boshqa jismoniy va psixomotor qobiliyatlarini rivojlantirish metodologiyasida, ularning rivojlanishiga yo'naltirilgan ta'sir qilishning umumiy muammosida mutlaqo yangi zamonaviy tendentsiya.

Adabiyotlar:

1. Oldenderfer M. S., Bleshfeld R. K. Klasterный analiz. / — V kn.: Faktornyy, diskriminantnyy i klasterный analiz. — M.: Finansy i statistika, 1989.—S.215.
2. Klassifikatsiya i klaster / Pod red. Dj. Ven Rayzina // Per. s angl. P. P. Kolsova; Pod red. Yu. I. Juravleva.-- M.: Mir, 1980.— S.388.
3. Jambyu M., Ierarxicheskiy klaster-analiz i sootvetstviya // Per. s frans. B. G. Mirkina,- M.: Finansy i statistika, 1988.-- S 300.
4. Proxorova M. V., Sidorov A. A., Sinyuxin B. D., Semyonov A. G. Pedagogika fizicheskoy kultury: Uchebnik M.: Iz-vo «Put»: TID «Alyans», 2006. — S. 129.Udk 796 (075.8) BBK 75.1 P 84
5. Mamatkulov R.S., Особенности формирования готовности будущих педагогов к инновационной деятельности средствами информационных технологий // The journal of academic research in educational sciences (ARES) ISSN 2181-1385 Vol 1, Issue 3 November 2020

CLUSTER-MODULAR METHOD OF IMPROVEMENT IN THE STRUCTURE OF A PHYSICAL EDUCATION LESSON FOR STUDENTS WITH DIFFERENT LEVELS OF PHYSICAL FITNESS

Ravshanjon Mamatkulov

is a senior lecturer at the Department of Physical Culture and Sports, Chirchik State Pedagogical University. Uzbekistan.

Student faculty physical culture;

Atkhambekov Shahjakhon

ABSTRACT: This article discusses the use of new technologies in physical education in higher educational institutions. The issues of applying the cluster-modular method in groups of students with different levels of physical fitness are considered.

Key words: physical education, physical fitness, cluster analysis, cluster, cluster-module method, different levels, physical culture, physical condition, sample population, educational process.

АНОТАЦИЯ: В данной статье рассматриваются вопросы применения новых технологий в физическом воспитании высших образовательных учреждениях. Рассматриваются вопросы применения кластерное-модульного метода в группах студентов с различным уровнем физической подготовленности.

Ключевые слова: физическое воспитание, физическая подготовленность, кластерный анализ, кластер, кластерное-модульный метод, различный уровень, физическая культура, физическое состояние, выборочная совокупность, образовательный процесс.

The relevance, timeliness, obviousness and even the necessity of modern clustering processes today are almost beyond doubt. It is curious that the actual scientific approach to clustering today has been relatively little developed and is rather fragmentarily reflected in the scientific literature; In addition, the term “cluster” has firmly entered the circle of not very clear, but clearly fashionable concepts, which, “clogging” the categorical scientific apparatus, often do not carry either semantic or, especially, practical significance. Meanwhile, the phenomenon of clustering was studied, although almost exclusively in the natural sciences, long before it became so fashionable. The etymology of the concept cluster (from the English Cluster, lit. - “bundle, swarm, accumulation”) is very controversial: the term, borrowed from the field of exact sciences, without having a purely economic nature, today is easily “rooted” in the humanitarian branches of scientific

knowledge. Now this term is quite widely used in computer science and programming, in mathematics, physics, chemistry, economics, sociology, etc. We note, however, that there is not a single or even generally accepted understanding of a cluster and clustering as processes of the formation of social clusters in modern science, unfortunately, it didn't work out.. Taking into account the scope of the article, we will highlight the main characteristics, sociological and semantic indicators of the adopted cluster model. A cluster cannot serve as a designation for an undeveloped system, including a social one, nor, even more so, as a designation for a single event or phenomenon. In this case, taking into account the classical dialectical models of Aristotle, W. Leibniz, G. Hegel, I. Kant, thinkers of the Vienna School and the positivist tradition in general, the concept of a cluster would be simply redundant in relation to the established categories of system and element; individual, special and general; norms and deviations, social dissipation, etc. The concept of a cluster, according to the authors, describes a specific state of a social community, including a description of not only this community itself, but also the processes of its formation, structuring and interaction with the social environment. For example, an emerging company of people who like to play volleyball on the beach on weekends contains, most often, a relatively small stable core with vaguely expressed situational leadership, as well as a noticeable “variable” composition. According to the authors, up to the formation of a stable team itself, with almost constant composition and stable leadership, such a community can be called the simplest example of a social cluster. Thus, a cluster is a union of objects and subjects in which their specific and individual characteristics are equally powerful, that is, you want to be a member of a cluster no less than you want to “remain yourself,” to be lonely, and at the same time “tenacious” - competitive.

The cluster, therefore, does not express a discrete period of formation of the system, its genesis. Let us emphasize once again that a cluster does not describe every association of people, social fragments and groups. In our case, the cluster analysis procedure as a modern trend in improving the methods of health-improving and restorative nature is interpreted as a qualitatively special form of regulation of physical exercises, depending on the characteristics of the preparedness and physical development of those involved. In physical education, the cluster analysis procedure involves identifying groups of objects among the elements of the sample population. In this case, the units of analysis in a specific database can be judgments, statements based on survey data, features of physical fitness of those involved in particular, in borderline states between norm and pathology and initial pathological states, groups of external environmental factors in accordance with the achievements of physical development and preparedness. Consequently, clusters can be formed from any components of the sample population, the composition of which, of course, depends

on the specifics and scale of a particular sociological study. The use of the cluster analysis procedure in the author's logical research (especially in monitoring) has repeatedly shown that clusters are unstable and easily changeable, like everything in the modern dynamic world. Let us note, finally, that the interpretation of clustering itself in the educational process, in particular in the process of physical education, as a process that describes not only the sequence of cluster formation, but also the very logic, dynamics and scale of clustering, is very complex, since we are talking specifically about segments of the educational process in conjunction with the characteristics of practiced criteria and standards of an individual's physical condition as indicators of physical fitness, health, and not about the fantasies of a sociologist who combines heterogeneous groups of data on arbitrary grounds. Currently, physical education teachers are little familiar with cluster analysis, since it is used more in sociology and economic disciplines and is still poorly adapted to the structure of physical education, but a rational combination of general profiling and selective health-improving areas of physical education in different age periods of ontogenesis and in different living conditions, provides modern ways and conditions for motivating physical activity, specifically oriented in the aspect of preserving and strengthening the health and physical fitness of student youth.

In general, the introduction of general didactic and specialized concepts and approaches into the theory and teaching methods, especially computerization and the expanded use of technical teaching aids, ensures that students master the theoretical and practical sections in a relatively short period of time, and the teacher quickly surveys the group and identifies insufficiently mastered material and thereby frees him from routine work. All this indicates an effective didactic approach to teaching and monitoring knowledge using information technology. The computer is directly integrated into educational information technology and becomes such a desirable element of the educational system that in its absence a certain discomfort arises for both the student and the teacher. A feature of the use of information technologies in physical culture and sports is the organization of management of biological objects that are difficult to formalize. From this point of view, issues of objective-subjective relations between teacher and student are considered, taking into account their biological properties. Thus, for practical use in physical education, we can select accessible and informative indicators of physical condition that can be measured and assessed. These can be: somatometric, somatoscopic and physio metric indicators, physical fitness, physical activity, morbidity. When choosing the measured signs of physical condition, it is necessary to take into account the ease of their measurement, methods of assessment and motivation of those involved. The use of the cluster-modular method for the development of individual health programs, the correct assessment of the functional and physical state is of great

importance, as it allows not only to study the effect of physical exercise on the body, but also helps to diagnose a sometimes hidden disease, establish adaptability to physical activity, and determine its optimality, etc. The module can be presented as an educational element in the form of a standardized booklet consisting of the following components: - a precisely formulated educational goal;

- list of necessary equipment and materials;

- list of related educational elements;

- the educational material itself in the form of a short, specific text, accompanied by detailed illustrations;

- practical exercises to practice motor skills;

Currently, there is an urgent question about the development in physical education of scientific foundations for systematization and analysis of new teaching technologies, which can solve a wide variety of problems: communication of knowledge, monitoring the progress of their assimilation, demonstration of illustrative material, and the development of physical fitness. Solovyova E. B. (1996) considers the most important problem in organizing the process of physical education to be the search for a teaching system that makes it possible to control in the process of educational activities the degree to which students assimilate the loads received during classes, which makes it possible to individualize the physical development of the individual. Get to know your body, learn to stimulate its actions, be able to relieve neuromuscular tension and psycho-emotional fatigue. This has been confirmed in various studies, which have statistically proven a decrease in morbidity in students, an increase in physical performance and intellectual capabilities in those who purposefully (during all 4-5 years of study) used a system of rehabilitation measures. Modeling serves as a method of “indirect practical or theoretical operation of an object, in which it is not the object itself that interests us that is directly studied, but an auxiliary artificial or natural system (“quasi-object”) is used, located in a certain objective correspondence with the cognizable object, capable of replacing it at certain stages of cognition and, during its study, ultimately providing information about the modeled object itself.” The activities of the teacher should be considered not only as providing each student with structured, targeted and motivated information about the conceptual and methodological content, methods of activity in the areas of using knowledge from various sections of physical education, but also as direct and indirect management by the teacher of the physical activity of students in mastering skills and abilities in accordance with the set educational goals. The use of computers in medicine and physical education provides great opportunities. To summarize, it should be noted that individualization of physical education lessons means the development of dynamic observation (monitoring) systems for physical education and the student’s health status. This can

be done with the help of modern information technologies, using the cluster-modular teaching method, which is practically not used in the physical education of students with poor health, All of the above indicates the need to search for new forms of assessing the quality of knowledge and skills for students with serious health problems. However, despite the high potential of modern information technologies, they have not yet found wide application in the system of higher physical education. In connection with the above, the introduction of modern information technologies into the educational process of physical education of students with different levels of physical fitness seems very relevant today.

The cluster-modular method is a completely new modern trend in the methodology for developing coordination abilities, endurance and other physical and psychomotor abilities of students with different levels, in the general area of directed influence on their development.

Literature:

1. 1. Decree No. PF-5712 of April 29, 2019 "On approval of the concept of development of the public education system of the Republic of Uzbekistan until 2030".
2. 2. Mukhamedov G.I., Khodjamkulov U.N. Pedagogical education innovation cluster: definition, description, classification. Chirchik, "Universitet" - 2019.
3. 3. Educational cluster "Infocommunication and communication of the Republic of Tatarstan". – [electronic resource]. URL: <http://mcrt.tatar.ru/rus/info.php?id=124497> (data processing 01.02.2022).
4. Pudenko T.I. Obrazovatelnye klasteri kak model upravleniya razvitiem obrazovaniya na munitsipalnom urovne, povыshaющaya dostupnost kachestvennykh obrazovatelnykh uslug [Tekst] / T.I. Pudenko // Upravlenie obrazovaniem: teoriya i praktika. – 2014. – No. 3 (15). – S. 33-45.

KURASH ETIKASI VA UNING SHAXS TARBIYASIDAGI O‘RNI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Jismoniy madaniyat va sport
kafedrası o‘qituvchisi

Raximberdiyev J.N

CHDPU talabasi

Jabborberganova Sh.

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada kurash sportining etikasi va uning shaxs tarbiyasidagi o‘rni mukammal darajada o‘rganilib chiqildi, insoniy fazilatlarining namoyon bo‘lishi, mardlik, bag‘rikenglik, oliyjanoblik va murabbiy-pedagoglarning qarashlari tahlil qilindi, Pedagogik ta‘lim – tarbiya jarayonida tutgan o‘rni haqida fikrlar yuritildi.

Kalit so‘zlar: kurash falsafasi, kurash, gilam, belbog‘, pedagogik o‘rganish, tahlil qilish, yoshlar, vatan, milliy sport, milliy g‘urur, tarbiya, mardlik, jasurlik, bag‘rikenglik, vatanparvarlik.

Kirish. Asrlar davomida mardlik, bag‘rikenglik, oliyjanoblik va halollikning timsoli sifatida e‘zozlanib kelingan Kurash millatimizning bebaho qadriyati g‘ururi va iftixoridir!

Kurashning ko‘p ming yillik tarixi polvonlarning jismoniy, ma‘naviy va ruhiy olamining yetukligini ta‘riflaydi.

- Kurashchi polvonlar qasam ichmaydilar, hech qachon o‘z yurtiga xiyonat qilmaydilar;
- Kurashchi polvonlar zinodan, giyohvandlik, makrdan hazar kiladilar, bu illatlarga qarshi kurashadilar;
- Kurashchi polvonlar irodasi kuchli, yod g‘oyalarga ergashmaydilar;
- Kurashchi polvonlar zaif va nochorlarni himoya qiladilar, muhtojlarga yordam ko‘rsatadilar;
- Kurashchi polvonlar mardlik va halollik, raqibiga nisbatan hurmat tuyg‘ulari bilan ajralib turadilar;
- Kurashchi polvonlar ja‘sur va kat‘iyatlik bo‘ladilar;


Yuqoridagi ta‘riflarda asrlar davomida shakllangan Kurash falsafasi mujassamligini ko‘rish mumkin:

- Mustaqil dunyoqarash va erkin fikrlashni shakllantirishda;
- O‘z bilimi va kuchiga ishonib yashaydigan qat‘iyatli insonni tarbiyalashda;
- O‘zlikni anglash, muqaddas qadriyatlarni asrab - avaylashda;


➤ Oliyjanoblik, iymon-e'tiqod, saxovat va halollik kabi insoniylik fazilatlarni yuksaltirishda -

Asosiy qisim. Millatning ko'p ming yillar sayqallanib kelgan, benazir va bebaho qadriyati bo'lgan Kurashning roli beqiyosligini ko'rsatadi. Zero, polvonlik falsafasi insonni komillik sari yetaklaydi.

Murabbiy - ustozlar odobi tamoyillari



Kurashchilarning kiyimi(Yaktak).



Tahlillari shuni ko'rsatadiki, polvonlarning raqibga, gilamga va tomoshabinlarga nisbatan hurmat bajo keltirib, ta'zim qilishi yuqori darajadagi hurmat ma'nosini bildirib sportda shaxs tushunchasining qadrlanishini anglatadi. Bu esa umume'tirof etgan axloq normalari talablariga to'laqonli mos kelib, insonparvarlikni o'zida mujassamlashtiradi. Qoidalardagi yana bir muhim ko'rsatkichlardan biri raqibga nisbatan qo'pollik ishlatmaslik, qoidaga zid hatti-harakatlar kilmaslikdir. «To'xta» ishorasidan so'ng kurashchi harakatni to'xtatishi xamda usullarni davom ettirmasligi qat'iy talab etiladi. Mazkur jixatlar qoidalarda o'z aksini topgan bo'lib, agar kurashchi qoidalarni buzsa hakam tomonidan ogohlantiriladi. Bundan ko'rinadiki, kurash eng avvalo tarbiya vositasi sifatida inson va uning sha'ni qadrlaydi. Kurashning qadriyat sifatidagi ahamiyagi va o'rni faqatgina musobaqalarda emas, mashg'ulotlar jarayonida ham aks etadi. Murabbiylar mashg'ulotlar jarayonida kurashchilarni faqatgina jismoniy tayyorgarligini oshiribgina qolmay, ularni ma'naviy, axloqiy, va estetik tarbiyalab boradi. Tozalikka rioya qilish, kurash kiyimlarini, gilamni ozoda saqlash, mashg'ulotlar jarayonida tartib-intizomga rioya qilish, o'zaro hurmat ruhini shakllantirish va albatta, ustozlarga hurmatda bo'lish kerakligi kurashchilarga doimiy ravishda singdirib boriladi.

Adabiyotlarni o'rganish va ilmiy-pedagogik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki kurash o'ziga xos sport turi. U faqatgina jismoniy bellashuv manzarasi bo'libgina kolmay, ma'naviy va axloqiy tarbiya vositasi hamdir. Shu sababdan kurash bilan

shug‘ullanuvchilar o‘ziga xos ruhiy, ma’naviy va axloqiy sifatlarga ega bo‘ladi. Kurashning yana bir o‘ziga xos jihati uning tomoshabopligidir. Kurash musobaqalari jarayonida sportchilar tomonidan murakkab va jozibali usullar qo‘llaniladi. Usullarning bajarilishi qanchalik murakkab bo‘lasin, u sportchiga jismoniy va ma’naviy zarar yetkazmaydi. Mutaxassislarining fikricha, kurash sport turlari ichida eng xavfsiz sport turi hisoblanadi. Kurash bellashuvlarining boshlanishidan to yakunigacha sportchilar o‘zlarining ham jismoniy ham ma’naviy tayyorgarlik darajasini namoyish qilishadi. Kurash sportining ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyatini o‘rganish, uning milliy va umuminsoniy qadriyat sifatidagi o‘rnini o‘rganish natijasida quyidagi xulosalarni beramiz:

- kurash inson jismoniy, ma’naviy va axloqiy tarbiyasi vositasi;
- kurash o‘zining tarixiy rivojlanish xususiyatiga ko‘ra uzoq davrni bosib o‘tgan va xalq irodasi va intilishlari namunasi;
- qadimdan xalqimiz yoshlar tarbiyasida va ijtimoiy turmush-tarzida kurashdan keng foydalangan va uni asrab-avaylab kelgan;
- kurash o‘zbek xalqi xayotida muhim o‘rin tutib, milliy qadriyat darajasiga ko‘tarilgan;
- kurash barcha xalqlar va mamlakatlar e’tiqodi, intilishlari va xususiyatlari mosligi sababli umuminsoniy qadriyat darajasida e’tirof etiladi;
- gumanizm, vatanparvarlik va halollik kurashning eng asosiy tayanch ustunlaridan hisoblanadi

Kurash musobaqalari qoidalari ma’lum talablar asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, ishtirokchilardan ularga qat’iy amal qilishni talab etadi. Ayni shu holatda kurash o‘zining yuqori darajadagi insonparvarlik xususiyatini namoyish qiladi.

Xulosa. Oliyjanob insonlarga hos bo‘lgan iymon-e’tiqod, insof-e’tiqod, insof-diyonat, saxovat, halollik, mehr-oqibat kabi fazilatlarni yuksaltirish. Ishonch bilan shuni aytish mumkinki, irodani toblaydigan, kishini halollik sari intilishga undaydigan, qiyinchiliklarni bardosh va chidam bilan yengib o‘tishni o‘rgatadigan, inson qalbida g‘alabaga ishonch, g‘urur va iftixor tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qiladigan kurash shiddatkor hayot talablariga javob bera oladigan shaxslarga, bunyodkor yoshlarning barkamol bo‘lishida o‘zining benazir hissasini ko‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axmedov F.Q, Abdulaxatov A.R, Xayitov O.T. Kurash sport-qadriyat-ma’naviyat va tarbiya vositasi. Toshkent 2020 yil.
2. Abdulaxatov A.R. Xayitov O.T. Kurash: Tarixi va Falsafasi T.,2020 y.
3. Axmedov F.Q, Abdulaxatov A.R.» O‘zbek kurash milliy va umuminsoniy qadriyatlar durdonasi». Toshkent 2017 yil

JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA XALQ O'YINLARINI O'TKAZISH

CHDPU Jimoniy madaniyat va sport kafedrası katta o'qituvchisi

A.T.Jumayev

Jimoniy madaniyat talabasi

Jonuzoqov Umidjon

Аннотация:

Mazkur maqolada Jismoniy ta'lim-tarbiya tizimida xalq milliy an'analari haqida ma'lumot berilgan. Ma'lumki, o'zbek xalqi boy milliy an'analarga ega. Ana shu an'analardan biri «Navro'z» bayrami eng qadimgi ajdodlarimizdan qolgan ulug' bir meros sifatida ommaviy milliy an'anaga aylangan.

Kalit so'zi. Navruz, milliy an'analar, kurash, ko'pkari (uloq), poyga, dorboz, tosh ko'tarish, bilak kuchini sinash, arqon tortish,

Аннотация:

В данной статье представлена информация о национальных традициях народа в системе физического воспитания. Известно, что узбекский народ имеет богатые национальные традиции. Одна из таких традиций, праздник «Навруз» стал общественной национальной традицией как великое наследие, оставленное нашими древнейшими предками.

Ключевое слово. Навруз, национальные традиции, борьба, копкари (коза), скачки, привратник, подъем камня, проверка силы запястья, перетягивание веревки,

Annotation:

This article provides information about the national traditions of the people in the system of physical education. One of these traditions, the holiday "Navruz" has become a public national tradition as a great inheritance abandoned our oldest ancestors.

Key words. Navruz, national traditions, kurash, kopkari (goat), race, tightrop walker, stone lifting, arm wrestling, tug of war.

Ma'lumki, o'zbek xalqi boy milliy an'analarga ega. Ana shu an'analardan biri «Navro'z» bayrami eng qadimgi ajdodlarimizdan qolgan ulug' bir meros sifatida ommaviy milliy an'anaga aylangan. O'zbekistonning mustaqilligi sharofati bilan Respublikaning barcha hududlarida, hatto eng chekka qishloqlarida ham «Navro'z» zo'r tantana va ko'p qirrali udumlar bilan o'tkazilmoqda.

«Navro'z» viloyat tuman markazlarida ommaviy sayl sifatida tashkil qilinib, unda barcha tadbirlar qatorida kurash, ko'pkari (uloq), poyga, dorboz, tosh ko'tarish, bilak kuchini sinash, arqon tortish, to'qqiz tosh (qizlar o'yini), yelka urishtirish kabi milliy o'yinlari o'rin olgan. Bu o'yinlarning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, bayram kunlari deyarlik ko'pchilik ishtirokchilar, hatto oddiy tomoshabinlar ham

o'yinlarda faol ishtirok etadi. Shu sababli xalq milliy o'yinlari ommaviy sog'lomlashtirish vazifasini bajaradi deb qat'iy ravishda aytish mumkin. «Navro'z»da faqatgina xalq milliy o'yinlarigina emas, balki zamonaviy sport turlari (futbol, akrobatika, boks, qilichbozlik va h.k.), shuningdek, sharqona yakka bellashuv sport turlari ham keng qo'llaniladi. Ularni tashkil qilish va o'tkazish uchun maxsus dasturlar (ssenariy) asosida tayyorgarlik ko'riladi. Sport tashkilotlari, jamoatchi tashkilotlar, uyushmalar rahbarligida yetakchi trenerlar va sportchilar tanlanadi. Ularga maxsus topshiriq va ko'rsatmalar avvaldan berib boriladi.«Navro'z»dagi ommaviy sog'lomlashtiruvchi jismoniy mashqlar, sport turlari, ayniqsa xalq milliy o'yinlarining tashkil qilinishi asosan ommaning hordiq chiqarishi, milliy an'analarni e'zozlashi va qadrlashiga qaratilgan umumiy targ'ibot desa ham bo'ladi. Shu sababli jismoniy madaniyat fakultetlarida ta'lim jarayonini tashkil etishda O'zbekistonda an'anaga aylangan barcha ommaviy bayramlarning mazmuni, uni tashkil qilish yo'llarini o'rgatishga alohida o'rin berilishi zarurdir. Yuqorida qayd etilganidek, Respublika miqyosida va uning hududlarida «Hosil bayrami», «Mehnat bayrami», «Mustaqillik kuni» bayrami va boshqa sanalarga bag'ishlab o'tkaziladigan tadbirlar ham mazmun va shakl jihatdan to'la an'anaga aylanganligining shohidimiz.«Mustaqillik kuni» bayramida sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo, madaniyat, fan, texnika va boshqa sohalarda erishilgan ulkan natijalar ramziy shakl va dalillar asosida namoyish etiladi. Sho'x qo'shiq, raqslar qatorida taniqli sportchilar, trenerlar, o'qituvchilarning erishgan yutuqlari ham barcha namoyishchilarni xushnud etadi. Ayniqsa, yosh futbolchilar, gimnastikachi, akrobatlar, kurashchilar, chavandozlarning ommaviy sport namoyishlari milliy bayramlarimizning mazmunini boyitadi. Bu esa milliy qadriyatlarimizning naqadar ko'rkam, ulug'vor ekanligini isbotidir.

Zamonaviy milliy an'alarimiz qatoridan haqli ravishda o'rin olgan eng yirik va muhim tadbirlardan biri ilk bahorda futbol mavsumining ochilishiga bag'ishlab o'tkazilib kelinayotgan bayramdir.

Respublika hukumatining rahbarligida futbol musobaqalari faqat shaharlar va tuman markazlaridagina emas, balki har bir jamoada, ayniqsa qishloq maktablarida ham zo'r tantanaga aylanmoqda. Ana shularni e'tiborga olgan holda, jismoniy madaniyat fakultetlarida talabalarga nazariy bilim va amaliy malakalarni chuqur singdirish kerak bo'ladi. Bunda quyidagi yo'nalishlarga e'tiborni jalb etish muhim: Respublika rahbariyati tomonidan jismoniy madaniyatni rivojlantirishga doir chiqarilgan farmonlar, bo'ruqlar va qarorlarni izchil o'rgatish.

Milliy an'alarning mazmuni va mohiyatini boyitishda xalq milliy o'yinlari va ommaviy sog'lomlashtirish, jismoniy madaniyat hamda sportdan foydalanish uslublari hamda amaliy malakalarni berish.«Navro'z», «Mustaqillik kuni» bayramlari va boshqa ommaviy milliy an'analarni tashkil qilish, uning dasturlarini

tuzishni o'rganish. Sport musobaqalarining ommaviy sog'lomlashtirishdagi mohiyatlari hamda iqtidorli sportchilarni tanlash, shuningdek ularning sport mahoratlarini oshirishdagi maqsad va vazifalar bilan tanishtirib borish. O'quvchi-yoshlarni jismoniy barkamol qilib tarbiyalashda, darsda, darsdan va maktabdan tashqari faoliyatlarida milliy an'analar, milliy o'yinlardan foydalanish, ularni tashkil qilish va qo'llay olishni talabalarga o'rgatish. Ma'lumki, Markaziy Osiyo xalqlarining milliy an'alarida botirlik, pahlavonlik, jasurlik, mardlik kabi fazilatlar yuqori darajada o'rin olganligi hammaga ma'lum. Milliy an'alaridan foydalanish asosan quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda:

- jismoniy ta'lim jarayonida tarbiyaviy tadbirlarda xalq o'yinlaridan foydalanish;

- murabbiylarning shaxsiy namunasi asosida o'rganish;- mashq qildirish.

O'yinlardan jismoniy ta'lim jarayonida hamda tarbiyaviy tadbirlar o'tkazishda foydalaniladi. Bular jumlasiga «tortishmachoq», «oq terakmi ko'k terak», «kim chaqqon», «chillak», «pir etdi», «asir tushdi», «karnaymi-surnay», «podachilar», «cho'pon», «suv» o'yinlari, «otish», «arg'imchoq», «bekinmachoq», «dorga minish» va shu kabi juda ko'p boshqa o'yinlar bo'lib, bular bolalarning yoshi va jismoniy qudratiga qarab o'ynaladi. O'yinlarning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Ular yil fasllariga qarab o'zgarib turadi, marosimlarga moslashtiriladi. O'yin qurollari bolalarning o'zi tomonidan tayyorlanadi, o'yinlarning ochiq havoda o'tkazilishi bolalarning jismoniy chiniqish, ma'lum maqsadga intilish, g'ayrat shijoat ko'rsatishga undaydi

lekin sport o'yinlari katta iroda hamda uzluksiz mashq qilishni talab etadi.

Ayniqsa, harbiy-jismoniy tarbiyada bu metodlar muhim sanaladi. Qadim-qadimdan yoshlar mohir va jasur harbiylar, tajribali keksalardan ot chopish, kamonbozlik, qilichbozlik kabi o'yinlarni o'rgangan. Bu tarbiya metodi va usullari xalq og'zaki ijodi-ertaklar, dostonlarda o'zining yorqin ifodasini topgan. Talabayoshlar o'rtasida ayniqsa, ot o'yiniga qiziqish ortib borayotganligini hisobga olib, ot o'yinlarini o'rganish, uni o'tkazish uchun sharoit yaratish masalalariga e'tibor kuchaymoqda. Markaziy Osiyo xalqlarida ot o'yinlari quyidagi turlarga bo'linadi: Olomon poyga, otda merganlik, otni yo'rg'alatib yurish, ko'pkari, qiz quvloq, ag'darish, chavgonbozi va h.k.

O'zbekiston sharoitida ot o'yinlari xilma-xil bo'lib, bularning ichida eng ko'p tarqalgani ko'pkari (uloq) hisoblanadi. Ko'pkari deganda asosan toyponlar (tog' ustidagi past tekislik), keng dala yoki adirlar hamda maxsus tayyorlangan otchoparlarda ko'pchilik bo'lib so'yilgan uloqni (taka, serka, buzoq) otda tortishib o'ynash, poyga to'dadan uloqni olib chiqish (solim) kabi harakatlar tushiniladi.

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Jumayev A.T.(2022) Boshlang`ich sinf o`quvchilarda harakatli o`yinlarni klaster usulda olib borish. Muqallim xem uzliksiz bilimlendiuriy. Maxsus son.
2. Jumayev A.T Янги давурда спортнинг ижтимоийлаштирувчи мавқеи 2020 1-сон Муқаллим ҳем узликсиз билимлендириў.
3. Jumayev A.T Методика специальной физической подготовки студентов по волейболу в соревновательном периоде методом кластера 2021йил 5-махсус сон

UMUM TA'LIM MAKTABLARDA YOSH YENGIL ATLETIKACHI TAYORLASHDA JISMONIY TARBIYA DARSLARINING AHAMIYATI

Odilov Otabek Norboyevich

“Jismoniy madaniyat va sport” kafedrası katta o‘qituvchi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Muxtorov Zikrillo Fayzulla o‘g‘li

CHDPU jismoniy madaniyat talabasi talabasi

ANNOTATSIYA : Ushbu maqolada yosh yengil atletikachi tayorlashda jismoniy tarbiya darslarning ahamiyati. Yengil atletika sport turini o'qitishning yangi shakllari va usullarini qo'llash, maktab o'quvchilarining sog'ligini tiklash va mustahkamlash, shuningdek, o'yin va estafeta usullardan foydalanish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish samaradorligini oshirish.

Kalit so‘zlar: Jismoniy tarbiya, va sport ,jismoniy madaniyat, jismoniy chidamlilik, jismoniy sifatlar.jismoniy tarbiya darslari

ABSTRACT : This article presents the effectiveness of the use of new forms and methods of teaching athletics in physical education lessons and the preservation and promotion of the health of schoolchildren as well as the development of physical qualities along with the use of game and competitive methods. Keywords: Physical education, physical culture, physical endurance, physical qualities.

Kirish Yosh yengil atletikachi tayyorlashda ko‘p yillik mashg‘ulot jarayonining boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida asosiy maqsadimiz: har tomonlama jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish va jismoniy sifatlarini rivojlantirish edi.

Yosh yengil atletikachilar sprintchi tezligiga va marafonchi chidamliligiga ega bo‘lishi kerak. Zamonaviy sport sportchilardan jismoniy sifatlarning doimiy rivojlanish va xar doim yangi darajaga ko‘tarilishni talab qiladi. Shuning uchun tayyorgarlik davrida shug‘ullanuvchilarga mashg‘ulot asoslaridan saboq berib borish lozim va amaliyotda nazorat qilish zarur, ya‘ni xar bir trenirovka oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalar ularni qaysi usul va vositalar yordamida amalga oshirish zarurligi bilan tanishtirib borish kerak.Tajriba va nazorat guruxi shugullanuvchilarining xaftalar soni, tajriba boshidan tekshirilgan mashgulotlar soni, sinov musobaqalari, mashg‘ulotlarning umumiy vaqti aniqlandi. Nazorat guruxidan ko‘ra tajriba guruxi shugullanuvchilari biz tamonimizdan tavsiya etilgan noananaviy usullardan foydalanildi. 10-11 yoshli o‘quvchilarni jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash va shunga asosan mashg‘ulot jaroyonini to‘g‘ri rejalashtirishga erishildi.

Jismoniy sifatlarni tarbiyalovchi vosita va uslublarni to‘g‘ri tanlanganligi tajribada isbotlandi.

10-11 yoshli o'quvchilarni yosh jixatlarini xisobga olib mashg'ulot jarayonini to'g'ri rejalashtirish va shug'ullanuvchilarni vosita va uslublar orqali asosiy jismoniy sifatlarini tarbiyalash kutilgan natijasini berdi. Tajribada 10-11 yoshli o'quvchilarni mashg'ulotlarga tayyorlashda ilmiy-uslubiy ko'rsatmalar, mashg'ulotlar shakllari xamda vositalari to'g'ri tanlanganligi amalda isbotlandi.

2.1-jadval

Pedagogik tajriba vaqtida nazorat va tajriba guruhlaridagi o'quv-mashg'ulot jarayoni tarkibi

№	Hajm va tarkib	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
3.	Haftalar soni	20	20
4.	Mashg'ulotlar soni	100	97
5.	Sinovlar	20	19
6.	Mashg'ulotlarining umumiy vaqti	9000 min (150 soat)	8730 min (145.5 soat)
7.	Shundan ananaviy usullar	7650 min 85%	6985 min 80%
8.	Shundan noananaviy usullar	1350 min 15%	1745 min 20%
9.	Umumiy chidamlilik	2700 min 30%	2620 min 30%
10.	Tezkor chidamliligi	1350 min 15%	1310 min 15%
11.	Kuch, epchillik, egiluvchanlik	2250 min 25%	2185 min 25%
12.	Tezlik	1800 min 20%	1745 min 20%
13.	Tezkor-kuchlilik sifatleri:	900 min 10%	870 min 10%

Yuqoridagi jadval va rasmda tajriba va nazorat guruxlarini mashg'ulotlari orasidagi farqni yaqqol ko'rish mumkin. Mashg'ulotlar bilan birga o'quvchilar o'rtasida maxsus testlar o'tkazildi. O'tkazilgan testlar natijasi qiyosiy taxlil qilindi. Bunda I va II, III tekshirish taqqoslanib ko'rsatilgan. Tajriba guruxi nazorat guruxiga qaraganda natijalar anchagina o'sganini ko'rsatib turibdi. Tekshirishlardan

davomida biz tajriba va nazorat guruxi yosh yengil atletikachi bolalarida yana bir testni, yani maxsus jismoniy tayyorgarlikni tekshirib ko'rdik. Bunda biz 60 m, Arqonda sakrash, 1000 m va 2000 m ga yugurish, Uzunlikga sakrash, Tennis koptogini uloktirish, Baland turnikda tortilish testlarini qabul qildik va bu natijalarni xam o'rtacha qiymatini xisoblab jismoniy sifatlarning rivojlanganlik darajasini xam aniqladik. 2.2. jadvaldan ko'rinib turibdiki, tajriba guruxi o'quvchilari nazorat guruxi tekshiriluvchilariga nisbatan jismoniy rivojlanish tomondan xam ko'rsatkichlar tomondan xam ustun kelishgan.

2.2-jadval

Tajriba va nazorat guruxlarining umumiy jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlarining o'sish dinamikasini solishtirish

Tekshirish davrlari	60 m ga yugurish (sek.)	Argamchi d sakrash (minutda marta)	1000 m ga yugurish (min.sek.)	2000 m ga yugurish (min.sek.)	Uzunlikga sakrash (sm.)	Tennis koptogi-ni uloktirish (m)	Baland turnikda tortilish (marta)
<i>Tajriba guruxi</i>							
I tekshir.	10,34	93,13	5:21,8	11:52,0	287,6	22,70	4,5
I I tekshir.	10,04	98,7	5:04,8	11:31,9	301,2	16,30	5,5
II tekshir.	9,72	104,0	4:53,0	11:10,7	325,0	32,81	7,7
<i>Nazorat guruxi</i>							
I tekshir.	10,27	91,7	5:21,4	11:50,0	289,0	23,15	4,7
I I tekshir.	10,15	95,3	5:16,4	11:35,4	295,0	25,38	5,1

I	9,9	97,	5:1	11:29	300	26,	5
II tekshi r.	7	6	3,5	,2	,5	58	,5

Tajriba guruxi o'quvchilari noananaviy mashg'ulotlarning ko'p qo'llanilishi va biz tomonimizdan tavsiya etilgan dastur asosida shug'ullanishi o'z natijalarini berdi. 10-11 yoshli o'quvchilarni yosh jixatlarini xisobga olib yengil atletika mashg'ulot jarayonini to'g'ri rejalashtirish va jismoniy sifatlarini rivojlantirishga erishildi.

XULOSA Yosh yengil atletika sportida jismoniy tayyorgarligi yuqori bo'lishi, harakat vazifalarini tez va to'g'ri bajara olish uchun, kuchli tezkor, chaqqon, chidamli va mustahkam irodali bo'lish talab etiladi.

Yosh yengil atletika sportida jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda asosan hozirgi zamonaviy talablarga javob beradigan vosita va usullar orqali takomillashtirish oldinga qo'ygan maqsad va vazifalarni tezroq bajarishga imkon yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.O'zbekiston Respublikasi hukumatining jismoniy tarbiya va sport masalalari bo'yicha bazi qarorlarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining Qarori, 1992 yil 26 may, 247-son

2.O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori, 1999 yil 27 may, 271-son

3.Bolalar sporti ob'ektlaridan foydalanish samaradorligini oshirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 2010 yil 5 may, PK-133

4.Легкая Атлетика R.Mamatqulov , Sh.kazakov A.Yusupbayeva, D.Umaraliyeva 2022 y

5.Qudratov R.Q. / Darslik. Yengil atletika. - T.: 2012 y. 384 b.

IV-V SINIF O`QUVCHILARIGA YENGIL ATLETIKA DARSLARINI O`TKAZISH USULLARIDA MASHG`ULOTLAR TUZILISHINING, MAZMUNI

Odilov Otabek Norboyevich

“Jismoniy madaniyat va sport” kafedrası katta o`qituvchi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Sayfiddinov Raxmon Bektosh o`g`li

CHDPU jismoniy madaniyat talabasi

o.odilov@cspi.uz

ANNOTATSIYA : Ushbu maqolada IV-V sinf o'quvchilariga jismoniy tarbiya darslarini o`tkazish usullarida mashg`ulotlar tuzilishining mazmun, yengil atletika sport turini o'qitishning yangi shakllari va usullari, o'quvchilarining sog'ligini tiklash va mustahkamlash orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish samaradorligini oshirish haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so`zlar: Jismoniy tarbiya, jismoniy madaniyat, jismoniy kuch, jismoniy sifatlari.

ABSTRACT : This article presents the effectiveness of the use of new forms and methods of teaching athletics in physical education lessons and the preservation and promotion of the health of schoolchildren as well as the development of physical qualities along with the use of game and competitive methods. Keywords: Physical education, physical culture, physical endurance, physical qualities.

KIRISH Dolzarbligi. Hozirgi kunda Jismoniy tarbiya va sport sohasi mustaqil O`zbekistonimizda jadal rivojlanib borayotgan va keng ahamiyat qaratilayotgan sohalaridan biridir. Shu sabliham o`quvchilariga jismoniy tarbiya darslarini samarali o`tkazish yosh avlodni jismonan sog`lom, aqlan yetuk bo`lib o`shida ahamiyati kattadir. Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga bo`lgan e`tibor davlat siyosati darajasiga ko`tarilgan. Bu borada qabul qilingan qonunlar jismoniy tarbiya va sport ishlarini rivojlantirishga keng yo`l ochib bermoqda. Ushbu soha boyicha respublikamizda keng ko`lamli ishlar olib borilayotgan bo`lib, bu ishlarning hammasi har tomonlama yetuk, ma`nan va jismonan sog`lom, O`zbekistonimizning porloq kelajagini yarata oladigan yoshlarni tarbiyalashga qaratilgandir. Bunday yoshlarni kamol toptirish uchun esa sog`lom hayot tarzini targ`ib qilish, bolalarning bo`sh vaqtlarini mazmunli o`tkazish ta`minlash, ularning jismoniy tarbiya darslariga va sportga bo`lgan qiziqishlarini oshirish zarur. Bu dolzarb vazifani samarali yechishda jismoniy tarbiya o`qituvchilarining zimmasiga katta ma`suliyatli vazifalar yuklaydi. Yengil atletika turlari texnikasini o`rgatish

Yengil atletika mashg`ulotlarning shakllari va tuzilishini o`rgatish tamoyillar mashg`uloti pedagogik tamoyillar asosida to`ziladi. Yengil atletika mashqlar bilan

shug`ullanishning maxsus xususiyatlari bulgani uchun (nerv va jismoniy kuchning zo`r bo`lishi, shug`ullanuvchi organizmining funksional imkoniyatlarini oshirish kerakligi kabilar), pedagogika tamoyillar yengil atletika mashg`uloti protsessiga moslanib rivojlana boradi. Bundan tashqari, yengil atletika mashg`ulot jarayoninig, shu jumladan, o`quv mashg`ulotning xususiyatlarini aks ettiradigan tamoyillar ham paydo bo`ldi.

Yengil atletika mashg`ulot jarayonida onglilik va faollili, o`qitishga ongli munosabat va unda shug`ullanuvchining faolliigi har qanday pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi. P.F. Lesgaft ilgari surgan jismoniy tarbiya ta`limidagi onglilik va faollilik tamoyilii harakat faoliyatlarini mexanik ravishda taqlid qilib bajarish orqali harakatlarni o`zlashtirishni qat`iyan qoralaydi va birinchilardan bo`lib harakatlarni taqqoslay olish, uning tahlilini qilish orqali nazariy bilimlarni va harakat faoliyatlarini egallash g`oyasini ilgari surdi. U “jismoniy mashq bilan shug`ullanish faqat kuchni, va jismoniy rivojlanganlikni ko`rsatkichlarini oshiradi”, – degan qo`pol xato tushunchani asosiy xatolardan biri deb ko`rsatdi. Tarbiya jarayonida bu tamoyilni qo`llash mashg`ulotni umumiy vazifalariga qiziqishni uyg`otish va fikrlashni shakllantirish bilan boshlanadi. Eng avvalo, harakat faoliyatini hayotiy -amaliyligi aniq misollar yordamida, motivatsiyalash, ta`limning mavzulashtirish orqali amalga oshirila boshlanishi lozimligiga urg`u beradi. Bundan tashqari, shug`ullanuvchilar jismoniy madaniyat, sport mavzulariga oid muntazam leksiyalar, suhbatlar, hikoyalar eshitishlari, maktab jismoniy tarbiya dasturining nazariy qismini o`rganishlari, metodik va hujjatli filmlar ko`rishlari, o`z-o`zini tibbiy nazorat qilish qoidalarini bilishlari, “aktiv, passiv dam”, “bajara olish”, “harakat malakasi”, “oliy harakat tartibi”, “malakaning ijobiy va salbiy ko`chishi” atamaları mohiyatini tushunishlarini ahamiyati muhim.

Mashq, harakat texnikasini egallash, oz energiya sarflab samarali harakat qilish, uni bajarish orqali organizmda sodir bo`ladigan turli xil o`zgarishlarni tushunish, topshiriqqa nisbatan onglilik va faollikni oshiradi. Undan tashqari organ va sistemalarining funksional tayyorgarlik darajasiga, tashqi muxitning ma`lum sharoitidagi harakat faoliyatiga bog`liqdir. Har bir yengil atletik mashqning o`z shakli va mazmuni bor. Mashq shakli- harakatlarning, yo`nalishlarning, amplitudalarning, ayrim zvenolar tezligining, sur`atining, ritmining va yaxlit faoliyatidagi bir vaqtda va ketma-ket ijro etiladigan harakatlar muayyan mosligining kinematik to`zilishidir.

XULOSA O`quvchilarning jismoniy tayyorgarligi yuqori bo`lishi, harakat vazifalarini tez va to`g`ri bajara olish uchun, kuchli tezkor, chaqqon, chidamli va mustahkam irodali bo`lish talab etiladi. O`quvchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda asosan hozirgi talablarga javob beradigan vosita va usullar orqali takomillashtirish oldinga qo`ygan maqsadga tezroq yetishga imkon yaratadi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1.O`zbekiston Respublikasi hukumatining jismoniy tarbiya va sport masalalari bo`yicha ba`zi karorlarini o`z kuchini yo`qotgan deb hisoblash to`g`risida, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining Qarori, 1992 yil 26 may, 247-son

2.O`zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish choratadbirlari to`g`risida, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori, 1999 yil 27 may, 271-son

3.Bolalar sporti ob`ektlaridan foydalanish samaradorligini oshirish borasidagi qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 2010 yil 5 may, PK-133

4.Легкая Атлетика R.Mamatqulov , Sh.kazakov A.Yusupbayeva, D.Umaraliyeva 2022 y

5.Qudratov R.Q. / Darslik. Yengil atletika. - T.: 2012 y. 384 b.

СУЗИШ СПОРТ ТУРИНИНГ ФОЙДАЛИ АҲАМИЯТИ ВА ДАВОЛОВЧИ ТАЪСИРИ.

Чирчиқ давлат педагогика университети

«Житсмоний маданият ва спорт»

кафедраси катта ўқитувчиси

А.Т.Жумаев

Жисмоний маданият талабаси

Норкулов Нурбек

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена вопросам актуальности плавания как общедоступного вида спорта. Автор доказывает эффективность плавания как профилактическое средство против различных заболеваний, а также универсальность его применения среди людей различного возраста и состояния здоровья.

Ключевые слова и понятия: занятия оздоровительным плаванием, здоровье, польза для здоровья, улучшает обмен веществ, сон и аппетит.

ANNOTATION

The article is devoted to the relevance of swimming as a public sport. The author proves the effectiveness of swimming as a prophylactic against various diseases, as well as the universality of its use among people of different ages and health conditions.

Key words and concepts: recreational swimming classes, health, health benefits, improves metabolism, sleep and appetite.

Сузиш инсонга завқ бағишлайди. Айниқса, ёзда купчиликнинг мириқиб сузгиси келади. Бунинг учун кимдир махсус хавзаларни танласа, яна кимдир дарё ёки кўл, оқар сувни хуш кўради. Бироқ сузиш бу фақатгина роҳат олиш дегани эмас, албатта. Унинг саломатликка фойдали томонлари жудаям кўп.

Ўз навбатида, сузиш билан шуғулланиш учун киши билиши, ҳамда амал қилиши лозим бўлган қойдалар ҳам мавжуд. Қуйида шу ҳақда тўхталиб ўтмоқчиман. Сузишнинг фойдали томонларини айтидиган бўлсак, мутахассисларнинг сўзларига кўра, сузиш-аввало инсон иммуннитетини мустаҳкамлаб, шамоллаш, ялиғланиш каби хасталикларнинг олди олинишини айтишади. Шунингдек, гавда ва қади-қомад тўғри шақиланади. Модда алмашинуви, уйқу ва иштаха яхшиланади. Асаб, нафас ва юрак қон-томир тизими, шунингдек, таянч-ҳаракат аъзолари фаолиятида ижобий томонга ўзгаришлар кузатилади. Яссиоёқликнинг олди олинадиган ва болаларда ирода, ўзига бўлган ишонч ва сабр-тоқат хислатлари шақиланади ва х.з. [5].

Ёш жихатдан барчага умумий таъсири эса қўйдагича:

Юракка қувват. Мунтазам равишда сувда сузиш машқлари юрак қонтомир тизими учун яхши фойда беради. Чунки сузишни бошлаганингиз заҳоти артериал қон босими меъёрига келади. Юрак мушаги чиниққанлиги боис унинг эластиклиги ортади. Нафас олиш тизимидаги муаммолардан халос этади. Агар бронхит ёки ўпка яллиғланишидан азият чексангиз, шифокор тавсиясига кўра сузиш билан шуғулланишингиз лозим. Чунки бу спорт турида мунтазам нафас машқларини бажаришингизга тўғри келади. Натижада ўпка чиниқади. Бундан ташқари, гипоксия (кислород етишмаслиги) дан халос этади.

Асабларни тинчлантиради. Сув танани бўшаштириш хусусиятига эга бўлиб, мушакдаги спазмларни кетказди. Мия тин олиб, уйқу ва хотира яхшиланади. Сувга тушгач, барча ташвишларни унутасиз ва рухий зўриқишлардан халос бўласиз.

Остеохондрозни даволайди. Ҳовузда сузиш, айниқса, умуртқа поғонасида муаммолари бор беморларнинг севимли машғулотига айланиши лозим. Бу спорт тури умуртқа қийшайишининг олдини олади ва бўғимлар билан боғлиқ артрит хасталикларини даволашда яхши самара беради.

Оздиради. Бир соат сувда сузиш нақд килокалориялардан халос этади. Машғулотларга мунтазам қатнаш натижасида моддалар алмашинуви яхшиланиб, ортиқча сантиметрлар ўз-ўзидан йўқола бошлайди.

Семиришни истаганлар учун ҳам фойдали

Қандай қилиб дейсизми? Сузиш машқлари давомида танангиздаги барча мушаклар ишлайди. Мушаклар ҳаракатлангани сари ўсиб бораверади. Натижада ёғлар ҳисобига эмас, айнан мушаклар ҳисобига чиройли қоматга эга бўласиз.

Варикознинг олдини олади

Сузиш машғулотида кейин қон айланиши яхшиланади, бундан ташқари, асосий юклама болдир ва оёқ кафтига тушгани учун веналарда йиғилиб қолган қон тарқала бошлайди. Албатта ҳамма нарсалар каби сузиш ва чўмилишнинг ҳам салбий жихатлари бор. Кимёвий усул билан тозаланган сувда аллергияга мойил ёки териси қуруқ болаларда аллергия дерматит пайдо бўлиш хафи мавжуд. Шу билан бирга сузиш болада қулоқ ва тиш оғриғи, тумов, бурун оқиши каби касалликларни қўзғатиш мумкин. Шу бойс сузишга қатнашётган болаларда қулоқ оғриғи, тумов каби аломатлар сезилса, машғулотни вақтинча тўхтатиш лозим. Мутахассис Алексей Дерлюгов фикрича, (сузиш бўйча халқаро тойфадаги спорт устаси, Ўзбекистон Республикаси терма жамоаси азоси сифатида ЛОНДОН – 2012 Олимпия ўйинларида иштирок эткан): Сузиш – спорт турлари орасида энг оммавийлардан бири. Бу бежиз эмас. Инсон сузган

пайтда тана гўёки массаж олади, қон айланиш ва асаб тизими фаолияти яхшиланади. Турли усулларда сузиш эса баданни мутаносиб ҳолатда чиниктириб улғайтиради. Ҳозир сузиш билан шуғуланиш учун юртимизда етарлича шароитлар, яратларилмоқда – замонавий сув ҳавзалари сони кўпаймоқта. Сузиш айрим касалликларни бартараф этишда жумладан, диск чурраси касалига чалинган кишиларга катта ёрдам беради [3]. Инсон сузганда унинг танаси сувдаги кислороддан тўйинади. Натижада, танадаги зарарли ёғлар парчаланиб ортиқча вазн йўқолади.

Қизиқарли фактлар. Ерта ёшлигида сузишни ўрганган болалар ривожланишининг асосий босқичларини ўз тенгдошларига нисбатан аввалроқ босиб ўтишади, кўпроқ, кенгроқ билим ва кўникмаларни ўзлаштириш имконига эга бўлишади. Қайд этилишича, эрта сузишни ўрганган болалар жисмоний жихатдан тезроқ ривожланган, визуал-моторли билимларни тез ўзлаштирган, математик масалаларни яхшироқ ҳисоблаган. Уларнинг нутқи ҳам яхшироқ ривожланган, яхши ҳисоб-китоб қилган [6].

Америкалик спортчи, еркин-кураш бўйча 1972 йилда ГФРнинг Мюнхен шаҳрида бўлиб ўтган, ёзги олимпийяда ўинлари ғолиби Дэн Гейбл, айнан ўз спорт фаолиятини илк маротаба сузиш спорт туридан бошлаган ва 14 ёшгача фақатгина спортнинг сузиш тури билан мунтазам шуғуланиб келган [7].

Еркин-кураш бўйча олимпийяда ўинларида ғолиб бўлганининг сабабларидан бирини у шундай изоҳлайди, мени сузиш хавзасига илк маротаба онам 6 ёшимда олиб келган. Мен еркин-кураши каби жуда оғир юклаган спорт тури буича олимпийяда ўинлари ғолиби бўлишимнинг сабаби - айнан сузиш спорт турида ортирган чидамлик, жисмоний сифати бўлди деб таъкитлайди. Чунки Д. Гейбл кураш гиламида ўз рақибларига жуда катта тез суръатда хужум қилиб, кураш темпини тобора ошириб бориб уларни мағлуб бўлишга мажбур этар эди ва чидамлилиги рақиблардан хамиша юқори даражада бўлгани боис ўзи нисбатан чарчамас эди.

Қадимий юнон файласуфи Арасту (Аристотель) (м.а. 384-322) «Агарда менга таянч нуқтасини беришса-мен ёр сайёрасини тўнтара оламан» деган. Ден Гейбл эса Арастудан фарқли ўлароқ, ўзининг рақибларини гиламда таянч нуқтасидан маҳрум қилар эди. Ха чиндан ҳам у ўзининг юрак қон-томир тизимини сузиш спорти орқали муккамал даражада чиниктирган, жисмоний сифатлари ривожланган юқори малакали спортчи бўлиб кураш соҳасига кириб келган эди. Шундай спортчилар каби, ота-онаси сузиш спорт секциясига ёшлигидан олиб келган ўзимизнинг болаларимиз, ҳам Республикада қобилятли ёш спортчи болиб сузувчилар, етишиб чиқа бошлади. Олимпиада ўинлари, халқаро мусобақаларда муваффақиятли иштирок этган С.Бабанина, Н.Устинова, С.Искандарова, С.Конов, С.Заболотновлар спортнинг ана шу

турида шухрат қозондилар. Ҳозир республикамизнинг вилоят ва туман марказларида 200 дан ортиқ сув ҳавзалари мавжуд.

Адабиётлар:

1. Познакомтесь – плавание Булгакова Н.Ж. г.и. 2002 г. 25-28 б.
 2. Самоучитель по плаванию Ситников М.В.1-4 б. 2007 г.
 3. Юришдан аввал сузиш Махмуда Беккулбекова 2015 й. 45-50 б.
 4. Плавание Харвест Астрель 30-32 б. 2010 г.
 5. Как научить вашего малыша плавать Дуглас Доман 2016 г. стр. 15-16
 6. Плавание для малышей Б.Ф. Фридман 2015 г. стр. 22-23
 7. И дружбой сильны богатыри Ян Дымов 1983 г. Стр. 86-87
- Электрон маънабалар: <http://sport.ziyonet.uz/uzc/kinds/62>

БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРИДА ТАШКИЛОТЧИЛИК КОМПЕТЕНСИЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТУЗИЛМАВИЙ ДАРАЖАСИ

Одилов Отабек Норбоевич

Чирчиқ давлат педагогика университети

“Жисмоний маданият va sport” кафедраси ўқитувчи

o.odilov@cspi.uz

Алиёрова Сураё Кахрамон кизи

ЧДПУ жисмоний маданият талабаси.

АННОТАЦИЯ

Ташкилотчилик компетенсияси замонавий педагогикага зарур бўлган қобилиятлардандир. Ушбу мақолада жисмоний тарбия ўқитувчиларида ташкилотчилик қобилиятини ривожлантиришнинг даражасини назарий жиҳатларини ёритиб беради.

Таянч иборалар: ташкилотчилик қобилияти, замонавий педагог, услубий кўрсатмалар, ахлоқий фазилатлар, чидамлилиқ, талабчанлик.

АННОТАЦИЯ

Организаторские способности – одно из качеств, необходимых современному педагогике. В данной статье рассмотрены теоретические аспекты уровня развития организаторских способностей у учителей физической культуры.

Ключевые слова: организаторские способности, современный педагог, методические установки, нравственные качества, выносливость, требовательность.

ANNOTATION

Organizational skills are one of the qualities necessary for a modern teacher. This article discusses the theoretical aspects of the formation of organizational skills in physical education teachers.

Key words: organizational skills, modern teacher, methodological guidelines, moral qualities, endurance, exactingness.

Жаҳон тажрибасида жисмоний тарбия фанига шунчаки машғулот ўтказиш эмас, балки бутун бошли тизим сифатида қаралгани боис бу фанга муайян талаблар қўйилади.

Республикада таълим соҳасида амалга оширилаётган ислохотларнинг асосий мақсади юксак ахлоқий фазилатларни ўзида мужассамлаштирган, маданиятли, эътиқодли, маърифий ва маънавий жиҳатдан баркамол, мустақил фикрлайдиган шахсни тарбиялаш каби вазифалар белгилаган.

Ташкилий ишлар ҳамда ёшлар тарбияси ва уларнинг интеллектуал салоҳиятини оширишга қаратилган кенг қўламли чора-тадбирлар изчил давлат

сиёсатининг амалий ифодаси ҳисобланади. Услубий кўрсатмалар сифатида таълим сифатини лойиҳалашнинг дидактик параметрларини ишлаб чиқишга оид фаол ёндашувлар, уларнинг асосий қоидалари сифатида ишлатилади. Ушбу ташкилотчилик асосидаги ёндашувларнинг бирлаштирилиши лойиҳалаштиришнинг моҳиятини атроф-муҳит ва шахсни ўзгартирадиган фаолият сифатида кўриб чиқишга имкон берди. Шу ўринда бўлажак педагогнинг иш фаолияти негизи ўқувчиларга таълим-тарбия беришда ақл-заковати, билими ва ташкилотчи ўқитувчи бўлишини талаб этади. Бугунги кун ёшларининг замон талаблари асосида жадал ривожланиши ва ўсишини ҳисобга олсак, бу тушунчанинг ва бу тушунча омиллари мазмунини теран англашимизга тўғри келади.

Boshlang'ich sinflarida o'qish fanini o'qitishning asosiy maqsadi: milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalari o'qitish orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantirish hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish; o'quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni o'rgatish jarayonida olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o'quvchilarning ma'naviyatini, dunyoqarashini kengaytirib, mustahkamlab borishdan iborat.

O'qish (1-4-sinf) fanini o'qitishning asosiy vazifasi: o'quvchilarning og'zaki nutqi adabiy til me'yorlari asosida shakllanishi va rivojlanishini ta'minlash, nutqiy kompetensiyani o'stirish; yozma nutqda yuksak savodxonlik, adabiy til me'yorlariga rioya etish, uslubiy rang-baranglikdan foydalana olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish hamda dastlab tanish, keyin notanish matn ifodali o'qitilib, o'quvchidagi ko'nikma, malaka aniqlanadi. Shuningdek, miqdoriy ko'rsatkich - o'qish tezligi, ongli va ravon o'qish, bir daqiqada nechta so'z o'qiy olishi ham belgilanadi. 3- va 4-sinflar o'qish dasturida mavzular ko'lami ancha kengayadi. Bu sinflarda o'qish darslarining kattagina qismi asami o'qish va matn ustida ishlashga qaratiladi. Darsda o'quvchilarning faolligini oshiradigan, tasavvurlarini boyitadigan usullardan foydalanish, asarlarni janr mazmunidan kelib chiqib, rollarga bo'lib o'qish, qahramonlar nomidan qayta hikoya qilish, qahramonning taqdiri haqidagi hikoyani davom ettirish, qiziqarli mavzularda og'zaki hikoya tuzdirish kabi ijobiy topshiriqlardan foydalanish kabi ishlar amalga oshiriladi.

Har bir o'quvchi ma'ktabga qadam qo'yar ekan birinchi navbatda o'qishni, yozishni, to'g'ri talaffuz qilishni o'rganadi. Umumiy qilib aytganda savodxonligini oshiradi.

O'qish va o'qish savodxonligi yillar davomida o'zgarib, jamiyat, iqtisodiyot, ma'daniyat va texnologiya sohaslarida o'z aksini topadi. O'qish faqat ta'limning dastlabki bosqichlarida, bolalikda o'zlashtirilgan qobiliyat deb hisoblanmay qo'ydi. Chunki bugungi kunda bu qobiliyat shaxsning butun umri davomida turli xil katekstlarda o'z tengdoshlari va keng jamoatchilik bilan muloqot qilish asosida rivojlanib boradigan bilim, ko'nikma va malakalar usullar jamlanmasi sifatida ta'riflanadi. O'qish savodxonligi nafaqat ta'lim tizimida, balki boshqa sohalarda ham yutuqlarga erishish uchun asos hisoblanadi. Birinchi navbatda o'quvchining kitob o'qish qobiliyatiga e'tibor berish, jumladan, uning ma'lumotlar tanlash, tushunish talqin qilish va baholash tadqiqotning asosiy maqsadlaridan biridir.

Savod o'rgatish metodikasi, ya'ni elementlar o'qish va yozishga o'rgatish. Bolalarga savod o'rgatish pedagogika fanidagina emas, balki ijtimoiy hayotda ham juda jiddiy masalalardan hisoblanadi. Chunki xalqning savodxonligi mustaqillik

uchun, siyosiy onglilik uchun, ma'daniyat uchun kurash qurolidir. Savod o'rgatish jarayonida PIRLS xalqaro dasturi ham katta ahamiyatga ega.

PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilashda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan tahlillarni taqdim etadi. Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifi ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir.

PIRLS testi o'quvchilarning lug'atda mavjud bo'lgan matn tushunchalarini tahlil qilish, nazariyani amalga oshirish, matnni tahlil qilish va turli ma'lumotlarga qarab savolga javob berish qobiliyatlarini baholaydi. Bular o'quvchilarning o'qish tajribalarini chuqurroq tahlil qilishga imkon beradi va o'qish va fikrlash ustuvorliklarini oshirishga qaratilgan o'qishni oshirish strategiyalarini aniqlashga yordam beradi.

PIRLS dasturi o'quvchilarning o'qish tajribalarini chuqurroq tahlil qilishga yordam beradi. Bu ma'lumotlar asosida o'qitish metodikasini rivojlantirish va o'quvchilarni o'qishni tushunish qobiliyatini o'stirib borish, matnni tahlil qilish va fikrlashga o'rgatish mumkin.

Savod o'rgatish uchun quyidagi metodlardan foydalansak darsimiz qiziqarli va mazmunli o'tadi.

“FIKRIY HUJUM” metodi o'quvchilarning mashg'ulotlar jarayonidagi faolliklarni ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlash inersiyasidan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rgatish uchun xizmat qiladi. “FIKRIY HUJUM” “metodi A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo'lib, uning asosiy tamoyili va sharti mashg'ulotlarning har bir ishtirokchisi tomonidan o'rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutloqo ta'qiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag'batlantirishdan iboratdir. Bundan ko'zlangan maqsad o'quvchilarning dars jarayonidagi erkin ishtirokini ta'minlashdir. Ta'lim jarayonida ushbu metoddan samarali va muvoffaqiyatli foydalanish o'qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko'laminin kengligiga bog'liq bo'ladi. “FIKRIY HUJUM” metodidan foydalanish chog'ida o'quvchilarning soni 15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodga asoslangan mashg'ulot bir soatga qadar tashkil etilishi mumkin.

Xulosa qilib aytadiganda, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida o'qish savodxonligini oshirish ularning umumiy akademik muvoffaqiyati va rivojlanishi uchun juda muhimdir. Progress in Internatiol Reading Literacy Study PRLS dasturi o'quvchilar o'rtasida o'qish ko'nikmalarini oshirish uchun qimmatli tushuncha va

ko'rsatmalar beradi. Dastlabki savodxonlikni oshirish tadbirlarini, tuzilgan savodxonlik dasturini, o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, kitobxonlik ma'daniyatini oshirish, ota-onalarning ishtirokini rag'batlantirish va ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishdan foydalanish orqali maktablar boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida o'qish savodxonligini oshirishda sezilarli yutuqlarga erishishlari mumkin. Maktablar uchun dalillarga asoslangan amaliyotlarni qabul qilish, doimiy kasbiy rivojlanish bilan shug'ullanish, o'qishga bo'lgan muhabbatni kuchaytirish, ota-onalar va tarbiyachilar bilan hamkorlik qilish va ta'lim qarorlarini xabardor qilish uchun ma'lumotlardan foydalanish juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumanova Fotima Uralovna . Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirishning nazariy asoslari. "PEDAGOGIS" international research journal
2. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash. Boshlang'ich sinf o'quvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma. Toshkent: Sharq, 2019.
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/PIRLS>

INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BIOLOGIYA FANINI O'QITISH VA BIOLOGIYA DARSLARIDA 3D GOLOGRAMMADAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Xolikova M.A.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Tabiiy fanlar fakulteti, Biologiya kafedrası, b.f.f.d., dots.v.b.

Usmonov O.A.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya: Maqolada hozirgi paytda biologiya fanlarini o'qitishda yangi zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati va qo'llanilishi, biologik ta'limdagi 3D gologrammalarining afzalliklari to'g'risida so'z yuritiladi

Kalit so'zlar: biologiya, texnologiya, gologramma, manipulyatsiya, organ.

Аннотация: В статье рассматривается важность и использование новых современных технологий в преподавании биологических наук, преимущества 3D-голограмм в биологическом образовании.

Ключевые слова: биология, технология, голограмма, манипуляция, орган.

Abstract: The article discusses the importance and use of new modern technologies in teaching biological sciences, the advantages of 3D holograms in biological education.

Keywords: biology, technology, hologram, manipulation, organ.

Hozirgi zamonaviy fan va texnologiyaning jadal rivojlanishi jarayonini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari inson turmush tarzining barcha sohalarida ta'lim, texnologiya, ishlab chiqarish va ko'plab sohalarning ajralmas vositasiga aylanib ulgurdi[1].

Ta'limni axborotlashtirish-darsni qiziqarli hamda ko'rgazmali interfaol qilib, vaqtdan unimli foydalanishga olib keladi[4]. Biologik ta'limdagi 3D gologrammalarining eng ko'zga ko'ringan afzalliklaridan biri bu ularning murakkab ob'ektlarni hayotiy tarzda ko'rsatish qobiliyatidir. Biologiya darslarida o'quvchilar inson tanasining 3D gologramma modelini dars davomida qiziqarli va tushunarli tarzda o'rganishi mumkin.. Darsliklardagi statik suratlar o'rniga ular mavzuni chuqurroq anglab, manipulyatsiya qilish, kattalashtirish va tananing turli tizimlari va organlarini o'rganishi mumkin. Ushbu chuqur o'rganish tajribasi nafaqat ta'limni yanada qiziqarli qiladi, balki mavzuni xotirada saqlash va tushunishni yaxshilaydi.

3D gologrammalar, ayniqsa, STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) ta'limiga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Ushbu fanlar ko'pincha an'anaviy o'qitish usullari orqali tushunish qiyin bo'lgan murakkab tushunchalarni o'z ichiga oladi. 3D gologrammalar mavhum g'oyalarni tasavvur qilish va ularni aniq o'rganish tajribasiga aylantirish uchun samarali vosita hisoblanadi. Masalan, fizika fanida talabalar murakkab molekulyar tuzilmalarni tasavvur qilishlari mumkin, matematikada esa interaktiv golografik modellar yordamida geometriyani tushunishlari mumkin. Ushbu texnologiya nazariya va amaliy qo'llash o'rtasidagi tafovutni yo'qotib, STEM fanlarini yanada qulayroq va qiziqarli qiladi[2].

Ta'limda amaliy ta'lim tushunchasi doimo yuqori baholangan. 3D gologrammalar ushbu kontseptsiyani keyingi bosqichga olib chiqadi. Kengaytirilgan reallik (AR) va virtual haqiqat (VR) texnologiyalaridan foydalangan holda o'quvchilar qurbaqani deyarli parchalashlari, qadimiy tarixiy joyni o'rganishlari yoki inson hujayrasi ichiga kirishlari mumkin. 3D gologramma bilan imkoniyatlar cheksizdir. Talabalarga uch o'lchovli fazoda ob'ektlarni manipulyatsiya qilish va o'rganish imkonini berish orqali gologrammalar qiziquvchanlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradigan interfaol o'quv muhitini yaratadi.

3D gologrammalar, ta'limda yuqori darajadagi shaxsiylashtirish imkonini beradi. O'qituvchilar darslarni individual ta'lim uslublariga moslashtirishi, vizual, eshitish yoki kinestetik o'quvchilar uchun tarkibni moslashtirishi mumkin. Misol uchun, tarix o'qituvchisi gologrammalardan tarixiy voqealarga immersiv virtual

sayohat yaratish uchun foydalanishi mumkin, til o'qituvchisi esa til amaliyoti uchun golografik suhbatlardan foydalanishi mumkin. Ushbu parametr talabalarning turli ehtiyojlarini hisobga oladi va ta'limni yanada eksklyuziv qiladi.

Ta'limga 3D gologrammalarni joriy etish geografik to'siqlarni yengib o'tishga yordam beradi. Talabalar ilgari faqat ma'lum joylarda mavjud bo'lgan kontent va tajribalarga kirishlari mumkin. Misol uchun, chekka hududdagi sinf taniqli muzeyga virtual sayohatga borishi, san'at asarlari va artefaktlarni batafsil o'rganishi mumkin. Bu ularning bilimini boyitibgina qolmay, dunyoqarashini kengaytiradi.

Butun dunyoda pedagoglar oldida turgan muammolardan biri bu resurslarning yetishmasligi. Ko'pgina maktab va muassasalarda zamonaviy laboratoriya jihozlari, tarixiy ashyolar, san'at kolleksiyalari mavjud emas. 3D gologramma texnologiyasi bu cheklovlarni engishga yordam beradi. Ob'ektlarning raqamli nusxalarini yaratish orqali o'qituvchilar qimmat jismoniy resurslarga muhtoj bo'lmasdan talabalarga amaliy tajribalarni taqdim etishlari mumkin.

3D gologrammalarning paydo bo'lishi bilan baholash usullari ham rivojlanmoqda. An'anaviy yozma imtihonlar va viktorinalar asta-sekin qiziqarli va interaktiv baholashlar bilan to'ldirilmoqda. Masalan, tarix viktorinasida talabalar virtual muhitda golografik tarixiy sahnalarni o'rganishlari va savollarga javob berishlari mumkin. Bu nafaqat baholashni yanada yoqimli qiladi, balki o'quvchilarning tushunishini amaliy jihatdan baholash imkonini beradi[3].

Texnologiyaning rivojlanishi bilan 3D gologrammalarning ta'limdagi roli kengayadi. 5G va takomillashtirilgan AR/VR qurilmalarining paydo bo'lishi bilan gologramma kontentni yetkazib berish yanada muammosiz bo'ladi. Bu misli ko'rilmagan usullarda hamkorlik qilish, o'rganish va tajriba almashish imkoniyatiga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar va talabalarning global tarmog'ini yaratish imkoniyatiga ega. 3D gologramma texnologiyasi bilan jihozlangan aqlli zavod bo'ylab sayohat ishlab chiqarish yanada samaraliroq, xavfsizroq va tezkor bo'ladigan kelajakni ochib beradi. Golografik texnologiya nafaqat mahsulotlarni yaratish usulini yaxshilaydi; u ishlab chiqarishning o'z tabiatini qayta shakllantirmoqda.

Xulosa qilib aytganda, biologiya fanlarini o'qitishda yangi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarni o'zlashtirish salohiyatini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Loh Ngiik Hoon & Siti Shukhaila Bt. Shaharuddin(2019). Learning Effectiveness of 3D Hologram Animation on Primary School Learners. Universiti Malaysia Sarawak, P. 93-104
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi. 2000 yil.

3. Prof. Uchenna Nzewi, Dr. Appollonia Nwosu, Dr. Nkadi Onyegegbu at all(2021). “ Experimentation in Biology Teaching” National Open University of Nigeria. P.14-18

4. Tolipov J. O. , G‘ofurov A. T. Biologiya o‘qitish metodikasi. Pedagogika oily o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv darslik. Toshkent. 2007 yil.

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA PEDAGOGIK JARAYONLARNI TAKOMILLASHTIRISH

O‘tayev Akram Yo‘ldoshevich

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti, P.f.f.d (PhD)

Nishanova Feruza Yoqubjanovna

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti,

Maktabgacha ta'lim yo‘nalishi

MAT 23-4 guruh talabasi

***Annotatsiya:** Maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni takomillashtirish oid ilmiy tadqiqotlar tahlil qilinib, mazkur jarayonni yanada takomillashtirish maqsadida uni bolalarning individualligiga yo'naltirish hamda maktabgacha ta'lim xodimlarining o'zaro xamkorlik masalalari yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, innovatsion metod, innovatsion texnologiya, ta'limni individuallashtirish, hamkorlik.*

***Abstract:** The article analyzes scientific research on the organization of the educational process in preschool educational institutions, in order to further improve the process, focusing it on the individuality of children and the issues of mutual cooperation of preschool education workers are highlighted.*

***Keywords:** preschool education, innovative method, innovative technology, individualization of education, cooperation.*

Mustaqil O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, avvalo maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida boshlanishi globallashuv jarayonida bolalar tarbiyasida eng asosiy bo‘g‘in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o‘rni beqiyosligida dalolatdir.

Darhaqiqat, maktabgacha ta'lim muassasalari – O‘zbekiston Respublikasidagi ta'lim muassasalarining turi bo‘lib, turli yo‘nalishdagi maktabgacha bo‘lgan davrdagi umumta'lim dasturlarini amalga oshiradi. Maktabgacha ta'lim muassasalari 2 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarni tarbiyalashni, o‘qitishni, nazorat qilishni, parvarishlashni va sog‘lomlashtirishni ta'minlaydi.

O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda o‘sib kelayotgan yosh avlodni sog‘lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga

samarali shakl va usullarni joriy etish hamda innovatsion g'oyalarni targ'ib etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish muhim vazifalarimizdan biridir. Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovini ta'minlash, tashkilotlarni o'quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarni jalb qilish, ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalalarini hal etish zarurligini ko'rsatmoqda. Bu vazifalarni samarali amalga oshirilishi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachi, uslubchi va psixologlari zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi. Bolalarga maktabgacha yoshidan boshlab zamonaviy ta'lim berish, ularni psixik, aqliy va ijtimoiy jihatdan faol rivojlantirish – hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hal qilinishi kerak bo'lgan dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga ta'lim-tarbiya berish muammosiga bir qator olimlarning (F.R. Qodirova, L.R. Mo'minova, G.E. Djanpeisova, Sh.A.Sodiqova, G.A. Mardonova, G. Nazirova, N.Sh. Abdullayeva, D.A. Abduraximova, M. Abdullayeva, 4 Z.A. Botirova, A.E. Rustamova va boshq.) ilmiy tadqiqot ishlari bag'ishlangan. F.R. Qodirova, Sh.Q. Toshpo'latova, N.M. Qayumova, M.N. A'zamova va Sh.A. Sodiqova o'z ilmiy izlanishlarida maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasining ilmiy-nazariy asoslari o'rganilgan bo'lib, maktabgacha pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari, bosqichlari, bolalar rivojlanishiga ta'sir etuvchi biologik va ijtimoiy omillar, maktabgacha yoshdagi bola psixik taraqqiyotining asosiy bosqichlari, ta'limning didaktik tamoyillari, bolalarga pedagogik ta'sir ko'rsatish, maktabgacha ta'limni tashkil etish shakl va metodlari hamda maktabgacha ta'lim va tarbiyada pedagogik texnologiyalarni qo'llashning nazariy asoslari yoritilgan.

G.E.Djanpeisova maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarida matematik tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish muammolarini tadqiq etgan.[8]Muallif o'z tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarda arifmetika va geometriyaga oid ilk bilimlarni shakllantirish yo'llari, vositalari hamda pedagogik shart-sharoitlarini tadqiq etgan. Bolalarda matematik bilimlarni shakllantirish va rivojlantirish ularning aqliy rivojlanishi, o'zini anglashi, ijtimoiylashuvida muhim omillardan bo'lishini aniqlagan. Bolalarga interaktiv mantiqiy-matematik ta'limni tashkil etishda kompyuterli muhitning ahamiyatini alohida e'tirof etgan. Bolaning vositachi-personajlar orqali kompyuter bilan virtual tashkillashtiriladigan dialogi kompyuterni-jonlantirib, bolaning harakatlarini faol va ongli bo'lishini ta'minlaydi.

G.A.Mardonovanning ilmiy tadqiqot ishi oilada bolalarni alla vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash muammosini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotchi allaning ijtimoiy-g'oyaviy mazmuni, tarbiyaviy ta'siri hamda-alla so'zining etimologik ma'nosi va tarixiy shakllanishini

pedagogik nuqtai nazardan talqin etgan. Bolalarni alla vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning falsafiy, pedagogik va psixologik holatini tahlil etib bolalarning yoshi, psixologik-ma'naviy rivojlanishi bo'yicha ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga yo'naltirilgan alla turlarini didaktik mazmuniga ko'ra tasniflagan. Bundan tashqari, -oila-mahalla-maktabgacha ta'lim muassasasini o'rtasidagi hamkorlik faoliyati asosida bolalarni alla vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash samaradorligini oshirishning ijtimoiy-pedagogik mexanizmi takomillashtirilgan bo'lib, bolalarni alla vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash metodining samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni takomillashtirish muammosini G.M.Nazirova tadqiq etgan. Tadqiqotchi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda tizimli yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari va pedagogik-psixologik imkoniyatlarini tavsiflab, ushbu jarayonlarni tizimli yondashuvga tayangan holda takomillashtirish modelini nazariy empirik jihatdan asoslagan. Pedagogik jarayonni takomillashtirish modeli ta'limiy-tarbiyaviy faoliyat komponentlarining rivojlanish sohalari bilan o'zaro integratsiyalash, refleksiv uzviylikni ta'minlash hamda mustaqil faoliyatni rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari bolalarda rivojlanish sohalari bo'yicha tayanch kompetensiyalarni shakllantirishning integrativ-variativ dasturlariga asoslangan Play guruhlar faoliyatidagi kreativlikka ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan.

G.M. Nazirova maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan yoshga doir xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega bo'lganligi sababli, bu yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati – o'yin. To'g'ri tashkil etilgan o'yinda esa bolaning jismoniy, aqliy va shaxsiy sifatlarining rivojlanishi, o'quv faoliyatiga tayyorlik shakllanishi va maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy muvaffaqiyatini ta'minlash uchun sharoitlar yaratiladi, - deb hulosasi qilinadi.

Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda respublikada ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari darajasiga ko'tarildi. Biroq, o'tkazilgan tahlillar maktabgacha ta'lim sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarning samarasi va natijasi yetarli darajada emasligini ko'rsatmoqda.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni takomillashtirish oid ilmiy tadqiqotlar quyidagilarni inobatga olish lozim:

- maktabgacha ta'lim tizimida variativ dasturlar joriy etish, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha muqobil, moslashuvchan modellar yetarli darajada rivojlantirish

hamda taraqqiy etgan mamlakatlar singari ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, matematik, jismoniy va ijodiy rivojlantirish, atrof muhit bilan tanishuvga yo‘naltirilgan maxsus davlat ta‘lim dasturlari tatbiq qilish.

- davlat maktabgacha ta‘lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan o‘rta maxsus ma‘lumotga ega bo‘lgan pedagog kadrlarni oliy ma‘lumotli qilish;

- maktabgacha ta‘lim sifati monitoringini yuritish tuzilmaviy va tashkiliy jihatdan nazarda tutilmaganligi sababli, maktabgacha ta‘lim muassasalaridagi ta‘lim jarayonining sifati va samaradorligini baholashning zamon talablarini ishlab chiqish;

Xorijiy davlatlar ilg‘or tajribasining tahlili zamonaviy maktabgacha ta‘lim muassasalarida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratishga yo‘naltirilganligi bilan tavsiflanib, bolaning ijobiy ijtimoiylashuvi imkoniyatlarini namoyon qilish, uning har tomonlama shaxsga oid ma‘naviy-axloqiy va ongli rivojlanishi, maktabgacha yoshga oid tegishli faoliyat turlari asosida tashabbuskorligi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, muloqot doirasida katta yoshdagilar va tengdoshlari bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini ochishga qaratilgan.

Demak, uzluksiz ta‘lim tizimining muhim bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish, maktabgacha ta‘lim muassasalari davlat va nodavlat tarmog‘ini kengaytirish, moddiy texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta‘minlash, maktabgacha ta‘lim muassasalariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta‘lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta‘lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma‘naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash maktabgacha ta‘limi sohasidagi olib boriladigan ilmiy tadqiqot ishlarining samaradorligini belgilab beradi.

Faydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PQ-4312-son Qarori

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 9-sentabrdagi PQ-3261-sonli qarori

3.Abdullayeva N.Sh. Maktabgacha ta‘limni variativ yondashuv asosida takomillashtirish: Avtoref. ... ped. Fan..fals dok. (PhD) – T., 2019. – B. 22-23bet

4.Mardonova G.A. Oilada bolalarni alla vositasida ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashning imkoniyatlari:-ахлоқий Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)...dis.-T.,2019.-159

"ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING AXLOQIY QARASHLARI ("MUBAYYIN" ASARI ASOSIDA)"

Tadjibayeva Ruxshona

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning "Mubayyin" asari asosida uning axloqiy qarashlari va diniy tamoyillari tahlil qilinadi. Asarda bayon qilingan halollik, adolat, taqvo, sabr-toqat, ilmga muhabbat kabi axloqiy qadriyatlarning mazmun-mohiyati yoritilgan. Bobur ushbu asarda insonning ma'naviy kamolotga erishishi uchun zarur bo'lgan tamoyillarni sodda va xalqchil tilda tushuntiradi. "Mubayyin"ning bugungi ta'lim-tarbiya jarayonida yosh avlodni ma'naviy va axloqiy jihatdan yuksak insonlar qilib shakllantirishdagi ahamiyati keng muhokama qilinadi. Asar bugungi kun uchun ham dolzarbligini saqlab qolgan bo'lib, o'quvchilarni tarbiyalashda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, Mubayyin, axloqiy qarashlar, halollik, adolat, taqvo, sabr-toqat, ilm, ma'naviy kamolot, yoshlar tarbiyasi.

Kirish

Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat buyuk davlat arbobi va shoir, balki diniy va axloqiy qadriyatlarni chuqur anglagan shaxs sifatida ham tarixda o'z o'rniga ega. Uning "Mubayyin" asari inson axloqi, halollik, adolat va taqvo kabi fazilatlarni targ'ib qiluvchi muhim asardir. Ushbu asarda Bobur Islom dinining asosiy tamoyillarini sodda va xalqchil usulda tushuntiradi, shuningdek, insonning o'zini tutishi, jamiyatdagi burchlari va ma'naviy kamolotga erishish yo'llarini bayon qiladi. Bugungi yoshlarni tarbiyalashda Boburning "Mubayyin" asaridagi qarashlar o'ta dolzarbdir, chunki unda nafaqat diniy, balki insoniy axloqning asosiy tamoyillari ham yoritilgan.

Asosiy qism

"Mubayyin" asari o'z mazmuni jihatidan Zahiriddin Muhammad Boburning diniy va axloqiy qarashlarini yorituvchi muhim manba hisoblanadi. Ushbu asar insonning ma'naviy kamoloti va axloqiy jihatdan yuksalishiga yo'naltirilgan bo'lib, unda axloqiy fazilatlarning Islom dini asoslaridan kelib chiqqanligi ochib berilgan. Bobur o'z asarida odob-axloq qoidalari, halollik va adolat, sabr-toqat, shukronalik kabi fazilatlarni ta'kidlab, ularning jamiyat hayotidagi ahamiyatini ochib beradi.

Halollik va adolat tamoyillari. Bobur "Mubayyin" asarida adolatni jamiyatdagi barcha ijtimoiy munosabatlarning asosiy tamoyili sifatida ko'rsatadi. Unga ko'ra, inson har qanday vaziyatda halol bo'lishi, adolatni hayotning bosh mezoni sifatida qabul qilishi kerak. Bobur davlatni boshqarishda ham adolat

tamoyillariga amal qilgan va bu fikrlarini "Mubayyin"da keng yoritgan. U insonlarning huquqlarini himoya qilish, zulm va nohaqlikka qarshi kurashish muhim ekanligini ta'kidlaydi. Asarda keltirilgan bu tamoyillar bugungi kunda ham rahbarlikda, shuningdek kundalik hayotda dolzarb bo'lib qolmoqda.

Ilm va odobning ahamiyati. "Mubayyin" asarida ilm olishning zarurligi alohida ta'kidlanadi. Boburga ko'ra, ilm nafaqat dunyoviy muvaffaqiyat uchun, balki oxiratda najot topish uchun ham muhim omildir. U ilmni axloq bilan birga o'rganishni targ'ib qiladi, chunki ilm odob-axloq bilan uyg'unlashmaguncha insonni haqiqiy kamolotga yetkazmaydi. Bobur ilmni insonning eng ulug' boyligi deb bilib, uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini ko'rsatadi. Yoshlarni ilm-fanga rag'batlantirish, odobni esa hayotning ajralmas qismi sifatida qabul qilishni nasihat qiladi.

Taqvo va sabr-toqat fazilatlari. Bobur asarda taqvoni insonning ichki pokligi va Allohga bo'lgan sodiqligining asosi sifatida talqin qiladi. Unga ko'ra, taqvo bilan yashagan inson har doim to'g'ri yo'lda bo'ladi, yomonliklardan saqlanadi va oxiratda najot topadi. Bobur sabrni har qanday qiyinchiliklarni yengib o'tishning asosiy quroli sifatida ko'rsatadi. U sabr-toqatli bo'lishni nafaqat hayot sinovlarida, balki kundalik munosabatlarda ham qo'llashni tavsiya etadi. "Mubayyin"da Bobur bu fazilatlarni nafaqat o'zi amal qilgan tamoyillar, balki yoshlarga o'rnak bo'ladigan hayotiy saboqlar sifatida bayon etadi.

Insoniy munosabatlarda hurmat va samimiyat. Bobur "Mubayyin" asarida insoniy munosabatlarda samimiyat va hurmatning ahamiyatini ham yuksak qadrlaydi. U odamlar o'rtasida mehr-oqibat, hamjihatlik va bir-biriga yordam berishning ahamiyatini ta'kidlaydi. Asarda insonni boshqalarga nisbatan hurmatli va xushmuomala bo'lishga chaqiruvchi fikrlar keng yoritilgan. Bobur bu tamoyillarni nafaqat diniy qarashlar orqali, balki hayotiy tajribasi bilan ham asoslab beradi.

Jamiyatni rivojlantirishda axloqiy qadriyatlarning o'ri. "Mubayyin" asarida axloqiy qadriyatlar jamiyatni rivojlantirish va farovonlikka erishishning asosiy vositasi sifatida ko'rsatiladi. Bobur davlat boshqaruvida ham, shaxsiy hayotda ham adolat, halollik va samimiyatning muhim ekanligini qayta-qayta ta'kidlaydi. U jamiyatning rivojlanishi, kishilarning o'zaro ishonchi va hamjihatligi axloqiy qadriyatlarga amal qilish orqali ta'minlanishini ko'rsatadi.

Bugungi ta'lim jarayonida "Mubayyin" asaridagi axloqiy tamoyillar o'quvchilar uchun ibrat maktabi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ushbu asarda bayon qilingan g'oyalar yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda, ularni yuksak ma'naviyatli va halol insonlar sifatida tarbiyalashda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Halollik, adolat va ilmga muhabbat kabi qadriyatlarni yosh avlodga singdirish orqali jamiyatda ma'naviy yuksalishga erishish mumkin.

Xulosa

Zahiriddin Muhammad Boburning "Mubayyin" asari inson axloqi va ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan muhim asarlardan biridir. Asarda bayon qilingan axloqiy tamoyillar va diniy qarashlar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolgan. Yosh avlodni tarbiyalashda ushbu asar ibratli manba bo'lib, u orqali halollik, adolat, taqvo va ma'naviy poklik kabi fazilatlarni o'rgatish mumkin. Bobur merosi yoshlarga nafaqat diniy, balki insoniy qadriyatlarni o'rgatishda ham bebaho ahamiyatga ega bo'lib, uning qimmatli o'g'itlari yosh avlodning axloqiy va ma'naviy tarbiyasida mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Bobur, Zahiriddin Muhammad. *Boburnoma*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993.
2. Bobur, Zahiriddin Muhammad. *Mubayyin*. Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2002.
3. Karimov, A. *Bobur va uning asarlari*. Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
4. Akhmedova, Z. *Boburning axloqiy qarashlari va ularning zamonaviy yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati*. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2015.
5. Hayitov, A. *O'zbek adabiyoti tarixi*. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2000.
6. Rasulova, M. *Bobur ijodida ma'naviyat va axloq masalalari*. Andijon: Andijon davlat universiteti nashriyoti, 2017.

TRAINING ATHLETICS TECHNIQUES FOR PRIMARY STUDENTS

Tursunaliyeva Gulasal

student of the Department of Physical Education
and Sports in Preschool
and Primary Education, CSPU

ANNOTATION: *This article provides a sufficient description of the basics and features of the methodology for teaching track and field athletics to elementary school students, as well as the basics of track and field exercise techniques.*

Keywords: *physical education lesson, athletics, teaching methodology, technique.*

The main task of athletics training should be to improve the health of students and to educate a spiritually mature person. The school conducts athletics training in walking, running, throwing, and jumping. The teaching material of this course is intended for students of all age groups. For primary school students, the main

emphasis is on strengthening health, comprehensive physical training, and the development of coordination abilities (agility), speed, flexibility, and endurance.

During the general preparatory period of training, it is necessary to pay great attention to the formation of physical qualities, movement skills and qualifications of students. It is necessary to plan in accordance with the goal of directing students to types of athletics, developing physical qualities and technical skills in types, ensuring their participation in competitions of various categories. Maintaining general and special physical fitness, the achieved level of technical training until the next preparatory period using active and passive relaxation methods. In the process of general physical training and special physical training, children are used to use tools familiar to them in physical education classes, other sports-type movement games, gymnastics, and relay games. Development of a lesson on athletics for primary school students.

- Training objectives:

- 1. To familiarize participants with the safety of their behavior and equipment at the stadium.

- 2. To teach the correct technique of running short distances.

- 3. To develop the quality of agility through active games.

- Equipment: starting poles (4), red and white flags, whistles, chips, chalk.

- Venue: school, sports field, (stadium)

- The following athletics exercises are used to develop the main physical qualities:

- development of coordination: running in alternating directions along limited obstacles; running short distances in different starting positions; jumping rope alternately with one leg and with two legs;

- development of speed - repeated execution of exercises running at maximum speed from a high start;

- development of endurance: (walking) running at high speed, running at a steady pace at an average speed alternating with accelerations.

Thus, in training, it is necessary to take into account that children of this age have insufficiently developed fatigue resistance, cannot assess the degree of fatigue well and cannot clearly express their feelings in words, and strictly control the amount of physical exertion. The high level of cognitive activity, interest, and emotionality of younger schoolchildren requires the inclusion of tasks in training that provide a certain degree of freedom and independence of actions, stimulating a creative approach and initiative. Control and assessment at this age are used to stimulate the student's desire for self-development (improvement), increase activity, and stimulate the joy and happiness that comes from engaging in physical exercises.

Adabiyotlar

1. Abdullayev A, Xonkeldiyev Sh. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. – T. O‘zDJTI. 2005.y.231b.
2. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. T., O‘zDJTI, 2005.- 171 b..
3. Shakirjanova K.T. Yengil atletikada boshqaruv va pedagogik nazorat. Ma’ruza. O‘zDJTI bosmaxonasi. Toshkent. 2009 Y. 3,75 b.t.
4. Qudratov R.Q., G’aniboyev I.D., Soliyev I.R., Baratov A.M. Yengil atletikachilarning maxsus mashqlari. O‘quv qo‘l-ma. T., O‘zDJTI, 2011.-64 b.

PREPARING PRESCHOOL CHILDREN FOR SCHOOL THROUGH ACTIVITY GAMES

Tolkinova Furuza

Student of the Department of Physical Education
and Sports in Preschool
and Primary Education, CSPU

***ANNOTATION:** This article describes how to prepare preschool children for school by using active games to develop their physical qualities and prevent psychological distress.*

***Keywords:** physical education lesson, gymnastics, teaching methodology, technique, children, active games, school, preschool education.*

The decisions of our government aimed at developing physical education and sports are a clear proof of this. In the current era of high technological development, children's demand for movement is not so great. That is why recently, in the press and on television, medical and physical education and sports specialists have been speaking with concern about the daily decrease in hypodynamia, that is, physical exercise, physical labor, and active movement in human activity. This, in turn, is causing the annual increase in cardiovascular diseases characteristic of our century. The decrease in motor activity is especially dangerous for children of kindergarten age. Therefore, comprehensive physical training should begin with the most basic pillar of the physical education system - physical education of preschool children.

If we look at the lifestyle of preschool children, in kindergarten children spend a lot of time drawing, performing manual labor tasks, listening to various fairy tales and stories, watching TV, sitting and playing with toys. As a result, motor activity decreases and the above-mentioned diseases occur. One of the necessary means of preventing these diseases is to move more and engage in physical exercises, especially with active games. Therefore, it is of particular importance to conduct high-quality, new forms of physical education for children of kindergarten age. This makes it possible to strengthen the child's health, increase working capacity, and

improve physical qualities. As a result, the tasks of improving the physical education system in preschool institutions and developing measures to increase the motor activity of children are set. The set of health-improving measures in kindergartens provides for the protection and strengthening of children's health, full physical development, and the cultivation of various motor activities.

As a result of purposeful engagement in physical education in kindergarten from an early age, children will have a solid wealth of movement skills and abilities by the time they move to the senior group. Therefore, physical education exercises, active games, sports, tourism should be viewed as a means of movement activity and physical development, because the above-mentioned ideas are of decisive importance in the life of the growing generation, in shaping their personality, and in creating a comprehensively well-rounded generation.

We found it necessary to make the following proposals: 1. Create conditions for preschool educational institution specialists to engage in sports and provide them with practical and methodological assistance. Involve leading specialists in this work, namely educators who are constantly involved in sports, specialists from children's and adolescents' sports schools, athlete-teachers working in secondary schools, professors and teachers of the Department of Children's Sports of the CHDPU.

2. Conducting sports promotion and propaganda work among educators and parents in preschool educational institutions, that is, organizing and holding conversations and meetings with honored athletes, winners of international competitions, republican champions, leading athletes.

3. Organizing and holding conversations, disputes, open classes, and demonstrations in order to provide practical and methodological assistance to educators from the leadership of preschool educational institutions and higher organizations. Involving leading specialists and stylists with rich experience working in the region in this work.

4. Organize and hold seminars among educators on programs, teaching aids, and new literature that meet current requirements.

5. In order to include active games played in water, sand, to music, and with objects in the program, taking into account the opinions of educators, leading specialists working in the region and the republic should study this issue and, on this basis, make changes to the program or create a program.

6. Increase the number of hours allocated to active games in the curriculum at higher educational institutions, academic lyceums, and vocational colleges that train specialists working in preschool educational institutions.

In conclusion, it can be said that during the period of independence of Uzbekistan, an incomparably large number of and large-scale measures have been

taken to improve the health of the population, especially in the direction of implementing the motto of a healthy mother - a healthy child, which deserves attention and applause. The decrease in motor activity is especially dangerous for children of kindergarten age. Therefore, comprehensive physical training should begin with the most basic pillar of the physical education system - physical education of preschool children. If we look at the lifestyle of preschool children, in kindergarten, children spend most of their time drawing, performing manual labor tasks, listening to various fairy tales and stories, watching TV, and sitting and playing with toys. As a result, motor activity decreases and the above-mentioned diseases occur.

REFERENCES USED.

1. Tolipov O'. M. Usmanboyeva. Pedagogical technology: theory and practice. T. 2015.
2. Aliev A. Students' creativity.-Tashkent: Okhtiyet, 2016
3. Ollokhlova Farzona Umedillayevna. psychological-pedagogical description/ Research world scientific methodical journal/ Issue 6, 2nd set January 2023, pages 336-339
4. V.V. Voropaev, S.A. Pushkin. Kratki course gymnastics. M., "Soviet sport", 2008.

ИЗУЧЕНИЕ ИМЕНИ СУЩЕСТВИТЕЛЬНОГО В РУССКОМ ЯЗЫКЕ

Араббаева Севинч Хуршид кизи

Студентка группы УТА 24/2 ЧГПУ

Научный руководитель: **Юлдашева Тохта Аметовна**

И.о. доцента кафедры межфакультетского русского языка, ЧГПУ

Имя существительное - часть речи, которая обозначает предмет и отвечает на вопросы кто? что?

Предметом в грамматике называется всё то, о чем можно спросить **кто это? что это?**

По значению имена существительные делятся на *собственные* и *нарицательные, одушевленные* и *неодушевленные*.

Имена существительные относятся к мужскому, женскому или среднему роду.

Имена существительные изменяются по падежам и по числам.

Начальная форма имени существительного - именительный падеж единственного числа. В предложении имена существительные чаще всего бывают подлежащим и дополнением, а так же несогласованным определением, приложением, обстоятельством и именной частью составного сказуемого.

Имена существительные собственные и нарицательные

Собственные имена существительные - это названия отдельных лиц, единичных предметов.

К собственным именам существительным относятся:

1. фамилии (псевдонимы, прозвища), имена, отчества людей, а также клички животных.
2. географические названия
3. астрономические названия
4. названия газет, журналов, произведений литературы и искусства, заводов, кораблей и др.

Следует отличать собственные имена существительные от собственных наименований.

Собственные имена существительные иногда переходят в нарицательные (например: Ампер - французский ученый, ампер - единица силы электрического тока)

Нарицательные имена существительные - это общее название для всех однородных предметов и явлений.

Имена существительные нарицательные могут переходить в собственные (например: земля - суша, Земля - планета Солнечной системы).

Имена существительные одушевленные и неодушевленные

Имена существительные одушевленные служат названиями людей, животных и отвечают на вопрос кто?

Неодушевленные имена существительные служат названиями неживых предметов, а также предметов растительного мира и отвечают на вопрос что?

К неодушевленным также относятся имена существительные типа группа, народ, толпа, стая, молодёжь и т.д.

Число имен существительных.

Имена существительные употребляются в единственном числе, когда речь идет об одном предмете, и во множественном числе, когда имеется в виду несколько предметов.

Некоторые имена существительные употребляются ли только в единственном, или только во множественном числе.

Существительные, которые имеют только форму единственного числа:

1. Названия множества одинаковых лиц, предметов (собираательные существительные): *молодежь, детвора, студенчество, человечество* и др.

2. Названия предметов с вещественным значением: *асфальт, железо, земляника, молоко, сталь, свёкла, керосин* и др.

3. Названия качества или признака: *белизна, злоба, ловкость, молодость, свежесть, синева, темнота, чернота* и др.

4. Названия действия или состояния: *косьба, рубка, выполнение, внушение, горение* и др.

5. Собственные имена в качестве наименований единичных предметов: *Москва, Волга* и др.

6. Слова: *бремя, вымя, пламя, темя*

Существительные, которые имеют только форму множественного числа:

1. Названия составных и парных предметов: *брюки, весы, перила, тиски, щипцы, грабли, ножницы, вилы, качели* и др.

2. Названия материалов или их отходов, остатков: *белила, дрожжи, макароны, сливки, отруби, опилки* и др.

3. Названия промежутков времени, игр: *прятки, жмурки, шахматы, каникулы, сутки, будни* и др.

4. Названия действий и состояния природы: *хлопоты, выборы, переговоры, восходы, заморозки, дебаты* и др.

5. Некоторые географические названия: *Карпаты, Фили, Горки, Афины, Альпы, Сокольники* и др.

Падежи имен существительных

В русском языке шесть падежей. Падеж определяется по вопросам.

Именительный — кто? или что?

Родительный — кого? или чего?

Дательный — кому? или чему?

Винительный — кого? или что?

Творительный — кем? или чем?

Предложный — о ком? или о чем?

Чтобы определить падеж существительного в предложении, нужно:

1. найти слово, к которому относится данное существительное; 2. поставить от этого слова к имени существительному вопрос.

Склонение имен существительных

Изменение слов по падежам называется склонением.

Существует **три склонения** имен существительных.

Первое склонение.

К первому склонению относятся имена существительные женского рода с окончанием -а (-я) в именительном падеже единственного числа (страна, земля), а также существительные мужского рода, обозначающие людей, с теми же окончаниями (юноша, дядя).

Второе склонение.

